

O'zDJTU
huzuridagi
RIAIM

O'quv-uslubiy
majmua

Koreys tili yo'nalishi
tinglovchilar uchun

O'quv-uslubiy
majmua

2019

**Filologiya va tillarni o'qitish:
Sharq tili
Kommunikativ tilshunoslik va til kompetentsiyalari**

Модулнинг ўқув-услубий мажмуаси Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини Мувофиқлаштирувчи кенгашининг 2019 йил 18 октябрдаги 5 – сонли баённомаси билан маъқулланган ўқув дастури ва ўқув режасига мувофиқ ишлаб чиқилган.

Tuzuvchilar: f.f.d., professor Z.N.Xudaybergenova

Taqrizchilar: Sh.Usmonova filologiya fanlari doktori, professor (TDSHl)

Ўқув -услубий мажмуа ЎзРИАИМ Кенгашининг 2019 йил 27 сентябрдаги 9 - сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O`QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA`LIM METODLARITAЪЛИМ МЕТОДЛАРИ	13
III.	NAZARIY MATERIALLAR	16
IV.	AMALIY MASHg`ULOTLAR MATERIALLARI	21
V	KEYSLAR BANKI	98
VI.	GLOSSARIY	100
VII.	ADABIYOTLAR RO`YXATI	108

I. Ishchi o`quv dasturi

Kirish

Dastur Ўzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta`lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagi “Ўzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi PF-4947-sonli, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta`lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to`g`risida”gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ–2909-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo`lib, u oliy ta`lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg`or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni yo`lashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko`nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni oliy ta`limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg`or ta`lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta`lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o`quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo`yicha so`nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog`i, multimedia tizimlari va masofadan o`qitish usullarini o`zlashtirish bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta`lim sohasi bo`yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo`yiladigan umumiy malaka talablari va o`quv rejalari asosida shakllantirilgan bo`lib, bu orqali oliy ta`lim muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta`lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg`or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini

o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o‘zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq kompetensiyalarga ega bo‘lishlari ta‘minlanadi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar o‘zgartirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Tinglovchilarning tilshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirish, tilshunoslikka oid fundamental bilimlar asosini egallashiga ko‘maklashish, jahon olimlarining tilshunoslik fani sohasida yaratgan muhim nazariy tadqiqotlarini tahlil qilishga o‘rgatish, ularni dars jarayoniga samarali tatbiq etishga o‘rgatish.

Modul mavzu va topshiriqlari

Kommunikativ tilshunoslik tushunchasi. CEFR va uning doirasida 4 kompetensiya: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar. Til kompetensiyalarni o‘qitish usullari: Greysning “xamkorlik prinsiplari” (Grice’s cooperative principles), nolingvistik faktorlar (speech acts, intersubjectivity, social representation) va ularni o‘qitish usullari. Kommunikativ grammatika va kommunikativ leksika. Grammatika va leksikologiyani diskurs doirasida o‘qitish. O‘qitishda konstruktivistik yondashuv. Til aktiv vosita sifatida (Metaphors we live by). “Aktiv til”ni o‘qitish va baholash mexanizmlari. So‘z va konsept. Konseptlarini interpretatsiya qilish va o‘qitish.

Maxsus fanlar bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- tilshunoslik tarixida ro‘y bergan paradigmalarning siljishi, antropotsentrik
- paradigma xususiyatlari va uning boshqa paradigmalardan farqli jihatlari;

- zamonaviy lingvistik yo'nalishlari sohalararo fanlar ekanligi va boshqa fanlar bilan chambarchas bo'liqligi va munosabatlari;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlari (Kognitiv lingvistika, Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik, Lingvopragmatika) anhanaviy tilshunoslikdagi fanlardan farqli jihatlari;
- zamonaviy lingvistika yo'nalishlari fanining nazariy va amaliy yutuqlari;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlaridagi turli nazariy qarashlar va yetakchi kontseptsiyalar;
- kommunikativ grammatika va kommunikativ leksika;
- so'zlashuv orqali kommunikativ kompetentsiyani o'rgatish;
- tinglash orqali kommunikativ kompetentsiyani o'rgatish;
- yozish orqali kommunikativ kompetentsiyani o'rgatish;
- o'qish orqali kommunikativ kompetentsiyani o'rgatish.
- til obektiv borliq haqidagi bilimlarni aks ettiruvchi vosita ekanligi;
- til bilim olish va saqlash, uni amalda qo'llash va uzatish manbai, tafakkurni va insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi vosita ekanligi;
- til turli xil bilim tuzilmalari va milliy-madaniy xarakterga ega bo'lgan mahlumotlarni aks ettiruvchi vosita ekanligi;
- madaniy kontsept, freym, kontseptual dunyo tasviri, lisoniy dunyo tasviri, milliy dunyo tasviri tushunchalari; kontseptual sistema va til sistemasi o'rtasidagi munosabatlar; olam va undagi narsalarni kategoriyalash va kontseptuallashtirish jarayonlari;
- o'zga va ona vatan madaniyatidagi lisoniy farqlar, lisoniy va milliy dunyo tasvirlardagi farqlar va o'xshashliklar;
- tildagi milliy-madaniy xususiyatga ega madaniy birliklar; madaniy kodlar, madaniy kompetentsiya tushunchalari;
- kommunikativ-pragmatik strategiyalar va taktikalar, nutq jarayoni va uning turlari, nutqiy kompetentsiya, nutqiy ahloq, nutqiy aktlarning klassifikatsiyasi;
- kommunikativ jarayonining pragmatik effektivligi, konqentsional va

- nokonventsional implikaturalar, til birliklarining pragmatik jihati;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlari sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqotlarga qo'yilgan talablar;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlari sohasida bajarilgan tadqiqotlarda ilmiylik va manbalarga asoslanib fikr yuritish talablari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining metodologik printsiplari,
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlarida til va tafakkur, til va madaniyat, til va nutq munosabatlariga turli yondashuvlar;
- o'rganilayotgan fanlarning terminologik apparati, qonuniyatlari va asosiy tushunchalari;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining asosiy tamoyillari va ularning
- xususiyatlari;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining asosiy tushunchalari: madaniy
- birliklar va ularning turlari, nutqiy akt, kontsept va uning turlari, freym nazariyasi va uning tahlili; bilim tuzilmalari, axborot, kategorizatsiya, kontseptualizatsiya,
- kognitsiya, prototip, kontseptual va lisoniy dunyo tasviri; □ kognitiv metafora, uning turlari va verballashuv xususiyatlari; stilistik
- vosita, kategoriya va hodisalarni o'rganishda lingvokognitiv yondashuv; stilistik kategoriya va hodisalarni o'rganishda lingvokognitiv yondashuv;
- pragmatikadagi kooperatsiya tamoyili, nutqiy akt turlari, pragmatik
- vazifalar, kommunikativ-pragmatik hodisa, hushmuomalalik tamoyili, nutqiy aktning semantik-pragmatik xususiyatlari;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlar bo'yicha mavzularni bilish va egallagan
- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- lisoniy material bilan ishlash;
- muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish va ifodalash;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining asosiy tushunchalariga ilmiy izoh
- bera olishni va ushbu tushunchalarini o'z ilmiy tadqiqotlarida qo'llay olish;

- lisoniy birliklarni tahlil qilish metodlarini (kross-madaniy tahlil,
- kontseptual tahlil, lingvopragmatik tahlil, freym tahlil, kognitiv xarita tuzish) bilish va ularni amaliyotda qo'llash;
- til birliklari kognitiv va madaniy tahlilini boshqa yondashuvlardan
- (struktural, generativ, semantik) farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish;
- til birliklarda aks ettirilgan milliy dunyo tasvirini ifoda etuvchi milliy-madaniy bo'yoqdor lisoniy birliklarni ajrata olish;

Tinglovchi:

- tilshunoslikning nazariy aspektlarini sharhlash;
- tilshunoslik manbalari bilan ishlash;
- tilshunoslik vositalarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- tilshunoslik tadqiqiga yangi ma'lumotlarni kiritish;
- tarjimada noyob so'zlarni qo'llash **ko'nikmasiga** ega bo'lishi kerak.

Tinglovchi:

- chet tilini o'qitishning xorijiy metodikasi tajribasini tahliliy o'rganish, umumlashtirish, ularning yutuqlaridan ta'lim jarayonida foydalanish;
- kommunikativ kompetensiyani aniqlash xususiyatlariga mos nazorat metodini tanlash;
- testlarning kommunikativ kompetensiya darajasini aniqlash, test tuzish, uning sifat va samaradorligini aniqlash mezonlari bilish;
- test natijalarini aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta'limga joriy etish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi zarur.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Sharq tillarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar, o'quv materiallarini yaratish va baholash usullari” kursi amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- darslarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash,

kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi
 “Sharq tillarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, o‘quv materiallarini yaratish va baholash usullari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi diskurs tahlili o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning til ko‘nikmalarini talab darajasida qo‘llay olish malakasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar til ko‘nikmalarini mos ravishda amalda qo‘llash malakasi va kasbiy salohiyatlarini rivojlantiradilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
1.	Kommunikativ tilshunoslik. Matn tilshunosligi.	4	2	2	
2.	Til va tafakkur	2		2	
3.	Sociolingvistika (Ijtimoiy tilshunoslik)	2		2	
4.	Lingvistikaning boshqa fanlar bilan munosabati	2		2	
5.	Matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari	2		2	
6.	Til kompetensiyalari. Madaniyatlararo til kompetensiyalari	2		2	
7.	Lingvokulturologiyaning tarixiy va	2		2	

	nazariy asoslari				
		16	2	14	

NAZARIY MASHFULOTLAR MAMUNI

1-mavzu: Kommunikativ tilshunoslik. Matn tilshunosligi.

XX asr tilshunosligi tilning bevosita harakatdagi birliklarini, undagi o'zgarishlarni o'rganish bilan shug'ullana boshladi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik aspektda olib borildi. Bu aspekt tilning rivojlanishini, taraqqiyotini kishilar hayoti, ularning nutqiy faoliyatlari bilan bog'liq holda o'rganishni etakchi maqsad qilib oladi. Bu esa tilshunoslikda lingvistik-pragmatika matn (kontekst) tilshunosligi singari yangi sohalarning shakllanishi va taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Hozirgi zamon tilshunosligida katta mavqega ega bo'lgan kommunikativ tilshunoslikni o'rganishni va tahlil qilish tilshunoslik sohasidagi bosh omillardan biri bo'lib qolmoqda.

AMALIY MASHFULOTLAR MAMUNI

1- mavzu: Kommunikativ tilshunoslik. Matn tilshunosligi.

XX asr boshlariga kelib tilshunos olimlar tilda tovush, so'z, so'z birikmasi va gapdan ham yirik birliklar borligini aniqladilar. Bunday yirik til birliklari qatoriga sintaktik butunlik, abzac (xatboshi), diskurs va matn (kontekst) kiradi. Bunday yirik til birliklariga hozirgi tilshunoslikda turlicha ta'rif berilmoqda. Bunday turlicha ta'riflar zamirida bir bosh mavzu asosida bog'langan gap yoki gaplar yig'indisining umumlashtirilishi haqida fikr yotadi.

2- mavzu: Til va tafakkur

Insoniyat bilan birga paydo bo'lgan til uning hayotida eng muhim rolni o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini y o'qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predm etlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi.

3- mavzu: Sociolingvistika (Ijtimoiy tilshunoslik)

Sociolingvistika atamasi hozirgi zamon tilshunosligida quyidagi ikki ma`noda qo`llanadi: a) til va jamiyat o`rtasidagi munosabat, tilning rivojlanishida jamiyatning ahamiyati muammolarini o`rganish; b) millat yoki xalqning ijtimoiy tabaqalanishi bilan bog`liq holda tilda vujudga keladigan farqlar muammosini o`rganish.

Tilshunoslik tarixida bu masalalar ma`lum darajada tadqiq etilgan. Ammo XX asrning 60 – 70- yillariga kelib tilshunoslikda ana shu muammolarni o`rganishga e`tibor yanada kuchaydi. Sociolingvistikaga oid bunday muammolarni o`rganishda tilshunoslik faqat jamiyatshunoslik faniga emas, balki falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya singari yana bir qator fanlar yutuqlarini ham inobatga olishi lozim bo`ladi.

4- mavzu: Lingvistikaning boshqa fanlar bilan munosabati

Ma`lumki, har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo`ladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matni shakllantirishi yoki matni bo`laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblanishi borasida ancha-muncha munozaralar mavjud. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda til ilmini matn assosida o`rganish fanning ilmiy mohiyatini tushunishga asos bo`lib hizmat qilmoqda. Matn birliklari sifatida abzast sintaktik qurulma va simantik maydonlar matnning o`rganish ob`ektiga aylandi.

5- mavzu: Matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari

Tabiiyki, matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari borasidagi amaliy mashg`ulotimizda kognitiv-diskursiya haqida fikr bildirishdan avval kognitiv lingvistika, uning vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo`nalishlari xususida ma`lumot beriladi, chunki kognitiv lingvistika borasida dunyo tilshunosligida bir-biriga qarama-qarshi fikrlar hamon davom etmoqda.

6- mavzu: Til kompetensiyalari. Madaniyatlararo til kompetensiyalari

“Dunyo tillarini o`rganish va tahlil qilish jarayonida ularning kompetensiyaviy darajasini o`rganish talab qilinadi. Tilni qo`llash hamda o`rganish

insonning ijtimoiy sub'ekti sifatida **umumiy va kommunikativ kompetensiyalarni** o'z faoliyati davomida rivojlantirib borishini o'z ichiga oladi. Ular turli xil cheklovlarni inobatga olgan holda turli sharoitlarda belgilangan vazifani amalga oshirishni ta'minlovchi kompetensiyalarga asoslanadi hamda ma'lum **bir mavzu va muloqot doirasidan** kelib chiqqan holda matnlarni yaratish va tushunishga qaratilgan **faoliyat turlari va jarayonlarda** o'z aksini topadi.”

7- mavzu: Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari

Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi.

Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida tilni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Tilshunoslikning lingvo-madaniyatshunoslik fani bevosita millatning o'ziga xos madaniyatini urf-odatlarini, aniqrog'i, o'zligini o'rganuvchi fani sifatida yuzaga keldi. Demak, til kompetensiyasi tilshunoslik fanining oldiga qo'ygan talabi shuki, ya'ni tillarni o'rganishda millat madaniyatini uning o'ziga xos jihatlarini ham tahlil etishligi bosh masala qilib belgilaydi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- noan'anaviy o'qitish (interaktiv, konferensiya, debat);
- davra suhbatlari (muhokama etilayotgan muammo va uning yechimi bo'yicha mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli raqamlar taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL

TA'LIM METODLARI.

MULOQOT TRENINGI

Ushbu trening tinglovchilarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda bunday mashg‘ulot tinglovchilarni kichik guruhlariga bo‘lgan holda o‘tkaziladi.

FSMU TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv–seminari yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

BLIS-SO‘ROV TEXNOLOGIYASI

Blis- pedagogikada tezkor, bir zumlik ma’nosida ishlatiladi.

Bu texnologiyada tinglovchilarga o‘rganilgan butun mavzu yoki uning ma’lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo‘yicha tuzilgan savollarga javob (og‘zaki, yozma, biror jadval yoki diagramma ko‘rinishida) berishlari taklif etiladi.

BLIS – O‘YIN TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya tinglovchilarni harakatlar ketma–ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma–xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida tinglovchilar o‘zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o‘tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to‘liq sharoit yaratib beradi.

SINEKTIKA METODI

Bu metod amaliy, seminarlar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun qulay bo‘lib, «aqliy hujum» metodiga yaqin. Bunda tinglovchi darsda qo‘yilgan muammoni hal

qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo'lishi mumkin.

GALEREYANI AYLANISH METODI

Kichik guruhlarining barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlar fikrlari umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

SINDIKAT METODI

Guruh uchta kichik guruhlariga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur.

SKARABEY TEXNOLOGIYASI

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo'lib, u tinglovchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya tinglovchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

SWOT- TAHLIL JADVALI TEXNOLOGIYASI

SWOT termini inglizcha kuchli, kuchsiz, imkoniyat, havf so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan. Bu texnologiyadan tashkilot yoki biror korxonaning kelgusidagi strategik rivojlanish mexanizmlarini tahlil etishda foydalanish qulay.

DAVRA SUHBATLARI METODI

Davra suhbatida ma'ruzachi o'qituvchi bosh tashkilotchi bo'lib qoladi. Davra suhbatlari ko'pincha tinglovchilarga tanish yoki yaqin mavzularda o'tkaziladi. Davra suhbat mavzulari, rejalari, savollari tinglovchilarga avvaldan bir necha kun oldin tarqatiladi.

Tinglovchilar uchun mustaqil tayyorgarlik ko'rishga, ularni bir-birlari bilan avvaldan o'zaro fikr almashishga, kutubxona, internetdan ayrim ma'lumotlarni

to'plash, qayta ishlash, kichik matn tuzish imkoniyati yaratiladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir tinglovchi individual tayyorgarlik ko'radi. Har ikki tomon davrani o'tkazishga tayyorgarlik bilan keladi. Suhbatni o'qituvchi, goho lider tinglovchi olib borishi mumkin.

MUNOZARA METODI

Disput- bu ikki yoki ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki olib boriladigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Disput mavzusi tayyorgarlik ko'rish uchun o'tkazishdan oldin tinglovchilarga ma'lum qilinadi.

Tinglovchilarga bilim berishga mo'ljallangan disputda kamida bitta rais va ikki guruhning har biridan bir nafardan so'zlovchi qatnashadi. Disputni ochuvchi birinchi tinglovchi qo'yilgan taklifni ma'qullab chiqsa, ikkinchisi unga qarshi chiqadi, ya'ni opponent bo'ladi.

So'zlovchilarga 10 minutdan, har ikki guruhdan ikkitadan ortiq bo'lmagan qo'shimcha qilishga chiqadigan tinglovchilarning har biriga 5 minutdan vaqt beriladi. Ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi. So'zga chiquvchilarning barchasi raisga murojaat etishadi va uning qarori qat'iy bo'lib, disputning mavzudan chetga chiqib ketmasligini nazorat qiladi.

MUNOZARA LEKSIYA METODI

O'qituvchi leksiya o'qiydi, auditoriyaning savollariga javob beradi va o'z navbatida tinglovchilarga savollar bilan hujum qiladi. Bunday leksiyalarda tinglovchilarning faolligi ancha yuqori bo'ladi. Tinglovchilar soni 20 tadan ortiq bo'lmaganda munozarali leksiya metodi an'anaviy leksiyalarga qaraganda afzal bo'ladi, chunki bunday holda o'qitishning kichik guruhlarda qo'llaniladigan metodlarini tatbiq etishga keng imkoniyatlar tug'iladi.

III. NAZARIY MATERIAL MAZMUNI

1-MAVZU

Kommunikativ tilshunoslik. Matn tilshunosligi.

Reja:

- 1.1. Kommunikativ tilshunoslik va uning tarkibiy qismlari.
- 1.2. Matn tilshunosligi va uning taraqqiyot tarixi.
- 1.3. Matnning uch xususiyati va grammatik kategoriyalari.
- 1.4. Matnning ifoda qobig`i.
- 1.5. Matn va presuppoziciya.
- 1.6. Matnning amaliy maqsadga ko`ra turlari.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Tilning kichik va yirik birliklari; matn – tilning eng yirik birligi; matn mazmuni; matn ma`nosi; matnda integraciya; axborot va retrospekciya kategoriyalari; matn tarkibi; matnda mikrotema va makrotemalar; epigrafik matnlar; sfragistik matnlar; numizmatik matnlar; paleografik matnlar; og`zaki va yozma matnlar; ommaviy muloqot vositalar matn turi sifatida.

1.1. Kommunikativ tilshunoslik va uning tarkibiy qismlari.

XX asr tilshunosligi tilning bevosita harakatdagi birliklarini, undagi o`zgarishlarni o`rganish bilan shug`ullana boshladi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik aspektda olib boriladi. Bu aspekt tilni ng rivojlanishini, taraqqiyotini kishilar hayoti, ularning nutqiy faoliyatlari bilan bog`liq holda o`rganishni etakchi maqsad qilib oladi. Bu esa tilshunoslikda lingvistik-pragmatika matn (kontekst) tilshunosligi singari yangi sohalarning shakllanishi va taraqqiyotiga sabab bo`ldi. Hozirgi zamon tilshunosligida katta mavqega ega bo`lgan kommunikativ tilshunoslik o`z ichiga quyidagi sohalarni oladi:

1. Matn tilshunosligi.
2. Sociolingvistika.
3. Psixolingvistika.
4. Lingvistik pragmatika.

1. **Matn tilshunosligi.** XX asr boshlariga kelib tilshunos olimlar tilda tovush, soʻz, soʻz birikmasi va gapdan ham yirik birliklar borligini aniqladilar. Bunday yirik til birliklari qatoriga sintaktik butunlik, abzac (xatboshi), diskurs va matn (kontekst) kiradi. Bunday yirik til birliklariga hozirgi tilshunoslikda turlicha taʼrif berilmoqda. Bunday turlicha taʼriflar zahirida bir bosh mavzu asosida bogʻlangan gap yoki gaplar yigʻindisi degan maʼno yotadi.

Matn tilning eng katta birligi sanaladi. Matnning birligi sifatida tadqiq etish rus tilshunosligida 30-yillardayoq boshlangan edi. Bu oʻrinda A.M.Peshkovskiyning “Russkiy sintaksis v nauchnom obsheni” (1934), V.V.Vinogradovning “O xudojestvennoy proze” (1930), L.A. Bulaxovskiyning “Kurs russkogo literaturnogo yazika” (1952) kabi asarlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Chunki xuddi ana shu tadqiqotlar uning muallifi oʻziga xos lisoniy xususiyatlari singari muammolarni oʻrganishni boshlab berdi.

Hozirgi tilshunoslikda matn atamasiga turlicha taʼriflar berilmoqda. Masalan, tilshunos olim P.Gironing fikricha, matn oʻzaro bogʻlangan birliklar butunligi boʻlib, bu butunlikni tashkil etuvchi belgilar ishoralar uslubiy taassurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib yagona sistemani tashkil etadi.

Matnga aniq, toʻgʻri taʼrif berish uchun uning xususiyatlarini belgilash lozim. Tilshunos S.Todorovning aniqlashiga koʻra har qanday matn uch xususiyatga ega: a) jarayon, b) sintaksis xususiyat, v) semantik xususiyat. Matn aniq gaplardan tashkil topadi, bu esa matnning jarayon ekanini isbotlaydi. Matnning sintaktik xususiyati deyilganda matnning tashkil qiluvchi qismlar orasidagi oʻzaro bogʻlanish tushuniladi. Matnning semantikasi esa uning mazmunini oʻzida ifoda etadi. Demak, matn maʼlum sistema asosida tuzilgan, oʻz mazmuniga (semantikasiga) ega boʻlgan, tugʻlangan nutqiy faoliyat mahsulidir.

Matn tilshunosligida matn mazmuni va matn maʼnosi atamalari oʻzaro farqlanadi. Maʼlum bir matndan oʻrin olgan maʼlumot yoki axborot matnning mazmunidir. Matnning maʼnosi esa matn birliklari (gap, sintaktik butunlik, abzac) ga xos axborotdir. Matnning mazmuni unda ifodalanayotgan axborotning uzil-kesil yakunlanganligi bilan bogʻliqdir. Matn maʼnosi esa tugal fikr anglatganda ham oʻsha fikrning yana davom etishini taqozo etadi. Bundan koʻrinadiki, gap va matn

o`rtasidagi asosiy farq yakunlanganlikning mutlaqligida tugallanganlikning esa nisbiyligidadir.

Matn o`ziga xos grammatik kategoriyaga ega: a) ma`lumot (axborot) kategoriyasi tabiat, voqea-hodisa, ish-harakat kabilarni ifoda qilish, ular yuzasidan u yoki bu darajada fikr yuritishni anglatadi; b) integraciya kategoriyasi – bu kategoriya matn birliklari orasidagi uzviylik, bog`liqlik, aloqadorlik kabi munosabatlarni ko`rsatadi; v) retrospekciya kategoriyasi – bu kategoriya matn orqali ma`lum qilinayotgan voqea-hodisani ketma-ket, izchil hikoya qilish orqali ro`yobga chiqadi.

Matn nutqiy faoliyatning bir butun mahsulidir. Uni ana shunday mahsulot ekanligini ta`minlashga xizmat qiluvchi kategoriya matn tilshunosligida integraciya (lotincha to`ldirmoq) kategoriyasi deb yuritiladi. Umuman integraciya kategoriyasi matnning yakunlanishi bilan bog`liq kategoriya sifatida ko`rinadi.

Matnshunoslik bilan shug`ullanuvchi ayrim olimlar integraciya va kogeziya atamalarini bir-biridan farqlaydilar. Kogeziya matn qismlari orasidagi bog`liqlikni grammatik, semantik va leksik vositalar bilan ta`minlashni anglatadi. Integraciya kategoriyasi esa matnning bir butunligini ta`minlash maqsadida ularni birlashtirishni ifoda etadi. Demak, kogeziya mantiqiy kategoriya bo`lsa, integraciya psixologik kategoriya sanaladi.

Uzil-kesil, tugal fikr anglatish matnning asosiy xususiyatidir. Har qanday matn (u yozma bo`ladimi, og`zaki bo`ladimi, qat`iy nazar) fikrlar yig`indisi bo`lib, o`zaro uzviy bog`langan mulohazalarni o`z ichiga oladi. Matnning chegarasini uni yaratuvchi shaxs (yozuvchi yoki bayon qiluvchi) belgilaydi, xolos.

O`z oldiga qo`ygan amaliy maqsadiga ko`ra matn bir necha turlarga bo`linadi: yozma matnlar, og`zaki matnlar. Bu matn turlari o`z navbatida yana bir necha kichik guruhlarga, turlarga ajraladi. Masalan, og`zaki matnlar quyidagi turlarga bo`linadi: a) dialogik matnlar (suhbatlar), fol`klor (xalq og`zaki ijodi) matnlari, v) ovozarlar (mishmishlar). Matnlarning har bir turi o`ziga xos xususiyati bilan, tarkibi va mazmuni bilan boshqa tur matnlardan ajralib turadi. Masalan, ertak, topishmoq, maqol, terma singari matnlar fol`klor namunalari bo`lsa-da, bir-biridan farqlovchi xususiyatlarga ega.

Yozma matnlar tarkibiga kiruvchi monografiya, ilmiy maqola, ilmiy-ommabop maqola, taqriz, muammoviy maqola, risola singarilar turli farqlanuvchi belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, ilmiy maqola muayyan masala jihatida avval ma`lum bo`lgan fikrlar muhokamasi bilan keyin muallifning shu masalaga oid yangi ilmiy qarashi bayon qilinadi hamda bu qarashlarning amaliy qo`llanishiga oid tavsiyalar beriladi, shu bilan ilmiy maqola matni yakunlanadi.

Matn tarkibi uch qismga bo`linadi: a) ifoda qobig`i, b) matn mazmuni (semantikasi) v) matn grammatikasi.

Matnning butunligini, yaxlitligini ta`minlab turuvchi narsa uning asosida yotgan asosiy g`oyadir. Bu g`oyani matn tilshunosligida makrotema deb ataydilar. Makrotemalar o`z navbatida bir qancha mikrotemalardan tashkil topgan bo`ladi. Mikrotemalar matnning asosiy g`oyasi, ya`ni makrotema orqali bir-biri bilan o`zaro bog`langan bo`ladi. Matnni tashkil etuvchi birliklar orasidagi bog`lanish presuppoziciya va implikasiya munosabatlari orqali amalga oshadi. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan o`zaro bog`liqdir. Har qanday yangi gap matn tarkibida oldingi gapni to`ldirib keladi va o`z navbatida yangi gapning tuzilishiga zamin hozirlaydi. Matn tarkibida gaplar ana shu tarzda zanjirsimon bir-biri bilan bog`lanib ketaveradi. Shu holat matn tilshunosligida presuppoziciya yoki implikasiya deb yuritiladi.

Matnni tashkil etuvchilar orasidagi bog`lanishda gapning aktual bo`linishi imkoniyatlari muhim o`rin tutadi. Bu nazariyaga ko`ra, har qanday gap ikki qismga bo`linadi: a) eski axborot qismi – tema; b) yangi axborot qismi – rema. Yangi gapni matn tarkibida shakllantirishdan maqsad remani ifodalashdir. Gap esa faqat remadan tashkil topmaydi, ya`ni uning tarkibida tema ham bo`lishi kerak, chunki shu gap o`z temasi (eski axboroti) bilan oldingi gap yoki gaplar sistemasi bilan o`zaro bog`langan bo`ladi. Shunday qilib, matn tarkibida gaplar ichida temalar va remalarning ana shunday almashinib kelishi matnning yaxlitligini, butunligini, o`zaro bog`lanishini ta`minlaydi.

Matn tilshunosligining aniqlashiga ko`ra, rema quyidagi vositalar yordamida ifodalanadi: a) noaniq artikllar; b) so`z tartibi (inversiya); v) mantikiy urg`u; g) yuklamalar; d) ayrim sintaktik konstrukciyalar. Temani ifoda qilishda quyidagi

vositalar ishtirok etadi: a) olmoshning ayrim turlari; b) aniq artikllar; v) o`rin va payt ma`nolarini sinsematik ravishda ifodalovchi so`zlar(qachon –o`sha vaqtda, qaerda-o`sha erda kabi); g) ba`zi kirish so`z va iboralar (darhaqiqat, demak, xullas, zero kabi); d) so`z va gap tartiblari; e) matn g`oyasi bilan bog`langan etakchi so`zlarning qayta-qayta takrorlanishi va boshqalar.

Har kandy matnning yaratilishi ma`lum bir amaliy maksadlarni ko`zda tutadi. Matnlar maqsadlariga kura bir-biridan farq qiladi. Shu jihatdan matnlarni quyidagi to`rt tipga ajratish mumkin: a) og`zaki matnlar, b) yozma (qo`lyozma), v) bosma matnlar, g) ommaviy muloqotga xos matnlar. Bu matnlarning xar biri o`z navbatida bir qancha mayda turlarga bo`linadi. Masalan, og`zaki matn: monolog, dialog (suhbat), ovozalar (mish-mish), fol`klor singari turlardan iborat.

Yozma (qo`lyozma) matnlar to`rt turga bo`linadi:

1. epigrafik matnlar – bunga peshlavhalar, ko`rsatkichlar kiradi. Masalan, NDPI, Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi, aeroport, talabalar yotoqxonasi kabilar.

2. Sfragistik matnlar – bunga muhrlarga bitilgan matnlar kiradi.

3. Numizmatik matnlar – pullar, tangalardagi yozuvlar.

4. Paleografik yozuvlar – a) maktub, b) hujjat, v) ijodiy asarlar.

Bosma matnlar qo`lyozma matnlarning mukammal ko`rinishi bo`lib, ular o`z navbatida adabiy matnlar va ilmiy matnlarga bo`linadi. Adabiy matnlarga badiiy asarlar kiradi, ilmiy matnlarning ham turlari xilma-xildir.

Ommaviy mulokot vositalari matn tiplarining to`rtinchi ko`rinishidir. Bu matn vositalarining omma orasiga etib kelishida texnika vositalari (radio, televidenie, kino)ning roli beqiyos. Bu matnlar bir marta e`lon qilinadi, kayta tiklanadigan bulsa, unga qo`shimcha axborot ham qo`shilishi lozim. Bunday matnlar so`nggi yangiliklarni ommaga taqdim etadi (gazeta, jurnal, radio, televidenieda beriladigan asarlar).

1-ma`ruza bo`yicha nazorat savollari

1. Matn tilshunosligiga aloqador xususiyatlarni aniqlang

2. Dialogik matn- matnning qaysi turiga kiradi?

3. Matnning butunligini ta`minlab beruvchi eng muhim omil qaysi?

IV. AMALIY MATERIALLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Kommunikativ tilshunoslik. Matn tilshunosligi.

Kommunikativ tilshunoslik va uning tarkibiy qismlari. XX asr tilshunosligi tilning bevosita harakatdagi birliklarini, undagi o`zgarishlarni o`rganish bilan shug`ullana boshladi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik aspektda olib boriladi. Bu aspekt tilning rivojlanishini, taraqqiyotini kishilar hayoti, ularning nutqiy faoliyatlari bilan bog`liq holda o`rganishni etakchi maqsad qilib oladi. Bu esa tilshunoslikda lingvistik-pragmatika matn (kontekst) tilshunosligi singari yangi sohalarning shakllanishi va taraqqiyotiga sabab bo`ldi. Hozirgi zamon tilshunosligida katta mavqega ega bo`lgan kommunikativ tilshunoslik o`z ichiga quyidagi sohalarni oladi:

5. Matn tilshunosligi.
6. Sociolingvistika.
7. Psixolingvistika.
8. Lingvistik pragmatika.

1. **Matn tilshunosligi.** XX asr boshlariga kelib tilshunos olimlar tilda tovush, so`z, so`z birikmasi va gapdan ham yirik birliklar borligini aniqladilar. Bunday yirik til birliklari qatoriga sintaktik butunlik, abzac (xatboshi), diskurs va matn (kontekst) kiradi. Bunday yirik til birliklariga hozirgi tilshunoslikda turlicha ta`rif berilmoqda. Bunday turlicha ta`riflar zamirida bir bosh mavzu asosida bog`langan gap yoki gaplar yig`indisi degan ma`no yotadi.

Matn tilning eng katta birligi sanaladi. Matnning birligi sifatida tadqiq etish rus tilshunosligida 30-yillardayoq boshlangan edi. Bu o`rinda A.M.Peshkovskiyning “Russkiy sintaksis v nauchnom obshenii” (1934), V.V.Vinogradovning “O xudojestvennoy proze” (1930), L.A. Bulaxovskiyning “Kurs russkogo literaturnogo yazika” (1952) kabi asarlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Chunki xuddi ana shu tadqiqotlar uning muallifi o`ziga xos lisoniy xususiyatlari singari muammolarni o`rganishni boshlab berdi.

Hozirgi tilshunoslikda matn atamasiga turlicha ta`riflar berilmoqda. Masalan, tilshunos olim P.Gironing fikricha, matn o`zaro bog`langan birliklar butunligi

bo`lib, bu butunlikni tashkil etuvchi belgilar ishoralar uslubiy taassurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib yagona sistemani tashkil etadi.

Matnga aniq, to`g`ri ta`rif berish uchun uning xususiyatlarini belgilash lozim. Tilshunos S.Todorovning aniqlashiga ko`ra har qanday matn uch xususiyatga ega: a) jarayon, b) sintaksis xususiyat, v) semantik xususiyat. Matn aniq gaplardan tashkil topadi, bu esa matnning jarayon ekanini isbotlaydi. Matnning sintaktik xususiyati deyilganda matnni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi o`zaro bog`lanish tushuniladi. Matnning semantikasi esa uning mazmunini o`zida ifoda etadi. Demak, matn ma`lum sistema asosida tuzilgan, o`z mazmuniga (semantikasiga) ega bo`lgan, tugllangan nutqiy faoliyat mahsulidir.

Matn tilshunosligida matn mazmuni va matn ma`nosi atamalari o`zaro farqlanadi. Ma`lum bir matndan o`rin olgan ma`lumot yoki axborot matnning mazmunidir. Matnning ma`nosi esa matn birliklari (gap, sintaktik butunlik, abzac) ga xos axborotdir. Matnning mazmuni unda ifodalanayotgan axborotning uzil-kesil yakunlanganligi bilan bog`liqdir. Matn ma`nosi esa tugal fikr anglatga ham o`sha fikrning yana davom etishini taqozo etadi. Bundan ko`rinadiki, gap va matn o`rtasidagi asosiy farq yakunlanganlikning mutlaqligida tugallanganlikning esa nisbiyligidadir.

Matn o`ziga xos grammatik kategoriyaga ega: a) ma`lumot (axborot) kategoriyasi tabiat, voqea-hodisa, ish-harakat kabilarni ifoda qilish, ular yuzasidan u yoki bu darajada fikr yuritishni anglatadi; b) integraciya kategoriyasi – bu kategoriya matn birliklari orasidagi uzviylik, bog`liqlik, aloqadorlik kabi munosabatlarni ko`rsatadi; v) retrospekciya kategoriyasi – bu kategoriya matn orqali ma`lum qilinayotgan voqea-hodisani ketma-ket, izchil hikoya qilish orqali ro`yobga chiqadi.

Matn nutqiy faoliyatning bir butun mahsulidir. Uni ana shunday mahsulot ekanligini ta`minlashga xizmat qiluvchi kategoriya matn tilshunosligida integraciya (lotincha to`ldirmoq) kategoriyasi deb yuritiladi. Umuman integraciya kategoriyasi matnning yakunlanishi bilan bog`liq kategoriya sifatida ko`rinadi.

Matnshunoslik bilan shug`ullanuvchi ayrim olimlar integraciya va kogeziya atamalarini bir-biridan farqlaydilar. Kogeziya matn qismlari orasidagi bog`liqlikni

grammatik, semantik va leksik vositalar bilan ta`minlashni anglatadi. Integraciya kategoriyasi esa matnning bir butunligini ta`minlash maqsadida ularni birlashtirishni ifoda etadi. Demak, kogeziya mantiqiy kategoriya bo`lsa, integraciya psixologik kategoriya sanaladi.

Uzil-kesil, tugal fikr anglatish matnning asosiy xususiyatidir. Har qanday matn (u yozma bo`ladimi, og`zaki bo`ladimi, qat`iy nazar) fikrlar yig`indisi bo`lib, o`zaro uzviy bog`langan mulohazalarni o`z ichiga oladi. Matnning chegarasini uni yaratuvchi shaxs (yozuvchi yoki bayon qiluvchi) belgilaydi, xolos.

O`z oldiga qo`ygan amaliy maqsadiga ko`ra matn bir necha turlarga bo`linadi: yozma matnlar, og`zaki matnlar. Bu matn turlari o`z navbatida yana bir necha kichik guruhlarga, turlarga ajraladi. Masalan, og`zaki matnlar quyidagi turlarga bo`linadi: a) dialogik matnlar (suhbatlar), fol`klor (xalq og`zaki ijodi) matnlari, v) ovozarlar (mishmishlar). Matnlarning har bir turi o`ziga xos xususiyati bilan, tarkibi va mazmuni bilan boshqa tur matnlardan ajralib turadi. Masalan, ertak, topishmoq, maqol, terma singari matnlar fol`klor namunalari bo`lsa-da, bir-biridan farqlovchi xususiyatlarga ega.

Yozma matnlar tarkibiga kiruvchi monografiya, ilmiy maqola, ilmiy-ommabop maqola, taqriz, muammoviy maqola, risola singarilar turli farqlanuvchi belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, ilmiy maqola muayyan masala jihatida avval ma`lum bo`lgan fikrlar muhokamasi bilan keyin muallifning shu masalaga oid yangi ilmiy qarashi bayon qilinadi hamda bu qarashlarning amaliy qo`llanishiga oid tavsiyalar beriladi, shu bilan ilmiy maqola matni yakunlanadi.

Matn tarkibi uch qismga bo`linadi: a) ifoda qobig`i, b) matn mazmuni (semantikasi) v) matn grammatikasi.

Matnning butunligini, yaxlitligini ta`minlab turuvchi narsa uning asosida yotgan asosiy g`oyadir. Bu g`oyani matn tilshunosligida makrotema deb ataydilar. Makrotemalar o`z navbatida bir qancha mikrotemalardan tashkil topgan bo`ladi. Mikrotemalar matnning asosiy g`oyasi, ya`ni makrotema orqali bir-biri bilan o`zaro bog`langan bo`ladi. Matnni tashkil etuvchi birliklar orasidagi bog`lanish presuppoziciya va implikaciya munosabatlari orqali amalga oshadi. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan o`zaro bog`liqdir. Har qanday yangi gap matn tarkibida

oldingi gapni to`ldirib keladi va o`z navbatida yangi gapning tuzilishiga zamin hozirlaydi. Matn tarkibida gaplar ana shu tarzda zanjirsimon bir-biri bilan bog`lanib ketaveradi. Shu holat matn tilshunosligida presuppoziciya yoki implikasiya deb yuritiladi.

Matnni tashkil etuvchilar orasidagi bog`lanishda gapning aktual bo`linishi imkoniyatlari muhim o`rin tutadi. Bu nazariyaga ko`ra, har qanday gap ikki qismga bo`linadi: a) eski axborot qismi – tema; b) yangi axborot qismi – rema. Yangi gapni matn tarkibida shakllantirishdan maqsad remani ifodalashdir. Gap esa faqat remadan tashkil topmaydi, ya`ni uning tarkibida tema ham bo`lishi kerak, chunki shu gap o`z temasi (eski axboroti) bilan oldingi gap yoki gaplar sistemasi bilan o`zaro bog`langan bo`ladi. Shunday qilib, matn tarkibida gaplar ichida temalar va remalarning ana shunday almashinib kelishi matnning yaxlitligini, butunligini, o`zaro bog`lanishini ta`minlaydi.

Matn tilshunosligining aniqlashiga ko`ra, rema quyidagi vositalar yordamida ifodalanadi: a) noaniq artikllar; b) so`z tartibi (inversiya); v) mantiqiy urg`u; g) yuklamalar; d) ayrim sintaktik konstrukciyalar. Temani ifoda qilishda quyidagi vositalar ishtirok etadi: a) olmoshning ayrim turlari; b) aniq artikllar; v) o`rin va payt ma`nolarini sinsematik ravishda ifodalovchi so`zlar(qachon –o`sha vaqtda, qaerda-o`sha erda kabi); g) ba`zi kirish so`z va iboralar (darhaqiqat, demak, xullas, zero kabi); d) so`z va gap tartiblari; e) matn g`oyasi bilan bog`langan etakchi so`zlarning qayta-qayta takrorlanishi va boshqalar.

Har kanday matnning yaratilishi ma`lum bir amaliy maksadlarni ko`zda tutadi. Matnlar maqsadlariga kura bir-biridan farq qiladi. Shu jihatdan matnlarni quyidagi to`rt tipga ajratish mumkin: a) og`zaki matnlar, b) yozma (qo`lyozma), v) bosma matnlar, g) ommaviy muloqotga xos matnlar. Bu matnlarning xar biri o`z navbatida bir qancha mayda turlarga bo`linadi. Masalan, og`zaki matn: monolog, dialog (suhbat), ovozalar (mish-mish), fol`klor singari turlardan iborat.

Yozma (qo`lyozma) matnlar to`rt turga bo`linadi:

5. Epigrafik matnlar – bunga peshlavhalar, ko`rsatkichlar kiradi. Masalan, NDPI, Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi, aeroport, talabalar yotoqxonasi kabilar.

6. Sfragistik matnlar – bunga muhrlarga bitilgan matnlar kiradi.

7. Numizmatik matnlar – pullar, tangalardagi yozuvlar.

8. Paleografik yozuvlar – a) maktub, b) hujjat, v) ijodiy asarlar.

Bosma matnlar qo`lyozma matnlarning mukammal ko`rinishi bo`lib, ular o`z navbatida adabiy matnlar va ilmiy matnlarga bo`linadi. Adabiy matnlarga badiiy asarlar kiradi, ilmiy matnlarning ham turlari xilma-xildir.

Ommaviy mulokot vositalari matn tiplarining to`rtinchi ko`rinishidir. Bu matn vositalarining omma orasiga etib kelishida texnika vositalari (radio, televidenie, kino)ning roli beqiyos. Bu matnlar bir marta e`lon qilinadi, kayta tiklanadigan bulsa, unga qo`shimcha axborot ham qo`shilishi lozim. Bunday matnlar so`nggi yangiliklarni ommaga taqdim etadi (gazeta, jurnal, radio, televidenieda beriladigan asarlar).

Nazorat savollari

1. Matnni tashkil etuvchilar orasidagi bog`lanish nimaga asoslanadi?
2. Ovozalar, mishmishlar qaysi matnga tegishli?
3. Mikrotema matnda qanday vazifa bajaradi?
4. Matn tilshunosligi yuzaga kelgan davr
5. Tilning eng katta birligi nima?

2-MAVZU: Til va tafakkur

Insoniyat bilan birga paydo bo`lgan til uning hayotida eng muhim rolni o`ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini y o`qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning

paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi.

Til ilk boshdan e'tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan xizmatni, ya'ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi. Psixologiyada ham insonning tafakkur faoliyati haqida aytilganda hissiy bilish bilan birga til va nutqning o'zaro bog'liqligi alohida ko'rsatib o'tiladi. Bunda inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o'rtasidagi asosiy farqlardan biri namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Hayvonlarning o'ta oddiy, juda sodda tafakkuri hamma vaqt faqat ayoniy harakat tafakkuriligicha qoladi; ular hech qachon mavhum, bavosita bilish darajasiga yetmaydi. Ularning, ya'ni hayvonlarning tafakkuri ayni chog'da go'yo ko'z o'ngilarida turgan narsalarni bevosita idrok qilish bilan ish ko'radi. Ana shunday jo'n tafakkur ayoniy harakat tarzidagi narsalar bilan munosabatda bo'ladi va bunday ayoniy harakat doirasidan chetga chiqmaydi. Faqat nutq paydo bo'lgach, bilinayotgan ob'ektdan ma'lum bir xususiyatni ajratib olib, uni raaxsus so'z yordamida tasavvurda yoki tushunchada mustahkamlash, qayd etish imkoniyati tug'ildi, Tafakkur so'zda o'zining moddiy qobig'iga ega bo'ladi, tafakkur faqat so'z orqali boshqalar uchun va o'zimiz uchun ham bevosita realikka aylanadi. Inson tafakkurini, u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda, og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo'ladi. Yoki, qandaydir fikrning so'z orqali ifodasi qanchalik ko'p takomillashgan, sayqallangan bo'lsa, ayni shu fikrning o'zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo'ladi. Kishi o'zining fikr-mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib ifodalab berar ekan, buning bilan u shu mulohazalarni o'zi uchun ham ifodalaydi. Fikrni ana shu tarzda so'zlar orqali ifodalash, mustahkamlash, fikrni so'zlarda qayd qilish fikrni bo'lishni anglatadi, diqqatni mazkur fikrning turli o'rinlarida va qismlarida tutib turishga yordam beradi ham da fikrning qismlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon tug'diradi. Shu tufayli keng, izchil, sistemali

mulohaza yuritish, ya'ni taiakkur jarayonida tug'ilgan hamma asosiy fikrlarni bir-biri bilan aniq va to'g'ri solishtirib ko'rish mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, so'zda, fikrni ifodalashda tafakkurning eng muhim zaruriy, mulohazali, mantiqiy bo'laklarga ajratilgan va anglashilgan tomonlari berilgan bo'ladi. Fikrni so'zda ifodalash va mustahkamlash orqali u yo'qolmaydi hamda paydo bo'lishi bilanoq o'chib qolmaydi. Fikr so'z iboralarida - og'zaki yoki yozma so'z iboralarida mustahkara qayd qilinadi. Shuning uchun, kerak bo'lganda, mazkur fikrga yana qaytish, uni yanada chuqurroq o'ylab, tekshirib ko'rish va qayta o'ylash davomida boshqa fikrlar bilan solishtirib ko'rish imkoniyati saqlanib qoladi. Shunday qilib, inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so'z qobig'ida mavjuddir.

Ma'lumki dialektika kategoriyalarining uchinchi turkumiga bilish jarayonini aks ettiruvchi tushunchalar kiradi. Dunyoni bilish, idrok etish masalasi doira falsafa fanining diqqat markazida bo'lib kelgan. Qadimgi faylasuflar ham dunyoni bilish mumkinligini e'tirof etib kelganlar. Xususan, O'rta Osiyolik buyuk mutafakkirlar Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar ham o'z asarlarida dunyoni bilishning, bilish jarayonida hissiy organlar bilan aqlning roli haqida qimmatbaho fikrlarni ilgari suradilar. ingliz faylasufi Bekon ta'limoticha, bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog'liq bo'lishi va shularga bevosita xizmat qilishi kerak. Uning fikricha, ob'ektiv mavjudlik to'g'risidagi bilimlar sezgilarimiz orqali olingan dalillar tufayligina tafakkur yordamida to'ldiriladi. Fransuz faylasufi Dekart esa bilishning birdan bir manbai tafakkur deb biladi. Dekartning vatandoshlari Didro, Volter, Gellvetsiyalar dunyoni bilish jarayonida sezgilarimiz bilan tafakkurning rolini tan olsalar-da, ulaning o'zaro munosabatlarini to'la-to'kis ochib bera olmadilar. Tafakkur xususida bunday falsafiy fikrlarni ko'p keltirish mumkin. Lekin falsafada shunday fikr borki, bilish - inson tafakkuridagi voqelikning in'ikos jarayoni. Mantiq ilmida ham til va tafakkur munosabatlariga alohida e'tibor berilgan. Unda tafakkurning muhim xususiyati sifatida uning til bilan bog'langani e'tirof etiladi. Yana aytiladiki, inson tafakkuri uning tili bilan birga takomillashib rivojlangan. Tilda tafakkurning ish natijasi mustahkamlanadi. Til o'zining shu xislati bilan insonga bilim

to'plashga, uni saqlashga, avloddan-avlodga uzatishga, to'plagan bilish boyliklaridan hayotiy faoliyatida unumli foydalanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, til tafakkumi takomillashtirish, mavhumlashtirish, umumlashtirish va juz'iyashtirish qurolidir. Shuning uchun ham bizning tafakkurimiz voqelikni bevosita aks ettirish vositasi bo'lgan sezgilardan til yordamida ifodalanishi bilan farq qiladi, Til va tafakkur reallikni bilish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo'lish, ob'ektiv reallikka ta'sir ko'rsatish, har bir ishni oldindan o'ylab, ongli ravishda artralga oshirish kabilarda ko'rinuvchi, umuinan, inson faoliyatining ongli, maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi insonning xos bo'lgan tarixiy muhim xislatidir. Lekin amalda, hayotda, tarixiy jarayonda til va tafakkur har doim o'zaro ajralmas bo'lsa-da, ulami turii fanlar alohida o'rganadi. Masalan, tafakkur formalarini mantiq fani o'rgansa, til kategoriyalarini tilshunoslik fanlari tadqiq etadi. Tafakkur umuminsoniy bo'lsa, til, uuning qonun-qoidalari milliy xarakterga ega. Dunyodagi tillar juda ko'p qonun-qoidalariga ko'ra bir-biridan iaraq qiyadilar. Tafakkur shakllari, tamoyillari esa, insonlarning millati, irqi, davridan qat'iy nazar, hammada bir xildir.

Demak, tafakkurning moddiy qobig'i tildir, Shunday ekan til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Lekin ayrim tilshunoslar, xususan, N.Ya.Marr til bilan tafakkurni ajratib qo'ydi. U shunday yozadi: «Bo'lajak til tabiiy materiyadan xoli bo'lgan, texnikada o'sib borayotgan tafakkurdir». Bunda, albatta, tilning tafakkurdan ajratib qo'yilganiigi ko'rinib turibdi. G o'yo kishilar kelajakda o'z qobig'idan xoli bo'lgan tafakkur bilan ish ko'ra berar emish (Sodiqov A. va boshq.

Tilshunoslikka kirish. - muqaddam aytilgan. Bizningcha, N.Ya.Marr texnika taraqqiyotini o'z ko'rishlariga ko'ra baholagan bo'lishi mumkin, Lekin bugungi axborot texnologiyalari o'ta taraqqiy etgan davrda ham til bilan tafakkur bir-biridan aloqasini uzgan emas, aksincha, yanada yaqin munosabatda bo'lm oqda. Bum biz ko'rib, sezib turibmiz.

Tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va mazmun tantosibi tarang hodisa kamdan-kam topiladi. Til dunyoni bilish, bilimlami to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga etkazish, ruhiy munosabatlami aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalami

bajarishiga qaramasdan, asosiy e'tibor uning kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlash vazifasiga qaratib kelindi. Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo ayrilgan sun'iy tilga tenglashtirishdan, yoki harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli «til»ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas. Agar til faqat aloqa vositasigina bo'lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo'lardi. Holbuki, til bemisl boy, sehra sinoatga, ruhu mhoniyatga, ko'rku komillikka limmo-lim bir ne'matdir. O'zaro fikr almashish va uni kelajak avlodlarga etkazuvchi vosita sifatida milliy madaniyatning shakllaridan biri bo'lgan til ong va tafakkur bilan uzviy bog'langandir. Ushbu matnda qo'llangan «fikr», «tafakkur» va «ong» terminlarini ko'p hollarda sinonim sifatida ko'ramiz. Aslida ularning har biri ma'no ifodalash doirasiga ko'ra birbiridan farqlanadi. Xususan, ong - voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi. Fikr - tafakkur eng aniq bir natijasi. Tafakkur - o'ylash, muhokama qilish, voqelikni anglash, tasavvur qilish, unga baho berish, fikrlash qobiliyati. Demak, tafakkurni so'z boyligi vositasida ifodalashda asosiy vazifani til bajaradi. Albatta, har bir inson tafakkuridagi fikrlarni ifodalashda shu inson nutqining naqadar takomil topganligi muhim sanaladi. Chinakam nutq madaniyati shu tilning butun boyluk va go'zalliklaridan foydalana olish, uni ne'mat sifatida idrok etish asosida shakllanadi.

Aniqki, nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulotda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, farzandlarimizniing nutqiy madaniyat ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarblik kasb etganligi bejiz emas.

Respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan «Davlat tili haqida», «Ta'üm to'g'risida»gi qonunlar, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va boshqa juda ko'plab hujjalarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Fikrni o'z ona tilida mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda etish uchun odamda nutqiy madaniyat yetarli darajada shakllanishi kerak, busiz, zotan, ona tiliga sohiblik degan tushuncha ham ma'noga ega emas. Chunki nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Inson tafakkurining mahsuli yoki fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati sanalgan nutqning maadaniyligini ta'min etuvchi to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, rang-baranglik, soflik kabi bir qancha sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi

Albatla, har bir tildagi mavjud so'z, so'z birikmasi yoki biror gap o'zida muayyan ma'noni, tushunchani ifodalaydi. Bu holat ularning har biriga berilgan ta'rifda ham o'z aksini topgan. So'z- leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi. O'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, ob'ektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi.

So'z birikmasi - bir-biri bilan tobelanish asosida birikkan, ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, yaxlit, biroq qismlarga ajraladigan tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so'zlar bog'lanmasi. Gap - til qonunlari asosida grammatik va ohang jihatdan shakllangan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi. Albatta, sun'iy ravishda tovushlar yig'indisidan tashkil topgan, hech qanday ma'no va ahamiyatga ega bo'lmagan tovushlar majmuasini (masalan, «takatumba») so'z sifatida qabul qilish mumkin emas. Ma'lumki, til birliklari mantiqiy tafakkur birliklari bilan uzviy bog'langan: so'z tushuncha bilan, gap mulohaza bilan. Bu yerda til birliklarini ahamiyatiga ko'ra guruhlantirilgan holati olingan, ya'ni nominativ birlik - so'z, kommunikativ birlik - gap. So'z va tushuncha moddiy dunyodagi mavjud predmet va hodisalarning farqli belgilarini ifodalasa, gap va mulohaza tasdiq yoki inkor xususidagi fikrni yaratadi. Til va tafakkur o'z

birliklarining ahamiyati va qurilishi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Tafakkurning maqsadi yangi bilimlarni olish va ularni sistemalashtirishdan iborat bo'lsa, til fikrni shakllantiradi, mustahkamlaydi va uni boshqa ob'ektga yetkazadi. Boshqacha aytganda, biz bilish va tushunish uchun fikrlaymiz, fikrimizni, istak va hissiyotlarimizni ifodalash uchun esa gapiramiz. Tilning asosini uning grammatik qurilishi, so'z yasash va gap tuzish qoidalari tashkil etib, ular fikrni aniq ifodalash hamda tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, fikr tilda so'zlar vositasida shakllanadi. Ongimizda shakllanadigan har qanday fikrning mohiyati, mazmunini tasbiqlaydigan etuvchi idrok yoki tasavvur faqat so'zlar vositasidagina voqelanadi. Demak, inson tafakkurining mahsuli til orqali namoyon bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Tilshunoslik fani til va tafakkurni qay munosabatda o'rganadi?
dialektik munosabatda
2. Tafakkurning ilmiy qobig'i nima?
til
3. Til va tafakkur birligi nimada o'z ifodasini topadi?
nutqda
4. "Til tafakkurni idora qiluvchi ishoralar majmuidir". Fikr muallifi kim?
F. de Sossyur
5. Til va tafakkurni o'rganuvchi lingvistik soha?
Mentalingvistika

3-MAVZU: Sociolingvistika (Ijtimoiy tilshunoslik)

Sociolingvistika atamasi hozirgi zamon tilshunosligida quyidagi ikki ma'noda qo'llanadi: a) til va jamiyat o'rtasidagi munosabat, tilning rivojlanishida

jamiyatning ahamiyati muammolarini o`rganish; b) millat yoki xalqning ijtimoiy tabaqalanishi bilan bog`liq holda tilda vujudga keladigan farqlar muammosini o`rganish.

Tilshunoslik tarixida bu masalalar ma`lum darajada tadqiq etilgan. Ammo XX asrning 60 – 70- yillariga kelib tilshunoslikda ana shu muammolarni o`rganishga e`tibor yanada kuchaydi. Sociolingvistikaga oid bunday muammolarni o`rganishda tilshunoslik faqat jamiyatshunoslik faniga emas, balki falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya singari yana bir qator fanlar yutuqlarini ham inobatga olishi lozim bo`ladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida sociolingvistik tadqiqotlarga qiziqishning kuchayib borayotganligi quyidagi ikki sabab bilan izohlanadi: a) hozirgi jamiyatda ilmiy asoslangan til siyosatiga ehtiyoj kundan-kun ortib bormoqda; b) struktural tilshunoslik shu vaqtga qadar faqat tilning ichki tuzilishini o`rganish bilan qiziqib keldi, tilning jamiyat bilan, o`sha til egasi bo`lgan xalk tarixi, urf-odati bilan munosabati muammosi tilshunoslar e`tiboridan chetda qolib keldi.

Til siyosati masalasi hozirgi jamiyatda borgan sari keskinlashmoqda. Masalan, sobiq SSSRda, uning ayrim mintaqalarida, Yugoslaviyada, Hindistondagi nizolar buning yorqin dalili bo`la oladi. Mustamlaka bo`lgan ko`plab Osiyo va Afrika mamlakatlarida shu vaqtga qadar til muammosi, ayniqsa, davlat tili muammosi aniq hal etilganicha yo`q. Ayrim mamlakatlarda mustamlakachilarning tili davlat tili vazifasini bajarib kelmoqda. Masalan, Hindiston, Filippin kabi mamlakatlarda mahalliy tillardan birini davlat tiliga, umummilliy aloqa vositasiga aylantirishga harakat qilinmoqda. Lekin bu mamlakatlarda ingliz tili o`zining kuchli mavqeini saqlab kelyapti.

Ma`lum bir milliy tilni davlat tiliga aylantirish quyidagi singari muammolarni xal etish bilan boglik:

1. O`sha til o`z mavpei bilan shu davlatda yashovchi boshka millatlarga, xalqlarga manzur bulishi kerak, ya`ni bu til mamlakatdagi boshqa tillarga nisbatan ko`proq hududga tarqalgan bo`lishi, bu tilda mamlakatning ko`pchilik aholisi so`zlashishi, leksik-semantik, grammatik va uslubiy jihatdan mamlakatdagi boshqa xalqlarning tillariga namuna bo`la olishi lozim.

2. Mamlakatda bu tilni targ`ib qilishni to`g`ri yo`lga qo`yish, shu tilda o`qish-o`qitish ishlarini kuchaytirish, buning uchun ommaviy axborot vositalaridan kengroq foydalanish lozim bo`ladi.

3. Ma`lum bir mamlakatda, ayniqsa endigina mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo`layotgan davlatda umummilliy davlat tiliga o`tish bir necha yillarni qamrab oladi. Fan va texnika yangiliklari bu mamlakatda ko`proq G`arbiy Evropa tillari orkali keng o`rin oladi, shuning uchun bu davlatlarda G`arbiy Evropa tillari ta`siridan qutilish qo`shimcha qiyinchiliklarga sabab bo`ladi.

Hozirgi davrda tilshunoslikda sociolingvistik tadqiqotlarning tez rivojlanishi strukturalizm oqimining salbiy tomonlari bilan ham bog`liqdir, chunki strukturalizm til birliklariga xos bo`lgan shakl va ma`no birligini rad etib, faqat shaklan o`rganishga ko`prok e`tiborni qaratgan edi. Ammo jamiyat rivojlanishi buning tamomila aksini isbotladi, ya`ni biror tilning yashashi va rivojlanishi bu tilda gaplashuvchi xalq va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog`liq ekani ma`lum bo`ldi.

Jahon tilshunosligida tadqiqotlar Rossiyada, AQSh, Franciya, Angliya kabi mamlakatlarda jadal sur`atlar bilan olib borilmoqda.

1. Rossiyada va O`zbekistonda sociolingvistik tadqiqotlar. Bunday tadqiqotlar Rossiyada va sobiq SSSR tarkibiga kiruvchi boshqa hududlarda 1917 yildan keyin jamiyat ehtiyojlari bilan bog`liq holda avj oldi. Bu hududda yashovchi xalqlar orasida qadimiy yozuv an`analariga ega bo`lganlari ham, umuman yozuvi bo`lmaganlari ham mavjud edi. Shuning uchun sociolingvistika fani bu davrda quyidagi masalalarni yoritish bilan shug`ullandi: a) adabiy tilga asos bo`lgan tayanch sheva yoki dialektni aniqlash va uning tayanch ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash; b) bo`lajak adabiy tilning tovush tarkibini inobatga olib, o`sha xalqning milliy yozuvini, alfavitini, imlo qoidalarini yaratish; v) yangi barpo etilayotgan adabiy tidan rasmiy til sifatida ma`muriy boshqaruv, o`qish-o`qitish, ommaviy axborot vositalarida keng foydalanishga erishish va boshqalar.

Ana shunday muammolarni o`rganish sociolingvistika fani oldiga o`z vaqtida va yana qator masalalarni ko`ndalang qilib qo`ydi. Jumladan, adabiy til darajasiga ko`tarilgan tayanch sheva yoki dialekt o`sha til egalariga, xalqqa manzur bo`lishi

lozim. Adabiy til o'z normalari va qoidalariga ega bo'lib, uni barcha sheva vakillariga to'la manzur qilish ancha murakkab masaladir.

Sociolingvistik tadqiqotlar atamashunoslik muammolari bilan ham bog'liq. Ma'lumki, biror fan va texnika, madaniyat va san'at sohasidagi aniq bir tushunchani ifodalaydigan so'zlarga atamalar (terminlar) deyiladi. Atamalarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish bilan atamashunoslik (terminologiya) fani shugullanadi. Atamashunoslik fani atamalar shakllanishining sociolingvistik jarayonlarini belgilashda kiyidagi ikki yunalishga duch keladi: a) baynalmilal so'zlarni atama sifatida o'zlashtirish va ulardan keng foydalanish; b) baynalmilal so'zlardan tamomila voz kechib, atamalar yaratishda fakt u yoki bu milliy til imkoniyatlaridan foydalanish. Bu yo'nalishlarning ikkalasi xam ma'qul emas, chunki barcha tillarda keng qo'llanadigan atamalardan voz kechib, sun'iy atamalardan foydalanish adabiy tilning mavqeini pasaytirishga olib keladi. Shu bilan birga, adabiy tilda mavjud atama o'rniga boshqa tildan o'zlashgan atamani baynalmilal so'z deb ishlatish ham maqsadga muvofiq emas: qarshilik – sopramat kabi.

Rossiya va O'zbekistonda sociolingvistik tadqiqotlar millatlararo aloqa vositasi muammosini hal etishga ham intiladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida bunday aloqa vositasi rus tilidir. Sociolingvistika fanining rivojlanishi natijasida quyidagi masalalarga oydinlik kiritildi: a) jamiyatning tarakkiyoti o'sha jamiyatga xizmat qiluvchi tillar ijtimoiy vazifalarining ortib, kupayib borishiga olib keladi; b) barcha adabiy tillarning lugat tarkibi fan-texnika tarakkiyoti, jamiyat extiyoji tufayli kengayib, boyib boradi; v) ijtimoiy taraqqiyotning jadallashib borishi adabiy tillarda o'z aksini topadi; g) qo'shni, yondosh tillar ta'siri kuchaya boradi; d) millatlararo aloqa vositasi vazifasini bajaradigan tilning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei osha boradi, uning jamiyatdagi boshqa tillarga ta'siri ham kuchayadi; e) jamiyatda ikki tillilik, uch tillilik hodisalari rivojlanib boradi.

Sociolingvistika fani yutuqlari shuni ko'rsatadiki, tillar bir-biriga leksik jihatdangina ta'sir etib qolmay, bir-birining ichki tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunga muvofiq hozirgi zamon tilshunosligida «tillar ichki tuzilishining o'zaro hamkorlik jarayoni» degan tushuncha shakllangan. Mamlakatlararo aloqalarning

rivojlanishi o`sha mamlakatlarda yashovchi xalq va elatlar madaniyatining yaqinlashuviga zamin hozirlaydi, natijada tillar xam bir-biriga ta`sir ko`rsatadi, bunday hamkorlik o`z navbatida tillarning ichki rivojlanishini ta`minlaydi.

2. Chet ellarda, ayniksa, AQShda sociolingvistika bo`yicha ko`p ishlar amalga oshirilmoqda. AQSh tilshunosi R.T.Bell ta`kidlashicha, ijtimoiy tilshunoslik sohasida AQShda ikki yo`nalish mavjud: a) sof sociolingvistika, bunda gapiruvchi va tinglovchi grammatikasi, bir-biriga ta`siri, hamkorligi o`rganiladi; b) til sociologiyasi, bunda til ishoralari, belgilarining jamiyatdagi turli ijtimoiy jabhalarda ishlatilishi masalalari o`rganiladi. AQShda birinchi yo`nalish *mikrosociologiya* deb yuritiladi, u bilan asosan tilshunoslar shug`ullanadilar. Ikkinchisi esa makrosociologiya deb nomlanadi, bu muammolar bilan sociologlar shug`ullanadilar.

Mikrosociolingvistika kichik ijtimoiy guruhlarni tashkil etuvchi shaxslarning nutqiy hamkorlik munosabatlarini o`rganadi. Makrosociolingvistika esa bir ijtimoiy guruh bilan ikkinchi guruh o`rtasidagi nutqiy muloqotni tadqiq etadi. Mikrosociolingvistika erishgan yutuqlar makrosocioingvistik tadqiqotlar uchun ilmiy zamin bo`lib xizmat qiladi. Sociolingvistika tilning ijtimoiy muxitga kura o`zgarish xususiyatlarini atroflicha tadqiq etadi. Bu tilshunoslikda tilning o`zgarish nazariyasi deb yuritiladi.

Sociolingvistika fani tillar tipologiyasi muammosi bilan ham shug`ullanadi. Tillarning sociolingvistik tipologiyasi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini inobatga olgan tipologiyadir. Bunday tipologiyaga quyidagi to`rtta o`lchov, mezon asos qilib olinadi:

1. Standartlashtirish – bunda ma`lum bir tilda gaplashuvchilar tomonidan qabul qilingan adabiy til tushuniladi. Standartlashtirishning asosiy omili tilning grammatikasini va lug`atini yaratishdir.

2. Hayotiylik - bunday ma`lum bir tilda gaplashuvchi jamiyatning bor-yo`qligi inobatga olinadi. Agar til hayotiy, tirik bo`lsa, bu tilni ona tilim deb biladigan, uni e`zozlaydigan jamiyat ham mavjud bo`ladi. Ba`zan ilgari o`lik tilga aylangan tillar ham qaytadan hayotiylik kashf etishi mumkin. Masalan, ivrit tili eramizdan oldingi

1-ming yillikda qadimgi Falastin aholisining tili bo`lgan, 1948 yilda Isroil davlati bu tilni ayrim o`zgarishlar bilan davlat tili sifatida qabul qiladi.

3. Tarixiylik – bunda ma`lum bir tilning jamiyat tomonidan ishlatilishi natijasida uning mo``tadil, bir tekis rivojlanib turishi nazarda tutiladi.

4. Avtonomlik – bunda ma`lum ijtimoiy guruh uchun ona tili sifatida xizmat qilayotgan u yoki bu til boshqa tillardan tuzilishi jihatdan tubdan farq qilishi yoki bir tilning varianti sifatida namoyon bo`lishi tushuniladi. Masalan, o`zbek, qirg`iz, qozoq, qoraqalpoq tillari o`zaro qiyoslanganda ular orasidagi fonetik, leksik, grammatik farqlar ko`zga tashlanadi. Ya`ni bu tillar avtonom, mustakil tillar degan xulosa kelib chiqadi. Ammo o`zbek tilining Samarqand, Andijon, Xorazm mintaqalarida yashovchi xalklar tillari garchi o`zaro farqli xususiyatlari bo`lsa-da, avtonom bo`la olmaydi. Chunki sheva bilan milliy adabiy til o`rtasida leksik, ayrim grammatik farqlar bo`lgani holda, umumiy tuzilish jihatidan o`zgarishlar ko`zga tashlanmaydi.

Ana shu tipologik xususiyatlardan kelib chiqib, tillarning sotsiolingvistik tasnifi amalga oshiriladi. Hozirgi zamon tilshunosligi tillarni sociolingvistik jihatdan quyidagi 7 tipga ajratadi:

1. Standart tillar. Adabiy til normasiga ega bo`lgan, jamiyatda adabiy til, davlat tili sifatida xizmat qiluvchi tillarga standart tillar deyiladi. Masalan, o`zbek, tojik, rus, qirg`iz, afg`on, ukrain kabi tillar shular jumlasidandir.

2. Klassik tillar. Klassicism davrida takomilga etgan, o`z yozuviga ega bo`lgan, o`sha davrda buyuk asarlar yaratilgan tilga klassik til deyiladi. Masalan, lotin tili, sanskrit tili, qadimgi yunon tili, sugd, xorazmiy tili kabilar. Bu tillar hozirgi vaqtda o`lik tilga aylangan.

3. Mahalliy tillar. Son jihatdan ko`p bo`lmagan kichik millatlarga, halqlarga xizmat qiluvchi, o`z yozuviga ega bo`lmagan tillarga maxalliy tillar deyiladi. Masalan, Amerika qit`asidagi maxalliy hindular tili bunga yaqqol misol bo`la oladi. Afrika qit`asidagi ayrim mahalliy aholi tillari ham sociolingvistik tipologiyaga ko`ra ana shu guruhga mansubdir.

4. Kreol tillar. Mustamlakachilik natijasida Amerika, Afrika, Sharq mamlakatlari xalqlari tillari bilan Evropa tillari (ingliz, francuz, ispan, portugal)

elementlari aralashuvidan tashkil topgan tillar kreol tillar deyiladi. Masalan, Amerikadagi Gaiti orolida mahalliy aholi bilan francuz tili aralashuvi natijasida gatti – kreol tili shakllangan. Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi tili aralashuvi natijasida ispan-nautil kreol tili yuzaga kelgan. Amerikadagi Aruba, Bonayre orollarida negr va ispan tillari aralashuvi bilan papiyamento kreol tili shakllangan. Bunday kreol tillari grammatik sistemasi soddalashgani, aloqa uchun qulaylashgani bilan ajralib turadi.

5. Pijin tillari. Mahalliy tillarning Evropa tillari bilan chatishuvi natijasida yuzaga kelgan tillardir. Pijin va kreol tillari o`xshash va farqli tomonlarga ega. Agar kreol tilida so`zlashadigan, uni ona tili deb hisoblaydigan aholi bo`lsa, pijin tili bunday xususiyatga ega emas. Pijin tillaridan ikkinchi aloqa vositasi sifatida katta port shaharlarida foydalaniladi. Umuman olganda, pijin tili kreol tillarining paydo bo`lishida boshlang`ich bosqich sanaladi. Hozirgi vaqtda eng ko`p tarqalgan pijin tillaridan biri «pijin-inglish» deb nomlanuvchi janubiy Xitoy portlarida qo`llanadigan tildir. Shuningdek, XIX asr o`rtalarida S.I.Cherepanov tomonidan urganilgan «rus tilining xitoy dialekti», ya`ni kyaxta deb ataturvchi pijin tili ham mavjud (Rosiya va Xitoy chegarasidagi Kyaxta shahrida yashovchi aholining o`ziga xos «tili»). Yamayka, Gaiti singari orollarda mahalliy aholi bilan francuz, ispan, portgal tillari aralashuvidan yuzaga kelgan pijin tillari hozir ham keng qo`llanadi.

6. Sun`iy tillar. Maxsus yaratilgan xalqaro aloqa tillariga sun`iy til deyiladi. Masalan, esperanto tili 1887 yilda polyak shifokori A.Zamengof tomonidan yaratilgan. Bu til ancha keng tarqalgan. Bu tilda gazeta va jurnallar nashr etiladi, badiiy asarlar nashr etiladi. Bunday sun`iy tillar qatoriga yana ido, volyapyuk, okcidental, interlingva, neo kabi tillarni ham kiritish mumkin.

7. Dialekt. Bu so`z yunoncha bo`lib, sheva, lahja ma`nosini ifodalaydi. Ma`lum bir qabila, xalq yoki millat tarkibiga kiruvchi kichik hududga tarqalgan aholi tilidir. Mahalliy dialektlar ijtimoiy dialektlar va jargonlardan o`ziga xos grammatik qurilishga, lug`at fondiga ega ekanligi, kelajakda milliy adabiy tilga asos bo`lib xizmat qila olishi bilan farqlanib turadi.

Demak, jamiyatga til qanchalik zarur bo`lsa, til uchun jamiyatning bo`lishi shunchalik ahamiyatlidir. Tilning mavqei, rivojlanishi uning muomalada bulishi, aloqa vositasi sifatida xizmat qilishiga bog`liq. Jamiyatning har bir a`zosi tilning sociolingvistika fani yuqoridagi masalalardan tashqari yana ayollar, erkaklar, o`smirlar, maktab va bog`cha yoshdagi bolalarning nutqiga xos xususiyatlarni o`rganishga xam katta e`tibor qaratadi.

Nazorat savollari

1. Sotsiolingvistika nimani o'rganadi?
tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadi
2. Tilshunoslikdagi sotsiologik ta'limotning asoschilari kimlar?
Ferdinand de Sossyur va Antuan Meyel
3. Tilshunoslik tarixida til qanday hodisa sifatida tan olingan?
ijtimoiy
4. Ekstralingvistika qanday fan?
sotsiolingvistika va mentalingvistikani o`zida birlashtiradigan, tilni ijtimoiy hodisa sifatida o`rganuvchi fan
5. Til ijtimoiy-tarixiy hodisa, shundan kelib chiqib, tadqiqot ishi ... o`rganilishi mumkin.
diaxron yoki sinxron planda

4-MAVZU: Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari

Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati. Lingvopoetika

Tilshunoslik fani badiiy adabiyot bilan uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo`lib qolmay, balki tinglovchiga ta`sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o`rganish ob`ekti bo`lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o`rganish ob`ektidir.

Lingvopoetika – lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo`lib, badiiy asarlarda qo`llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.)

badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika badiiy nutqni o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limidir.

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Bu atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. "Obraz", "Uslub", "Ko'chim (trop)", "Badiiy til", "Stilistika", "Poetika" kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetika uchun daxldor tushunchalardir.

V.P.Grigorevning ta'kidlashicha, badiiy til keng qamrovli ob'ekt sifatida funksional darajalangan qismlarga, fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega.

Amalda keng qamrovli ob'ektning ayrim fragmentlarigina badiiy nutqning tahliliga beriladi. Ana shunday asosiy fragment badiiy asar tili sanaladi. Ko'rinadiki, badiiy nutq badiiy asar tiliga nisbatan kengroq tushunchadir. U tilning ekspressiv funksiyasini o'z ichiga oladi. Badiiy asar tili esa badiiy nutqning bir ko'rinishi, bir fragmenti hisoblanadi.

Badiiy nutqni o'rganuvchi lingvistik poetika ham til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inlarning takrorlanishi she'riyatda go'zallikni, ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sanaladi.

Leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi (metafora, metonomiya va boshq.), mubolag'a, meyozi kabi hodisalar ham ta'sirchanlikni oshiradi va LPning tekshirish ob'ekti sanaladi.

Shuningdek, gap bo'laklarining o'rinishi, gap tarkibida bir xil bo'laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shunday qilib, LP tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishga qarab fonetik poetika (FP), leksik poetika (LekP), sintaktik poetika (SP) kabi qismlarga bo'linadi.

LPning har qaysi turini alohida-alohida o'rganish va ularning o'zaro munosabatini ochish hozirgi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati.

Psixolingvistika

Nutqiy faoliyat bir tomondan tilshunoslikning o‘rganish ob’ekti bo‘lsa, ikkinchi tomondan psixologiyaning ham tekshirish predmeti sanaladi. Demak, tilshunoslik bilan psixologiyaning ham kesishish nuqtasi mavjuddir. Ikki fan oralig‘idagi kesishish nuqtasi psixolingvistikaning o‘rganish ob’ekti sanaladi.

Psixolingvistika atamasi amerika olimlari tomonidan ilmiy hayotga olib kirildi. Ilk marta bu atama 1946 yilda amerika psixologi N.Pronko tomonidan “Til va psixolingvistika” nomli maqolasida qo‘llanildi. Lekin bu maqolada psixolingvistikaning maqomi keng jamoatchilik e’tirof etadigan darajada belgilanmagan edi.

1953 yilda Indiana shtatining Blumington shahrida mashhur amerika psixologlari Dj. Keroll, folkloristika bo‘yicha shuhrat topgan T.Sibeok, tilshunoslik bo‘yicha ancha mashhur bo‘lib qolgan, induslar tili va madaniyati bo‘yicha taniqli mutaxassis Dj.Djenkins, tillarning geneologik tasnifi va til tarixi bilan shug‘ullanuvchi Dj.Grinberg kabi mashhur olimlar bilan birlikda, bir qator yosh tadqiqotchilar ham ishtirok etdilar.

Ikki oy davom etgan bu seminarda psixolingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslari bo‘yicha bir fikrga kelindi.

Seminarda ishtirok etgan olimlarning psixolingvistika bo‘yicha umumiy platformasi 1954 yilda “Psixolingvistika” nomi bilan nashr etilgan kollektiv monografiyada o‘z ifodasini topdi.

Bu kitob ilmiy jamoatchilik o‘rtasida katta shuhrat topdi. Natijada psixolingvistika tilshunoslik va psixologiya oralig‘idagi alohida fan yo‘nalishi sifatida e’tirof etila boshlandi. Tez orada dunyoning turli mamlakatlarida, xususan, Angliya, Fransiya, Italiya, Ruminiya, Polsha, CHexoslovakiya, Gollandiya, Rossiya, Norvegiya, Kanada singari qator mamlakatlarda psixolingvistika maktablari dunyoga keldi.

Psixolingvistika garchi asrimizning 50-yillaridan shakllangan bo‘lsa ham, lekin uning ildizi uzoq davrlarga – tilshunoslikda anchadan buyon davom etib

kelayotgan psixologik yo‘nalishga borib taqaladi. Demak, psixolingvistika XIX asr tilshunosligida hukm surgan psixologik yo‘nalishning mantiqiy davomidir. SHuning uchun ham, avvalo, psixolingvistikaning ildizi bo‘lgan tilshunoslik nazariyasidagi psixologik yo‘nalish haqida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi.

Tilshunoslikda psixologik yo‘nalish ancha davrlardan buyon hukm surib kelayotgan til mohiyatini mantiqiy asosda yoritishga qarama-qarshi ravishda XIX asrning 50-yillarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga keldi.

Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishida V.fon Gumboldtning til falsafasi katta ta‘sir ko‘rsatdi. Tilshunoslikda psixologik yo‘nalishning aslschisi buyuk nemis tilshunosi V.Fon Gumboldtning shogirdi X.SHteyntaldir.

Psixologik yo‘nalish o‘zining dastlabki davrida bir qator dalillar asosida an’anaviy mantiqiy yo‘nalishdan uzilishga harakat qildi. Bu asoslar quyidagicha:

1) Mantiqiy va grammatik kategoriyalarning o‘zaro muvofiqligi juda kuchsiz darajadadir. Ularning munosabati doira va qizil tushunchalarining munosabatiga o‘xshaydi. Mantiq umuminsoniy mohiyatga ega. SHuning uchun muayyan xalqning tiliga xos xususiyatlarni ochib berolmaydi. Mantiq gipotezalarga tayanuvchi fan bo‘lsa, tilshunoslik genetik xususiyatga ega. YA’ni tilshunoslik “nutqiy jarayon”ni tadqiq etish bilan shug‘ullansa, bu jarayon mantiqni qiziqitirmaydi va boshq.

Psixologik yo‘nalish tarafdorlari tilshunoslikning metodologik asosi sifatida mantiqni emas, balki psixologiyani e’tirof etadilar.

V.fon Gumboldt ta‘sirida X.SHteyntal tilda “xalq ruhi”ning, xalq psixologiyasining ifodalanishini ko‘rdi. SHuning uchun ham tilning sotsial tabiatiga alohida ahamiyat berildi.

U davrdagi psixologiya individual psixologiya edi. SHuning uchun X.SHteyntal sotsial psixologiyani (etnopsixologiyani) yaratish va uni targ‘ib etish uchun M.Lotsarus bilan birgalikda “Etnik psixologiya va tilshunoslik” nomli jurnalni nashr etdilar. XXi asr boshlarida V.Vundt ham tilshunoslikning metodologik asosi sifatida xalq psixologiyasi haqidagi fanni yaratishga harakat qildi. Lekin u alohida fan sifatida shakllanmadi. SHunday bo‘lishiga qaramay, tilshunoslikda psixologiyaga tayanish harakati bir qator yangi yo‘nalishlarning

ochilishiga sababchi bo'ldi. Jumladan, tilshunoslikda xalq ruhini ochishga intilish tufayli, folklorni, mifologiyani topishmoq, maqol, matallarga va ularda ifodalangan xalq urf-odatlarini chuqur o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ular xalq donoliginingifodalovchilari sifatida qaraldi.

Psixologik yo'nalish tarafdorlari V.fon Gumboldt g'oyalariga sodiq qolgan holda, tilni doimo rivojlanib boruvchi dinamik, tarixiy hodisa sifatida baholadilar. Bunday yondashuv qiyosiy-tarixiy tilshunoslik g'oyalariga mos keladi. SHu bilan birgalikda, assotsiativ psixologiya tushunchalari va amalini tilshunoslikka kiritish harakatida psixologik yo'nalish tarafdorlari jonli nutqqa, bevosita nutqiy jarayonga, tilning ichki tomoniga, so'z va gaplarning ma'no tomoniga asosiy e'tiborni qaratdilar. Ularning ta'kidlashlaricha, tilning mohiyatini va kelib chiqishini yaxshiroq tushunishga qulay imkoniyat beradi.

Psixologik yo'nalish vakillarining bevosita jonli nutqqa e'tibor qaratishlarida ham V.fon Gumboldtning ta'siri kuzatiladi. V.fon Gumboldt til va nutqni farqlagan holda, jonli nutqni o'rganish jarayonida, garchi ma'lum bir til vakillari bir umumiy tilad gaplashsalar ham, ular ayni paytda o'z tillariga ham egadir, degan xulosaga keladi. SHuning uchun ham jonli nutqni va ayni paytda, individlar nutqini o'rganish lozim degan g'oyani olg'a tashlaydi.

Ma'lumki, V.Gumboldt asarlarida "tilning ichki shakli" tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Bu juda keng tushuncha bo'lib, xalq ruhi, urf-odatlari va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Psixologik yo'nalish tarafdorlari ham bu tushunchaga katta e'tibor berdilar. H.SHteyental uni til tarixiga nisbatan ham qo'llashga harakat qiladi. Uning fikricha, tarixgacha bo'lgan davrda tillar juda boy ichki shaklga ega bo'lgan, tarix davrida esa ular asta-sekin kamayib borgan. Bu fikrlar mashhur fransuz faylasufi J.Russo qarashlariga ham g'oyat monanddir.

"Ichki shakl" tushunchasidan psixologik yo'nalish vakillari so'zning paydo bo'lish jarayonini tushuntirib berishda ham foydalanadilar. Xususan, bu tushuncha rus tilshunosligida psixologik yo'nalishning yirik vakili A.Potebnya asarlarida qo'llangan "ichki shakl" atamasi ostida V.Gumboldt tushungan "xalq ruhi" emas, balki so'zning kelib chiqishiga asos bo'lgan "obraz markazi" tushuniladi. Masalan,

medved soʻzining paydo boʻlishi uchun xizmat qilgan ichki shakl, obraz markazi ayiqning asal eyish belgisi boʻlgan.

Til birliklarining paydo boʻlishini tushuntirishda psixologik yoʻnalish vakillari psixologiyaning “assimilyasiya”, “assotsiatsiya”, “appersepsiya” kabi atamalaridan foydalandilar. Ayniqsa, “assitsiatsiya” tushunchasi A.Potebnyaning soʻzning paydo boʻlishi, soʻz etimologiyasini bayon qilishda keng qoʻllaniladi.

Psixologik yoʻnalish tarafdorlari yuqoridagi sanab oʻtilgan psixologik atamalarga koʻproq murojaat qilganliklaridan koʻrinib turibdiki, ular asosan bevosita nutqiy jarayonga eʼtiborni qaratdilar. Ular birinchilardan boʻlib V.Gumboldtning bogʻli nutqni lingvistik tekshirish obʼektiga aylantirish lozimligi haqidagi fikriga tadqiqotchilar diqqatini tortdilar.

Psixologik yoʻnalish asoschilari til taraqqiyotida psixologik omillarning rolini oshirib yubordilar. Koʻpincha psixologik kategoriyalar bilan grammatik kategoriyalar qorishtirildi.

Psixologik yoʻnalish vakillarining bunday kuchsiz tomonlarini anglash XIX asrning 70-yillarida tilshunoslikda yangi yoʻnalish – yosh grammatikachilar maktabining shakllanishiga olib keldi.

Yosh grammatikachilar maktabi gʻoyalari Germaniyaning Leypsig universiteti olimlari tomonidan yaratildi. Bu maktab psixologik yoʻnalish bagʻrida rivojlandi va unga tanqidiy yondashish asosida shakllandi. Yosh grammatikachilar tilning psixologik tabiatini eʼtirof etgan holda, etnopsixologiyani ilmiy uydirma sifatida rad qildi va tilshunoslikning tekshirish obʼektiga beriladigan yagona reallik individ tili deb baholanadi. Shuning uchun ham ular asosiy eʼtiborni nutqiy jarayonni, nutqiy jarayondagi fonetik oʻzgarishlarni oʻrganishga qaratdilar.

Tilshunoslikning yagona metodologik asosi individual psixologiya ekanligini taʼkidlaydilar. Shu bilan birga, tilning mohiyatini psixologiya bilan qorishtirmadilar, tilning moddiy tomonini tekshirishga alohida diqqat qildilar.

Tilshunoslikda psixologik yondashuv anʼanasi uzoq davom etdi. XX asr boshlarida A.Marti asos solgan universal grammatika nazariyasi uchun ham ana shu yondashuv poydevor boʻlib xizmat qildi.

A.Marti universal grammatika yaratish mumkinligining tayanch nuqtasi sifatida barcha tillarning bir xil psixologik mazmuni ifodalashini va har xil ichki qurilishga egv ekanligini, chunki har qanday inson, qaysi tilga mansub bo'lishidan qat'i nazar, umumiy psixofiziologik tuzilishga ena bo'lishini ta'kidlaydi. A.Martinning fikriga ko'ra, tilshunoslikning asosiy vazifasi universal til vositalari orqali ifodalangan mazmun va psixik funksiyalarni aniq tavsiflash va tahlil qilishdan iborat bo'lish kerak.

Psixolingvistikaning o'rganish ob'ektiga quyidagilar kiradi:

A. Nutqning vujudga kelish mexanizmini o'rganish.

B. Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o'rganish.

V. Turli nutqiy vaziyatda nutqni so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda o'rganish.

G. Nutqning axborot tashish funksiyasini o'rganish va boshq.

Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati. Etnolingvistika

Til bilan shu til egasi bo'lgan xalq uzviy aloqadadir. Xalq tarixidagi har bir voqea, xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi uning tilida aks etadi. SHuning uchun ham til bilan shu til egasi bo'lgan etnos o'rtasida qanday aloqa mavjud bo'lsa, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan xalq tarixi va etnografiya o'rtasida ham shunday aloqa mavjuddir.

Xalq elatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida ro'y bergan har qanday o'zgarish uning tilida ham o'z ifodasini topadi. SHu sababli xalq tarixi uchun tarixiy hujjatlar, arxeologik yodgorliklar guvohlik bera olmagan taqdirda ham, uning tili qimmatli materiallar berishi mumkin. Ayniqsa, toponim, etnonim, etnotoponimlar xalq tarixini inobatga olmay turib o'rganib bo'lmaydi. SHu bilan birgalikda, tilshunoslik etnografiya bilan ham uzviy aloqadadir.

Tilning shu til egasi bo'lgan etnos madaniyatiga bo'lgan munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida til etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtasidagi aloqani o'rganishga ehtiyoj tufayli etnolingvistika yo'nalishi vujudga keldi.

Etnolingvistika atamasi grekcha **etnos** – xalq, qabila va lingvistika soʻzlaridan olingan boʻlib, mustaqil lingvistik yoʻnalish sifatida XIX asrning 70-yillarida SHimoliy va keyinroq Markaziy Amerikadagi indus qabilalarining tili, madaniyati va urf-odatlarini oʻrganishning kuchayishi bilan paydo boʻldi. Lekin bu yoʻnalishning ilk davrida koʻproq etnografiya masalalariga diqqat jalb qilindi, faqat oʻtgan asrning 20-yillarida lingvistik tomoniga ahamiyat kuchaytirildi.

Etnolingvistikaning mustaqil lingvistik yoʻnalish sifatida shakllanishida Amerika tilshunosi, etnografi F.Boas va uning izdoshlari xizmati katta boʻldi. Ular yoʻnalishning muammolar doirasini va tadqiqot metodlarini belgiladilar. Etnolingvistika Amerika olimlari asarlarida koʻpincha “antropolingvistika”, “etnosemantika” atamalari bilan ham almashtirib qoʻllaniladi.

Etnolingvistika muammolaridan eng muhimi sifatida Amerika induslari tillarining genetik qarindoshligini aniqlash masalasi qaraldi.

Bu tillarning tasnifi dastlab maʼlum tamoyilga asoslanmagan holda, taxminlarga asoslanib qilingan boʻlsa, keyinchalik E.Sepir, S.Lem, M.Svodish, Dj.L.Treyjer va boshqalar tomonidan aniq ilmiy metodlarga tayanildi. Indusmlar tillarini sinflarga birlashtirishda hissiy-tarixiy, glottoxronologik, tarixiy-tipologik va areal va kabi metodlardan foydalanildi.

Tillarning tasnifidan tashqari, yana tillarning va madaniyatlarning oʻzaro taʼsiri, bilingvizm masalalari, til tarqqiyotiga ijtimoiy madaniyatning taʼsiri muammolar ham etnolingvistikaning oʻrganish doirasiga kiritildi.

Dastlab etnolingvistika doirasiga semantika ham kiritilgan edi, lekin keyinchalik deskriptiv lingvistikaning avj olishi natijasida semantika lingvistik tadqiqotlar doirasidan chiqarildi.

Tilning semantik tomoniga oʻtgan asrning 50-yillarida E.Sepir-Uorf gipotezasini keng muhokama qilish jarayonida qayta jonlandi. Ayni paytda etnolingvistika masalalariga ham yana eʼtibor kuchaydi. Bu davrda semantikaga eʼtiborning qaratilishi natijasida uzviy tahlil metodi amaliyotda keng qoʻllanildi. Bunday usul yordamida turli tillarda sotsial-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi soʻzlar guruhi (qarindosh-urugʻ nomlari, rang bildiruvchi soʻzlar) atroflicha tahlil etildi.

Shuningdek, turli etnik guruhlarda qo'llaniladigan paralingvistik vositalar, folklor materiallarini o'rganish ham etnolingvistika ob'ektiga kiritildi. Xususan, o'tgan asrning 70-80-yillarida etnolingvistikaning folklor materiallariga e'tiborning tortilishi til va madaniyat o'rtasidagi aloqaning yangi turlarini ochishga imkoniyat yaratdi va bu bilan etnolingvistikaning o'rganish doirasini kengaytirdi.

Hozirgi kunda etnolingvistika dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida tilshunoslikning bir yo'nalishi sifatida e'tirof etildi va bu yo'nalish bo'yicha keng tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabati. Sotsiolingvistika

Til ijtimoiy hodisa bo'lganligidan, u jamiyat bilan, jamiyatning hayoti bilan uzviy aloqadadir. Demak, tilning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy vazifasi, tilga sotsial omillarning ta'siri, til tarqqiyotida til siyosatining roli kabi qator masalalarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik yo'nalishining shakllanishiga katta ehtiyoj tug'ildi.

Ilmiy texnik revolyusiyaning rivojlanishi uning ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, falsafiy muammolarnigina aktuallashtirmay, balki ijtimoiy-lingvistik muammolarni ham aktuallshtirmoqda, bu esa o'z navbatida dunyo tillarining faoliyatiga, rivojlanishiga, o'zaro munosabatiga, dunyo lingvistik jarayoniga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Tillar faoliyati va rivojlanishining ichki qonunlarini sotsiolingvistik va strukturalistik yoritishda sotsiolingvistlar va struktur lingvistika (ayniksa tillarning shakllanish muammolari bilan) shug'ullanuvchi tilshunoslar o'rtasidagi ayrim bahslar manbasi bo'lib, tillarning faoliyati, rivojlanishi, o'zaro munosabatida jamiyatning tilga ongli hamda stixiyali ta'sirini farqlagan holda sinxron va diaxron aspektda ko'rib chiqishda ijtimoiy faktorlarning roli haqidagi masala xizmat qiladi.

Jamiyat lisoniy hayotiga ilmiy texnika revolyusiyasi ta'sirining xarakteri, tempi, kulami, soxhalari va xususiyliklarini aniqlash - sotsiolingvistikaning eng muhim va aktual vazifasidir.

Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish xamda ilmiy texnik revolyusiya tilni sotsiolingvistik va struktur o'rganish muammolarini chuqur taxlil qilishni xayotiy zaruriyat qilib qo'ydi.

Glossematika asoschilaridan biri L.Elmslev konsepsiyasining moxiyati "tilni mutonisibliklar sof strukturasi sifatida qarashdir".¹

Sotsial lingvistika fonologik sistema birliklaridan tortib butun til strukturasi gacha bo'lgan barcha til xodisalarini ijtimoiy shartlashgan xodisalar deb qaraydi.

Dunyo lingvistik jarayonining sotsiolingvistik tadqiqotlar ob'ekti bo'lmish tomonlari ilmiy texnika rivojlanishining eng kuchli ta'siriga uchraydi, ya'ni dunyo tillari ijtimoiy funksiyalarining notekis rivojlanish jarayonlari, terminologik sistemalarning paydo bo'lishi, ularning uzuliksiz differentsiatsiyasining o'sishi, xududiy dialektlarning "maydalashuvi", tillar(ayniqsa rivojlangan)ning ijtimoiy-kasbiy differentsiatsiyasini tezlashuvi, mafkurafiy konsepsiyalar ta'sirining kuchayishi(ayniqsa leksik-semantik va stilistik sistemalarga) va xakozo.

Til va madaniyat, milliy til va milliy madaniyat o'zaro chambarchas bog'langandir.

Madaniyat atamasini biz keng ma'noda qo'llaymiz, ya'ni moddiy va ma'naviy madaniyatni ko'zda tutamiz. Birinchisi, moddiy ishlab chiqarish, iste'mol, xo'jalik soxalari madaniyatini o'z ichiga olsa, ikkinchisi esa fan, maorif, san'at, badiiy adabiyot va b. barcha soxalarni qamraydi.

Til-madaniyat munosabatini shakl va mazmun o'rtasidagi munosabatlarga keltirish to'g'ri bo'lmaydi. Til - ko'p yo'nalishli xodisa, O'zining ijtimoiy va moddiy tabiatiga ko'ra moddiy va manaviy madaniyatning barcha soxalari, barcha tarkibiy qismlarining mazmuni xamda boshqa tomonlarini bevosita yoki bilvosita aks ettiradi, ifodalaydi. Til - madaniyat yaratish, ijod qilishning eng asosiy vositalaridan biridir. U madaniyatga erishish, uni tushunish, uning sohalarida muloqat qilish, uning rivojini oldindan aytib berish vostiasidir. Madaniyat til rivojlanishiga ta'sir qilsa xam, u til ichki rivojlanishining asosiy vositasi va quroli

emas. O‘zining universalligi va tabiatiga ko‘ra til madaniyat bilan o‘zaro solishtiriladigan xodisalar emas. Til va madaniyatni yaratuvchi va rivojlantiruvchi ijodkor kuch xalk va jamiyatdir. Shunday qilib, til xam, madaniyat xam bir biriga nisbatan ijod qiluvchi sub’ekt rolini o‘ynamaydi. Ular orasidagi munosabat ob’ekt va sub’ekt o‘rtasidagi munosabat xam emas.

Milliy madaniyatlar yaqinlashuvi va qo‘shilishiga asosan tashqi ijtimoiy faktorlar ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ba’zi ijtimoiy sharoitlarda madaniyatlarning o‘zaro yaqinlashishi va qo‘shilishini kuzatish mumkin. Bu ma’noda milliy tillar milliy madaniyatdan ajralib turadi. Barcha ijtimoiy xodisalar ichida til sistemasi eng yopiq xisoblaniladi va o‘ta o‘ziga xos xususiyatlarga xamda murakkab strukturaga ega. Shunga ko‘ra tillarning bir-biriga qo‘shilishiga asosan tilning ichki qonuniyatlari qarshilik ko‘rsatadi.

Til va tafakkur munosabati. Mentalingvistika

Shu kunga qadar tilni abstrakt mohiyat sifatida o‘rganish sistemaviy struktur tilshunoslikning bosh tamoyili bo‘lib keldi. Natijada til va nutq mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik kabi dialektik kategoriyalar asosida o‘zaro farqlandi. Tilni ikkinchi darajali, o‘tkinchi, chegara belgilaridan soqit qilgan holda soddalik, izchillik, ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslik tamoyili asosida o‘rganishga imkoniyat yaratildi.

O‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab ilmiy tadqiqotlar paradigmasi o‘zgardi. Agar ilgari fundamental fanlar nazariy g‘oyalarni ilgari surgan holda, bu g‘oyalar asta-sekin muayayn texnologiyalarga muvofiq ravishda hayotga joriy qilingan bo‘lsa, ya’ni «nazariyadan amaliyotga» tamoyili ustuvorlik qilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ko‘p hollarda uning aksi ko‘zga tashlanmoqda: u yoki bu texnologiyaning taraqqiyotiga ehtiyoj nazariy tadqiqotlar yo‘nalishini belgilamoqda. V.I.Gerasimov va V.Petrovlarning ta’kidlashlaricha, agar lingvistika bu yangi sharoitga tayyor bo‘lmasa, til kommunikatsiyasining bugungi kundagi muhim muammolarini o‘rganishda o‘zining obro‘sini yo‘qotishi mumkin (1).

Bugungi kunda kommunikatsiya jarayonida tilni so‘zlashuvchilarning til haqidagi amaliy bilimisiz, uni e’tiborga olmagan holda to‘g‘ri va to‘liq o‘rganib bo‘lmasligi aniq bo‘lib qoldi. Struktur tilshunoslikning otasi hisoblangan F. de

Sossyur ham tilshunoslikni tilning qaysi jihatdan o'rganilishiga ko'ra ichki va tashqi lingvistikaning o'zaro hamkorligini ta'kidlagan edi.

Hozirgi kunda bu ikki lingvistikaning o'zaro munosabatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Tilning ichki tuzilishini o'rganish bilan birga, til egasining kommunikatsiya jarayonidagi roli, olamning lingvistik qiyofasi kabi masalalar lingvistik tadqiqot doirasiga tortilmoqda

Sun'iy intellekt nazariyasi taraqqiyotning hozirgi davrida mantiq, lingvistika, psixologiya va hermenevtika singari tashqi tomondan undan uzoqroq bo'lib ko'ringan falsafiy yo'nalish natijalaridan ham keng foydalanilmoqda.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab tilshunoslik ham kognitiv fanlar konseptual bazasi bo'lgan kognitiv fan o'zining katta burilishi davriga ko'tarildi. Natijada yangi nazariy manbalarni qidirish ehtiyoji vujudga kela boshladi.

Olamning lingvistik bilishda Gusserlning intensional fenomenologiya nazariyasi katta ahamiyatga egadir. Gusserl intensionallikni ob'ektga yo'nalganlik belgisi orqali tushuntirar ekan, uni hatto illyuziya va gallyusinatsiya kabi mental aktlarda ham mavjud ekanligini ta'kidlaydi.

Intensional fenomenologiya nazariyasi tarafdorlari xilma-xil mental aktlardagi ob'ektlar sifatida sezgi a'zolarimizga beriluvchi konkret ob'ektlarni ham afsonaviy ob'ektlarni ham, gallyusinatsiya, ya'ni «ko'zlarimizga ko'rinuvchi» yolg'on ob'ektlarni ham e'tirof etadilar. Ularning hammasini umumlashgan holda ifodalash uchun noema atamasidan foydalandilar. SHunday qilib, har bir nutqiy akt uning ob'ektga yo'nalishini ta'minlovchi noemaga ega bo'ladi (2).

Bugungi kunda kognitiv fanlar olg'a surgan borliqni mental g'aydalantirish g'oyasi bilan hermenevtika g'oyalari ko'p jihatdan uyg'unlashmoqda. Xususan, borliqdagi moddiy va ruhiy olam o'rtasiga qat'iy chegara qo'yishga tanqidiy munosabatda bo'lib bizning sezgi a'zolarimizga berilgan borliq uzvlari mental, ya'ni fikriy hosila (mental konsept) ekanligi e'tirof etish g'oyalari orqali umumiylikni hosil qiladilar.

Ko'rinadiki, fenomenologiya va hermenevtika g'oyalari bugungi kunda olamni lingvistik bilish g'oyasini targ'ib qilayotgan va rivojlantirayotgan sintaktik

semantikaning tarkibiy qismi bo'lgan sintaktik pragmatika uchun nazariy tayanch nuqtalar bo'lib xizmat qilmoqda (3).

Kognitiv fanlarining markaziy tushunchasi borliqni mental gavdalantirishdir, yoki til mentalligidir.

Til mentalligi deganda ob'ektiv ayrim qismlari va uning til tasavvurlari o'rtasidagi munosabat tushuniladi.

Borliqning til tasavvuri deganda esa, borliqning til orqali ongda aks etishi, til tafakkuri tushuniladi.

Tilga mentalistik nuqtai nazardan qaralganda, til orqali borliq aks ettiriladi, tasavvur qilinadi degan g'oya ilgari suriladi. Olamni aks ettirish yoki tasavvur qilish cho'qqilar tamoyilligiga asoslanadi. Ularning fikricha, olamni aks ettirish uning cho'qqilarini aks ettirish orqali amalga oshiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, aks ettirishga bir butun olam emas, balki, faqat uni cho'qqilari beriladi. Ya'ni so'zlovchi tomonidan olamning eng muhim, relevent belgisi sifatida ko'ringan qismlari tasavvur qilinadi (4).

Til mentalligi nazariyasiga ko'ra borliq yoki olam atamasi ostida insonni qurshab turgan olamgina emas, balki inson tomonidan yaratilgan, ya'ni insonning nutqiy faoliyati va uning holati olami ham tushuniladi.

Til mentalligi hozirgi kunda sintaktik semantikaning tayanch tushunchasi bo'lgan freymlar bilan uzviy bog'liqdir. SHu bilan birgalikda leksik maydon nazariyasi bilan freymlar semantikasi o'rtasida ham muayyan bog'liqlik va o'ziga xoslik mavjud.

Freym - bu quyma (stereotip) vaziyatlarni gavdalantirishning bir usuli sanaladi (5). Masalan: *xona tasviri, to'y tasviri* va boshqalar. *Opa, aka, uka, singil, amma, xola: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, nonushta, tushlik, kechqurunlik; sahar, ertalab, tush, oqshom, kechqurun* kabi so'zlar ongingizda ma'lum guruhlarini tashkil qiladi. Ularning har birini bir butun sifatida o'rganish qulayroq hisoblanadi. CHunki har bir guruh olam haqidagi bilimlarimizning ma'lum darajadagi sxematizatsiyasining leksik vakillari sanaladi. Har bir guruhga mansub muayyan a'zoning ma'nosini bilish uchun eng avvalo, ularning barchasi nimani bildirishi haqida bilimga ega bo'lishimiz talab etiladi. Har qaysi guruhga

mansub bo'lgan leksemaning ma'nosi ostida yotgan bilimga har bir guruhni bir butun mohiyat sifatida qarash orqali erishiladi.

YUqoridagi guruh a'zolari o'zaro so'zlovchilarning olam haqidagi bilimi asosida o'zaro bog'langandir. Ongimizda bunday so'zlar alohida unifikatsiyalashgan bilimlar qurilmasi orqali o'zaro bog'lanadi. Ana shunday bilimlarni ifodalash uchun so'nggi davrillarda freym kognitiv model, sahna global model yolg'on tekst (jevdotekst) atamaları qo'llanilmoqda.

Biz u yoki bu tildagi hafta kunlari va u bilan bog'liq boshqa so'zlar haqidagi tushunchamizni aniq ifodalashimiz uchun yagona tasvirlash freymiga murojaat qilishimiz mumkin. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) quyoshning har kungi harakati bilan bog'liq bo'lgan siklni tushunish; 2) bir kunlik sikl qachon tugab, qachon boshlanishini bilish; 3) etti kundan tashkil topgan haftalik katta kalendar siklini bilish; u hafta kunlarining ish va dam olish bilan bog'liq darajasi haqidagi bilim. Ana shu bilimlarga ega bo'lish bu leksemalarning konseptual bazasini hosil qiladi.

Ko'rinadiki, freymlar semantikasi leksik maydon nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir. Lekin leksik maydon va freym tushunchalari ma'lum xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika

Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya fani bilan ham uzviy bog'langan. Keyingi yillarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlari oralig'ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog'i vujudga keldi.

Bu fan nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalarini o'rganadi. Sodda qilib aytganda neyrolingvistikaning o'rganish ob'ekti afaziyadir.

Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutqiy faoliyatning buzilishi masalasi bobokalonlarimiz Ibn Sino, Beruniy asarlarida qayd etilgan va bu kasalni davolashga e'tibor bergan bo'lsalar ham, lekin u alohida fan tarmog'i sifatida shakllana olmadi.

Miya zararlanishining nutqqa ta'siri muammosi izchil ravishda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'rganildi.

Neyropsixologiya va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan neyrolingvistika maxsus fan sifatida yaqindagina – o‘tgan asrning etmishinchi yillarida shakllandi. Bu fanning vujudga kelishida A.A.Leontev, A.R.Luriya, E.S.Beyn, R.M.Boskis, E.N.Venarskaya, O.S.Vinogradova, N.A.Eysler singari olimlarning xizmatlari kattadir.

Neyrolingvistika fani to‘g‘risida batafsil ma‘lumot beruvchi kitob A.R.Luriyaning “Neyrolingvistikaning asosiy muammolari” nomli asari hisoblanadi.²

Nutqiy axborot berish jarayoni, ya‘ni kishilarning o‘zaro nutq yordamida bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o‘rganish ob‘ekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan chuqur o‘rganilgan.

Tilshunoslik kishilarning asosiy aloqa vositasi bo‘lgan til va uning bevosita aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni ajratgan holda, ichki tuzilish, tuzilish birliklari, bu tuzilish birliklarining nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, “ichki tuzilish”dan “tashqi tuzilish”ga o‘tishning asosiy bosqichlari va yuqoridagi ikki tuzilishning o‘zaro munosabatlari kabi qator masalalarni atroflicha o‘rgandi.

Inson borliqni ongida aks ettiradi. Aks ettirish sezgi yordamida amalga oshiriladi. Sezgi organlari esa tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya esa bu axborotlarni umumlashtiradi. Ko‘rinadiki, ob‘ektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv sistemasi, bosh miya orqali yuzaga chiqadi.

Nerv sistemasi odatda ikki guruhdagi nerv sistemalarini o‘z ichiga oladi:

1) markaziy nerv sistemasi va 2) chegara nerv sistemasi. Borliq haqida axborot beruvchi nutq va uni tushunish chegara nerv sistemalari markazga qarab yo‘nalishi orqali amalga oshiriladi. CHegara nerv sistemalari markaziy nerv sistemalariga ob‘ektiv borliqdagi narsa va hodisalarning muayyan belgilari haqidagi ma‘lumotni beradi. SHuning uchun ham chegara nerv sistemasiga aloqador a‘zolari tahlil

qiluvchilar (analizatorlar) deb yuritiladi. Ular ko‘rish, eshitish, ta‘m-maza a‘zolari sanaladi. Har bir analizatorida ikki turdagi nerv sistemasi ajratiladi.

- 1) axborotni mazkur sezgi organidan bosh miya pardasiga eltuvchi struktura;
- 2) borliq predmetlariga yo‘naltiruvchi struktura (miyaning bilish zonasi).

Uchinchi sath sifatida murakkab anatomik tuzilishga ega bo‘lgan til pardasi zonasi ajratiladi. Bu zonada miyaning turli analizatorlaridan kelgan belgilar kompleksi birlashtiriladi va natijada sezgi hissiyotidan til umumlashmasiga o‘tish imkoniyati tug‘iladi.

Lingvistika va tibbiyotning qo‘lga kiritgan yangi-yangi yutuqlari neyrolingvistikaning tekshirish usullarini takomillashtirib boradi.

Hozirgi kunda neyrolingvistika psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, pishxoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g‘oyalari va metodlaridan barakali oziqlanmoqda. SHunday qilib, neyrolingvistika insonning olamni belgilashtirish tabiatini kompleks ravishda o‘rganishning bir tarmog‘i sifatida rivojlanib bormoqda.

Tilshunoslikning matematika bilan munosabati. Matematik lingvistika

Har qanday fan matematika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgandagina yuksak maqsadlarga erisha oladi. Tilshunoslik ham undan mustasno emas. SHuning uchun ham XX asrning o‘rtalariga kelib, tilshunoslikda bir qator lingvistik tushunchalarning aniqlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida matematik lingvistika nomi bilan yuritiluvchi alohida yo‘nalish maydonga keldi.

Muayyan matematik apparatlardan foydalaniladigan lingvistik tadqiqot usuli matematik lingvistika deb yuritiladi.

Hozirgi kunda bu atama ostida ikki xil fan sohasi tushunilmoqda. Birinchisi matematikaning bo‘limi bo‘lgan matematik lingvistika. Uning tekshirish metodlari ko‘p jihatdan matematik mantiq, ayniqsa, uning algoritm nazariyasi bo‘limlari bilan ko‘p jihatdan umumiylikka ega.

Ikkinchisi lingvistika yo‘nalishi bo‘lgan matematik lingvistika matematik usullardan foydalangan holda olib boriladigan har qanday lingvistik tadqiqot metodi tilshunoslikda matematik lingvistika jeb yuritiladi.

Tilni matematik yo‘l bilan tasniflash F.de Sossyurning til haqidagi ta’limotiga tilga shu til egalarining nutqiy faoliyatida vazifa bajaruvchi mexanizm sifatida qarashiga asoslanadi.

Nutqiy faoliyat natijasida “to‘g‘ri matn” deb yuritiluvchi nutqiy birliklar ketma-ketligi maydonga keladi. Bu nutqiy birliklar muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi va ularning ko‘pchiligi matematik tavsifga beriladi.

Gaplarni matematik tavsiflash usullarini ishlab chiqish va o‘rganish matematik lingvistikaning asosiy vazifalaridan biridir. Bunday vazifa matematik lingvistikaning sintaktik strukturani tavsiflash usullari nazariyasi bo‘limi zimmasiga tushadi.

Gapning sintaktik strukturasi tavsiflash uchun ikki xil usuldan foydalaniladi: 1) gap tarkibidan uning alohida sintaktik birlik sifatida amal qiladigan ishtirokchilarini ajratish; 2) gap tarkibidagi so‘zlarning tobelanish munosabatini tavsiflash. Masalan, *O‘quvchilar maktabimiz bog‘ida har xil mevalarni o‘stiradilar* jumlasini birinchi usulga ko‘ra, avvalo yaxlit holda muayyan ishora bilan belgilanadi va u tadrijiy ravishda ishtirokchilarga bo‘linadi.

Bunday usullar Amerika struktur tilshunosligida keng qo‘llanildi va birinchisi “Bevosita ishtirokchilar grammatikasi”, ikkinchisi esa “Tobelilik grammatikasi” nomi bilan yuritildi. Ularning hammasi transformatsion grammatikaning turli ko‘rinishlari sanaladi.

Matematik lingvistikaning yana bir tarmog‘i formal grammatika nazariyasidir. Bu grammatika ham mashhur Amerika tilshunosi, transformatsion grammatika asoschisi N.Xomskiy nomi bilan bog‘liqdir. Formal grammatika alohida matnlarni emas, balki bir qancha to‘g‘ri matnlarni va qonuniyatlarni tavsiflash usullarini o‘rganadi. Bu qonuniyatlar formal grammatikaning abstrakt simvollari orqali belgilanadi. Shu asosda “tug‘dirish grammatikasi” yoki “generativ lingvistika” maydonga keldi. Bulardan tashqari, tilshunoslikda invariantlik nazariyasi ham matematika ta’sirida vujudga kelgan. Matematikada invariant atamasi orqali o‘zgaruvchan sonlar ostidagi o‘zgarmas, barqaror miqdor tushunchasi anglashiladi. Shuningdek, tilshunoslikda keng qo‘llanilayotgan statistik metodlar ham matematika fanining ta’siri natijasida maydonga kelgan

Nazorat savollari

1. Tilshunoslikning til va tafakkur munosabatini o'rganuvchi sohasini aniqlang.
mentalingvistika
2. Muayyan biror bir til bilan uning egasi bo'lgan xalq o'rtasidagi uzviy aloqalarni tadqiq etuvchi tilshunoslik sohasi qanday nomlanadi?
etnolingvistika
3. Tilshunoslik eng yangi zamonaviy sohalari berilgan qatorni ko'rsating.
neyrolingvistika, psixolingvistika, lingvopoetika
4. Nutq faoliyatni bosh miya mahsuli sifatida o'rganadigan tilshunoslikning yangi sohasini ko'rsating.
neyrolingvistika
5. Nutqiy faoliyat jarayonida "to'g'ri matn" deb ataluvchi nutqiy birliklarning ketma-ketligi va ularning izchilligini o'rganuvchi tilshunoslik sohasini aniqlang.
matematik lingvistika

5-MAVZU: Matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari.

Matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari. Matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari borasida fikr bildirishdan avval kognitiv lingvistika, uning vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo'nalishlari xususida ma'lumot berish o'rinli deb hisoblaymiz, chunki kognitiv lingvistika borasida o'zbek tilida manbalar juda kam. Til birliklari va "ular asosida yotuvchi bilim strukturalari" mental birliklardir, ular o'zlarini belgilar sistemasi sifatida namoyon qilib, borliqni anglashda va mavjud bilimlarni uzatishda faol ishtirok etadi. F. de Sossyur fikricha, belgilar sistemasi ifoda plani va mazmun planiga ega bo'lgan holda ma'lumotni muayyan shaklda uzatuvchi inson ishtirokini taqozo qiladi. An'anaviy lingvistikada, asosan, belgining ifoda plani va mazmun planiga e'tibor qaratilar edi, kommunikatsiya jarayonining realizatori bo'lgan insonning o'zi esa tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib keldi. Voholangki, "ifoda plani ham

mazmun plani ham ushbu jarayonni amalga oshirayotgan inson tomonidan tanlanadi”. 1 Bu tanlov inson tomonidan uning falsafiy, entsiklopedik, etnografik, lingvokulturologik bilimlari, kommunikativ akt kechayotgan vaziyat, insonning emotsional holati va b. asosida amalga oshiriladi. Shu tariqa, qiyosiy tarixiy, struktur, funktsional va kommunikativ lingvistika bilan bir qatorda kognitiv lingvistika ham shakllanib bordi. Kognitiv lingvistika tilni “inson ongida fikrlarni shakllantiruvchi va ifodalovchi, bilimlarni saqlovchi va tashkil qiluvchi vosita” sifatida o’rganadi. 1 Tilni shunday tushunish va uni tadqiq qilishga bo’lgan bunday yondashuv tilga kognitiv yondashuv nomini oldi. Tilni kognitiv yondashuv asosida tadqiq qilish kognitsiyaning til ifodasini o’rganish bilan bog’langan. N.N.Boldiryov fikricha: “ Kognitsiya –bu ma’lumotlarni, bilimlarni olish, qayta ishlash, eslab qolish, xotirada tiklash va foydalanishning har qanday ongli yoki ongsiz jarayonidir. U o’zida quyidagi psixologik jarayonlarni mujassamlashtiradi: 1) dunyoni qabul qilish; 2) kuzatish; 3) kategoriyalarga ajratish; 4) tafakkur; 5) nutq; 6) tasavvur va b. “.2 Kognitiv lingvistikaning shakllanishida tilshunoslikdagi quyidagi yo’nalishlar nazariy asos sifatida xizmat qildi: 1) semasiologik nazariya (Yu.D.Apresyan, N.V.Nikitin va b.); 2) semasiologik grammatika nazariyasi (YU.S.Stepanov); 3) tilni mantiqiy analiz qilish nazariyasi (N.D.Arutyunova); 4) nutqiy tafakkur nazariyasi (S.D.Katsnelson); 5) nominatsiya nazariyasi yoki onomasiologik nazariya (E.S.Kubryakova); 6) germenevtika (G.I.Bogin); 7) nutqiy faoliyatning psixologik konseptsiyalari (A.R.Luriya, A.A.Leontyev va b.).3 Tilshunoslikni kognitsiyaning bilimlarni til shaklida kodlashtirilgan turli strukturalari bog’langan aspekti qiziqtiradi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kognitiv lingvistikaning asosiy vazifasi tilda aks etgan bilimlar sistemasini, ya’ni bilimlarni uzatish, saqlash, tashkil qilish, xotirada tiklash va bilimlarga ta’sir etishning til shakllarini o’rganishdir. Kognitiv lingvistikaning asosiy maqsadi – “tilni tadqiq qilish orqali bilimlarning turli strukturalariga kirib borish hamda til va ular o’rtasidagi bog’liqliklarni tavsiflash”dan iboratdir.4 Kognitiv lingvistikaning bosh tadqiq ob’ekti sifatida kognitiv faoliyat sifatidagi til qatnashadi, zero til “bilishning ajralmas qismi bo’lib, madaniy, psixologik, kommunikativ va funktsional faktorlarning o’zaro aloqasini aks ettiradi”. Kognitiv

lingvistika XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab juda tez rivojlandi. U kognitiv fan zamirida shakllandi. Kognitiv fan fanlararo bog'liqlik xususiyatiga ega fan bo'lib, u "insonning kognitiv imkoniyatlarini yagona mental mexanizmga birlashtirish va ularning o'zaro aloqasi hamda o'zaro ta'sirining umumiy printsiplarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi".¹ Kognitiv lingvistikaning paydo bo'lishi tadqiqotchilarning borliq, tafakkur, ong va tilning o'zaro aloqasi hamda fikr ijod qiluvchi va nutqni vujudga keltiruvchi insonga bo'lgan qiziqishining o'sishi bilan bog'liqdir. Bu bilan bog'liq ravishda til "borliqning inson aqli tomonidan qay tarzda ko'rilganligi va tushunilganligini, borliq ong tomonidan qay tarzda qayta ishlanib, kategorizatsiya qilinganligini aniqlovchi vosita" sifatida qarala boshlandi. ² "Ong, -deb yozadi E.S.Kubryakova, bu miyaning shunday tarkib toptiruvchi infrastrukturasiki, unda inson hayoti davomida to'planilgan tasavvurlar, taassurotlar, his-tuyg'ular va fikrlar ko'rinishidagi obrazlarni yoki yagona konseptual sistemaning konseptlarini aks ettiruvchi barcha mental tajriba mujassamlangan bo'ladi". ³ Ong "kognitiv daraja sifatida" ikki qismga bo'linadi: til ongi va tilga taalluqli bo'lmagan ong. "Inson ongi nafaqat o'zaro bog'langan mantiqiy hukmlar, tushunchalar va aqliy xulosalar sistemasi shaklida to'planilgan hayotiy tajriba, borliq va o'zi haqidagi bilimlar yig'indisini, balki verbal bilimlar, tilni, uning morfologik, fonologik, mantiqiy, pragmatik, sintaktik va b. sistemalarini bilishni ham o'zida mujassamlashtiradi. Bu bilan til ongi boshqa "bilimlar bloki"ning ichiga kirib boradi va ongimizning eng muhim qismi hisoblanadi".⁴ Shu tariqa, til ongi, bu – ongning " til ma'nolariga ega yig'indidan iborat qismidir".⁵ Kognitiv lingvistika nuqtai nazariga ko'ra ong to'plangan bilimlar hisoblansa, ushbu bilimlarning yig'uvchisi bo'lib tafakkur hisoblanadi. Ko'rinadiki, "tafakkur va ongning mavjud bo'lishi va joriylanishi o'zaro shartlangan: ong (to'plangan bilimlar holati) tafakkur jarayonini ta'minlab beradi, u esa, o'z navbatida, bilimlar (ongning) to'planish va sistemalizatsiya qilinish manbai hisoblanadi".⁶ Inson tomonidan bilimlar to'plash, ya'ni tafakkur jarayoni ikki vaziyatning mavjudligi sharti bilan kechadi. Bu, birinchi tomondan, tafakkur jarayonida borliqning aks etishi bilan, ikkinchi tomondan, uni kodlashtiruvchi belgi sifatidagi tilning mavjudligi bilan bog'lanadi. T.A.Fesenko ta'kidlaganidek:

“Agar ong (tafakkur ham) fikrning mantiqiy shakllarida borliqni aks ettiruvchisi bo’lsa, til (turli til formulalari vositasida) tafakkurimizning ifodalovchisi sifatida qatnashadi”.¹ Shunga ko’ra, kognitiv lingvistika borliq, tafakkur, ong va tilning o’zaro bog’liqligidan kelib chiqib, “ bilim olish, uni qayta ishlash, qayta fikrlash va uni matnlarda voqelanish jarayonlari o’rtasidagi o’zaro bog’liqliklarni o’rganadi”.² Kognitiv lingvistikaning bugungi kunda quyidagi asosiy yo’nalishlari mavjud: 1. Bilishning biologik nazariyasi. U biosemiotika ma’lumotlariga asoslanadi. Biosemiotika tadqiqotchilari ishlarida nafaqat inson, balki boshqa aqlli mavjudotlarning tafakkur jarayoni haqidagi fikrlar bildirilgan. 2. Bilishning biomadaniy nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko’ra oddiy tirik mavjudotlar uchun borliq faqat jismoniy ahamiyat kasb etsa, inson uchun u ham jismoniy, ham madaniy ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko’ra inson to’rt tipdagi qadriyatlarga ega bo’ladi: 1) stimuly; 2) assotsiativ; 3) taqlidiy; 4) ramziy.³ Shu tariqa, ushbu yo’nalishlarda til va bilishning biologik asoslari insonning qabul qilish, emotsional holati, empirik tajribasi nuqtai nazaridan ko’rib chiqiladi. 3. Sun’iy intellekt yaratish nazariyasi. Bu nazariya asoslari informatika fanidan olingan bo’lib, unda sun’iy intellekt va inson ongi, tili o’rtasidagi bog’liqliklar o’rganiladi. 4. Kognitiv semantika yo’nalishi. Kognitiv semantikani yana “tildagi konseptualizatsiya va kategorizatsiya nazariyasi” deb ham atashadi. Ushbu nazariyaga ko’ra til birligining ma’nosi boshqa kognitiv strukturalar kontekstida aniqlanishi zarur, chunki ushbu bilimlar bloki mazkur ma’nolar ortida turadi va ularni tushunishni ta’minlaydi”.⁴ Kognitiv strukturalar kognitiv sferalar, kognitiv kontekstlar (R.Lenker), mental makonlar (J.Fakonye, J.Lakoff) yoki freymlar (Ch.Filmor) deb ham ataladi. Kognitiv strukturalar “til analiziga til hamda tilga aloqasi bo’lmagan (entsiklopedik) bilimlarni jalb qilgan holda semantik nazariyaga ko’p darajali xarakterni bahsh etishni” taqazo qiladi.⁵ U yoki bu kognitiv strukturalarda aniqlanayotgan til birliklari ma’nolari u yoki bu konseptlar asosida shakllanadi. N.N.Boldiryovning ta’kidashicha, konseptlar til kategoriyalari shakllanishining asosida yotadi. Shunga ko’ra til birliklari va til kategoriyalari ma’nolarini kognitiv semantika doirasida tadqiq qilish konseptual analiz metodi asosida amalga oshiriladi. Konseptual analiz til birliklari va shakllarida

ifodalangan dunyoni anglash, tushunish, fikrlash, bilish usullarini o'rganishni taqazo qiladi. Bunda ma'nolar so'zlar, so'z birikmalari, jummlalar va, umuman, matnlar bilan ifodalanishi mumkin. Konseptual analiz konseptlar mazmunini va bu bilan bir qatorda yashirin, assotsiativ va b. konseptual xarakteristikalarini aniqlaydi. Konsept kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Kognitiv adabiyotlarda konseptga falsafiy, psixologik, leksik kategoriya sifatida qaraladi. Kognitiv lingvistika, xususan, kognitiv semantika nuqtai nazaridan konseptning o'zi nima degan savol tug'iladi. Olimlar konseptga turlicha ta'rif berishadi. N.Tixonovanning fikricha: "Konsept grammatik kategoriya bo'lib, u o'zining formal ko'rsatkichlariga va shu kategoriya ichidagi differentsial belgilariga egadir".¹ M.V.Nikitinning ta'kidlashicha esa: "Konsept sxolastik strukturaga ega bo'lgan diskret ko'pfaktorli mental birlikdir".² Konseptning ta'riflari haqidagi ko'plab fikrlarni umumlashtirib quyidagilarni aytish mumkin: 1. Konsept – bu ongda "nimanidir" bir lahzada chaqnashi. 2. Konsept – bu har bir elementi abstraktsiyaning yuqori darajasiga intiluvchi irearxik tashkil qilingan struktura. 3. Konsept – bu yagona butunlik bo'lib, u elementlari o'zaro bog'langan va o'zaro harakatda bo'lgan maydon tushunchasi bilan bog'lanadi. 4. Konsept – bu so'zlarning predmet yoki tushuncha sohasiga taalluqli ekanligiga qarab guruhlanishi. 6. Konsept –bu operativ mazmuniy xotira, mental leksikon, konseptual sistema va ong tili birligidir. Konseptlarning turli tiplari mavjud: 1. Ontologik konseptlar dunyoning ontologik strukturasi tavsiflaydi: vaqt, makon, xususiyat, sifat va b. Ular qo'llanish sohasi yoki foydalanish maqsadiga ko'ra cheklanmagan. 2. Pragmatik konseptlar tor qo'llanish sohasiga ega, ular bir ma'noli va bilishning quroli sifatida xizmat qiladi. 3. Aprior konseptlar. Ular his qilish tajribasini umumlashtirish, predmetlar bilan bevosita operatsiyalar o'tkazish orqali shakllanadi. 4. Lingvokreativ konseptlar til muloqoti va til birliklari semantikasi orqali dunyoni bilish asosida vujudga keladi va til belgisining mazmun planini o'zida mujassamlashtiradi. 5. Konsept-universaliyalar. Ular dunyo xalqlariga xos konseptlardir. 6. Konsept-unikaliyalar. Ular faqat muayyan bir xalqqa xos konseptlardir. Ularni etnodeymalar – "dunyoni ko'rish konseptlari" deb

ham atashadi, chunki ularda muayyan xalqning dunyoni ko'rishi uning milliy-madaniy xususiyatlari asosida amalga oshishi ifodalanadi.³

Bugungi kunda tilshunoslikda markaziy konseptlar¹ sifatida so'zning asosiy grammatik sinflari bilan semantik mutanosiblikka ega bo'lgan quyidagi konseptlar ajratiladi: ob'ekt, harakat, jarayon, o'rin, makon, vaqt, tafakkur, sifat, xususiyat va b.

2 Ma'lumki, voqelik parchasining, ma'lum hodisalarning lisoniy voqelanishi odiiy jarayon emas, bu jarayon tafakkur va lisoniy faoliyatlarning uyg'unlashuvini, hamkorlikdagi faoliyatini talab qiladi.

3 Kognitiv tilshunoslik sohasi vakillarining fikricha, "moddiy dunyo idroki, ayni paytda, idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik, ushbu tushunchaning mental namuna - konsept sifatida shakllanib, moddiy ko'rinish olishini taqazo etadi".

4 Konsept voqelikning tafakkurdagi in'ikosi – obrazning qayta ishlanishi natijasida hosil bo'ladi va uning bevosita lisoniy voqelanishi yana bir tafakkur akti ijrosining ta'minlanishini taqozo etadi. Ushbu akt maqsadli, ongli tafakkur faoliyatining namunasi bo'lib, u konseptlarning lisoniy voqelanish rejasini amalga oshirishni mo'ljallagan "botiniy nutq" sharoitida yuzaga keladi. "Botiniy nutqning" kechishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dastlabki o'rinda uning kuzatilayotgan axborotning kognitiv asosini hosil qilishiga e'tibor berishi kerak. Nutqiy tuzilma vositasida yetkaziladigan har qanday xabar ushbu xabar ob'ekti bo'lgan voqelik hodisasining mantiqiy kategoriallashuvi va konseptuallashuvini ta'minlovchi kognitiv asosga egadir. Boshqacha aytsak, voqelikning konseptuallashuvi va lisoniy voqelanishi bir butun jarayonning ikki ajralmas qismi bo'lib, ularning har ikkida ham so'zlovchi (muallif)ning hayotiy tajribasi, bilim doirasi, maqsad va qiziqishlari o'z ifodasini topadi. Bunda lisoniy qurilma va birliklar "ob'ektiv borliq va shaxs ongi, uning hayotiy faoliyati davomida hosil bo'ladigan tajribasi o'rtasidagi bog'lovchi halqa rolini o'ynaydi".⁵

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, konseptuallashuv jarayonida matn yaratilishi uchun poydevor yaratiladi. Zero, matn ma'lum bir voqelikning inson tomonidan idrok etilishi natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Voqelikni idrok etish uchun esa inson uning mohiyatini to'la tasavvur etishi, boshqacha aytganda, to'g'ri «hazm qila bilmog'i» yoki anglamog'i lozim. Faqat shundagina mazmunan aniq va tugal matn yaratiladi.

Demak, matn, shubhasiz, kognitiv tilshunoslikni tahlil ob'ekti bo'la oladi hamda ushbu yo'nalish doirasida uning mazmuniga xos botiniy xususiyatlar, konseptuallashuv jarayonida hosil bo'ladigan mental qolipining tuzilishi o'rganiladi. Matnning kognitiv tahlil ob'ekti sifatida e'tirof etilishi bevosita uning tabiati haqidagi tasavvurlarning ham ma'lum darajada o'zgarishiga sabab bo'ladi. Natijada I.P.Susovning matn tabiatan ikki jihatga ega («tekst dvulik po svoey prirode»)1 degan tavsifi o'z paytida (o'tgan asrning 80-yillarida) qanchalik to'g'ri deb qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan, bu qarash hozirgi kunda tadqiqotchilarni qoniqtirmay qo'ydi. Matnning ko'p jihatli va ko'p qirrali hodisa ekanligi tinimsiz ta'kidlanayotgan bir paytda, biz matnning lisoniy voqelikda tutgan o'rnini tasvirlovchi zanjirga yana bir xalqani qo'shishni ma'qul ko'rgan bo'lar edik va bu xalqa voqelik haqidagi tasavvurning konseptuallashuvini aks ettiradi. Kognitiv tilshunoslikka xos tadqiq uslublarning matn tahliliga tatbiq qilinishi, birinchi navbatda, matnning kommunikativ tizim va umuman, insonning borliq haqidagi bilimining asosiy unsuri sifatida e'tirof etilishi bilan bog'liqdir. Bunday e'tirof esa, o'z navbatida, tadqiqotchilar e'tiborini matnning ichki tuzilishi, strukturaviy xususiyatlaridan uning yaratilishi va mazmunan idrok etilishi (retsipient tomonidan qabul qilinishi) jarayoniga ko'chishiga sabab bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasini «lisoniy jarayonlar, lisoniy birlik va kategoriya kabilarni ularning xotira, tasavvur, idrok, ong bilan munosabatida o'rganish» deb bilgan E.S.Kubryakova 2 keyinchalik ushbu vazifani «lisoniy strukturalar va bilim strukturasi o'rtasida mavjud bo'lgan doimiy muqobillikni yoritish» darajasigacha kengaytirdi. 3 Matn, eng muhim lisoniy struktura bo'lish bilan bir qatorda, boshqa har qanday tuzilmaning ajratilishi uchun asos xizmatini o'tar ekan, u kognitiv-diskursiv tahlilda ham asosiy «sinov maydoni» bo'la olishga qodir. Darhaqiqat, matn tilshunosligining taraqqiyoti davrida «matn» tushunchasi ancha tor ma'noda talqin qilinib, tadqiqotchilar e'tiborini asosan uning moddiy jihatlari tortib kelayotgan edi. Matn yaratilishi va idrokini uzluksiz jarayon sifatida tasavvur qilish lozimligi faqat tilshunoslik fanida yuzaga kelgan «kognitiv inqilob» 1 sharoitidagina ayon bo'ldi. Ma'lumki, kommunikatsiya statika va dinamika, jarayon va natija qarama-qarshiligi hamda mushtarakligida kechadi. Xuddi shu

tarzdagi qarama-qarshiliklar va munosabatlar tizimida yaratiladigan matnni haqiqiy kommunikativ birlik sifatida e'tirof etib, uning kategorial xususiyatlari haqida so'z yuritishimiz mumkin. Shu jihatdan, ayrim tilshunoslarning «matn nihoyatda mavhum xaraktyerga ega va uni kommunikativ faoliyatdan ajratib olish mumkin»² degan da'volari, bizningcha, g'ayritabiiydir. Kichik hajmdagi matnlarning mazmuniy xususiyatlari bilan shug'ullangan tverlik olim V.I.Yuganovning ushbu da'vosi bir qarashda asoslidek tuyuladi, chunki qayta takrorlanish va o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan yozma (ayniqsa, badiiy) matn nutq vaziyati bilan bevosita bog'liqlik xususiyatiga ega emasdek ko'rinadi. Ammo yozma matn ham muloqot vaziyatiga aloqadorlik xususiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Ma'lumki, situativlik matnning doimiy kategorial belgilaridan biridir va buning isbotini biz dastlab matnning qayta takrorlanishi sharoitlarida o'z asosiy kommunikativ mazmunini saqlab qolishida yaqqol ko'ramiz. Har qanday muloqot sharoitida matn vositasida uzatilayotgan axborotning qiymati saqlanadi, zero, uzatilayotgan axborotga nisbatan qo'yiladigan asosiy talab - uning ushbu muloqot sharoiti uchun yangiligi, muhimligidir. Albatta, bunda matn muallifi axborotni uzatishning eng ma'qul usulini topishi zarur bo'lganidek, retsipient ham matn tuzilishiga tayangai holda muallif unga qanday axborotni yetkazish niyatida ekanligini zukkolik bilan to'g'ri anglay bilishi muhimdir. Nutqiy tuzilmalarniig matn maqomini olishida kommunikativ faoliyat ishtirokchilarining munosabati ham muhimligini unutmaslik lozim. A.A.Zalevskayaning sharhicha, har qanday nutq qatori uning faqat muallif yoki retsipient bilan munosabatda faollashuvidagina matn bo'la oladi. Matn inson tomonidan yaratiladi va idrok etiladi, insonning ishtirokisiz tasavvur qilinayotgan matn faqatgina «moddiy gavda» ko'rinishini oladi³. Taniqli psixolingvist A.A.Zalevskayaning fikriga batamom qo'shilishni istasak ham, lekin bir kichik e'tirozimizni bildirmaslikning imkoni yo'q. Haqiqatdan ham matn unga mazmun bag'ishlovchi faoliyatning ijrochisi (muallif yoki retsipient)siz hech qanday qiymatga (olimaning ta'biricha - «ichki quvvatga») ega bo'lmaydi, ammo matnning o'z-o'zicha, alohida «gavda» (telo teksta) sifatida mavjud bo'lishini tasavvur qilish qiyinligini olima unutgandek ko'rinadi. Balki, bu uning tilshunoslikda hanuz hukmron bo'lib turgan matn va diskurs hodisalarini keskin

qarama-karshi qo'yish an'anasidan to'liq voz kecha olmaganidan bo'lsa kerak. Bu ikki hodisaning ziddiyatini faollik - nofaollik, dinamik-statik xususiyatlarning qarama-qarshiligi bilan bog'lashga intilayotganlar oxir-oqibatda matnni yozma nutq mahsuli, diskursni esa og'zaki muloqot mahsuli sifatida ta'riflashga harakat qiladilar. Ushbu yo'sindagi talqin, so'zsiz, ularning birini (matnni) moddiy hosila, ikkinchisini (diskurs) esa nomoddiy natija ko'rinishida tasavvur qilishga undaydi.

1 Matn va diskurs munosabati masalasi hamda ularning ziddiyatli hodisalar sifatida talqin qilinishi matn tilshunosligi taraqqiyoti uchun noxush holatlar tug'dirishi mumkinligi tilshunoslarimiz tomonidan e'tirof etilgan. 2 Biz ham ularning fikrlarini quvvatlagan holda matnning yozma va og'zaki ko'rinishda mavjud bo'lishini batamom e'tirof etamiz. Shu bilan birgalikda, «diskurs» va «matn» tushunchalarini to'liq muqobillikka ega bo'lgan sinonim tushunchalar sifatida qarash ham unchalik ma'qul bo'lmasa kerak. Bizningcha, Sh.Safarovning «diskurs inson ongli faoliyatining bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning ko'rinishidir» 3 , degan ta'rifiga yergashgan ma'qul. Matn yaratilishini diskursiv faoliyatning bir turi sifatida talqin qilish ushbu hodisaning dinamik xususiyatlariga, jarayonli belgilariga ko'proq etibor qaratishni talab qiladi. Matnni o'zgarmas, harakatsiz, turg'un xususiyatlarga ega bo'lgan hodisa ko'rinishida tasavvur qilib bo'lmaydi. Matnning maqomini, qategorial belgilarini aniqlash uchun uning ongli diskursiv faoliyat bilan bog'liq tomonlariga e'tiborni kuchaytirish lozim bo'ladi. Lisoniy hodisalar talqiniga yangicha yondashuv natijasida tadqiq maqsadi matn yaratishning inson kognitiv qobiliyati bilan bog'liq jihatlarini aniqlash sari yo'naladi. Sub'ektning kommunikativ-ijtimoiy hamda til tizimi qoida-normalariga mos ravishda matn yaratish va uni mazmunan idrok etish qobiliyati nutqiy tafakkur faoliyatining samarasini ta'minlovchi asosiy omillardandir. Kognitiv tilshunoslikning vazifalari, uning asosiy tamoyillarini aniqlashga harakat qilgan V.Z. Demyankov ushbu yo'nalishdagi tahlilda «kognitiv muqobillik» va «bevosita muqobillik» tamoyillarini farqlash muhimligini alohida uqtiradi. «Kognitiv muqobillik», olimning ta'biricha, biror bir birlik haqida tasavvur qilish yoki uning haqida fikr yuritishda ushbu birlikning qanday idrok etilishi va hosil bo'lgan tushunchaning qay darajada kognitiv voqelikka mos kelishini anglatadi. Ushbu

tamoyil «bevosita muqobillik» holatiga ziddir. Binobarin, oxirgi tamoyilga binoan lisoniy voqelanish unsurlarining mazmuni bevosita voqelikdagi hodisalar mohiyatiga mos keladi. Ushbuning izohini ingliz kognitologi R.Uilinski keltirgan «Bruklin ko'prigi» so'z birikmasi tahlilida ham ko'rish mumkin. Bu lisoniy birlikning referenti ob'ektiv borliqdagi predmetdir. Bu predmet ko'prik ko'rinishiga ega va uni «Bruklin ko'prigi» deb atashadi (chunki u Bruklinda qurilgan). Agarda kognitiv muqobillik tamoyiliga amal qiladigan bo'lsak, «Bruklin ko'prigi» atamasi real borliqdagi aniq bir predmet bilan bog'liq emas, balki bu voqelikning kognitiv tasavvurdagi mohiyatiga yoki boshqacha ifodalaydigan bo'lsak, voqelikning tafakkurda qoldirgan «izi»ga mos kelishi kerak. 1 «Kognitiv muqobillik» tamoyiliga amal qilish nutqiy tuzilmalar (shu jumladan, matn) mohiyati, mazmunini bevosita «lisoniy birlik (belgi) - ma'no» zanjirida talqin qilish an'anasidan voz kechishga undaydi. Lekin shuning bilan birgalikda, kognitiv-diskursiv tahlil amallari hech qachon lisoniy voqelikni inkor etmaydi, chunki har qanday kognitiv tuzilma negizida lisoniy birliklarga xos ma'no ifodasi yotadi. So'zsiz, matn va boshqa lisoniy hodisalar tuzilishini to'liq tasavvur etish uchun ularning denotativ-referentiv tavsifi yetarli emas. Bu holatda matnning strukturaviy tuzilishi ahamiyatsizdek ko'rinadi. Ammo lisoniy belgining ixtiyoriyligi haqidagi Sosyur g'oyasini absolyutlashtirish yo'lidagi bunday qarashning samarasiz ekanligini semiotiklarning o'zlari ham allaqachon sezishgan. «Lison, -deb yozadi Ya.Kelemen, -faqatgina bilim to'plash va uzatish vositasigina bo'lib qolmasdan, balki ushbu bilimni o'ziga xos strukturalar asosida moddiylashtirish vositasi hamdir, shuningdek, u hayotning ma'lum shakli, uslubidir». 2 Kognitiv tahlil vazifalari va metodlarini chegaralash istagida bo'lgan yana bir rus tilshunosi A.E.Kibrikning e'tirof etishicha, «kognitiv tilshunoslik, uning har qanday ko'rinishdagi talqini va tavsifida kognitiv strukturalarning tilga nisbatan birlamchi ahamiyatga molik bo'lishiga tayanadi va bunda til birliklari va qoidalari kognitiv struktura va jarayonlarning grammatik tus olishi ko'rinishida tasavvur qilinadi». 1 Albatta, kognitiv strukturalarni ajratish har qanday lisoniy tuzilmaning yaratilishi, uning yuzaga kelish tarixini o'rganish uchun muhimdir. Lekin ushbu strukturalarning ustuvorligi ularning lisoniy voqelanishi bilan bog'liq

bo'lgan hodisalarni orqaga surib qo'yishga yoki, eng yomoni, inkor qilishga sabab bo'lmasligi kerak. Har qanday lisoniy birlikning kommunikativ qiymati, mazmunini uning shakliy tuzilishidan ajratgan holda tasavvur qilish qiyin. Mazmun va shakl hodisalarining bunday mushtarak munosabati matn hodisasiga ham taalluqlidir. Shunga binoan matnning tuzilishi o'rganilganda, asosan semantiksintaktik kategoriyalarga tayaniladi va bunday yondashuv ma'noviy hamda formal-sintaktik ko'rsatkichlarning birini ikkinchisidan ajratgan holda o'rganilishiga nisbatan ijobiy natijalar berayotganligi barchaga ma'lumdir. Sintaktik shaklning gap semantikasining hosil bo'lishidagi o'rni tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Matn mazmunining shakllanishida uning formal belgilari muhim rol o'ynaydi. Lekin matn mazmuni uchun asosiy tayanch nuqta uning kompozitsion qurilishidir. Kompozitsion shakl, birinchidan, matni boshqa nutqiy tuzilmalardan (ayniqsa, gaplarning tasodifiy qatoridan) farqlash uchun xizmat qilsa, ikkinchidan, unga tayangan holda matn turlarini ajratish mumkin bo'ladi. Kompozitsion shakl hodisasini matn tilshunosligi nuqtai nazaridan tahlil qilishga intilgan moskvalik germanist O.I.Maskalskaya matnning makrokompozitsiya va mikrokompozitsiya qurilishi haqida gapirgan edi. 2 Bulardan birinchisi yaxlit matnning kurilishi bo'lsa, ikkinchisida matn qismlarining ichki qurilishi o'z ifodasini topadi. Mikrokompozitsiya matnning yaxlit kompozitsioi qurilishini (makrokompozitsiyasini) ta'minlaydi. Barcha turdagi matnlar, ular yozma yoki og'zaki ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, ma'lum bir kompozitsion matritsa - sxema asosida yaratiladi. Masalan, epistolyar janrdagi matnlarning asosiy kompozitsion qolipi «sana - murojaat - asosiy qism - xotima va ehtirom - imzo» ko'rinishida bo'lsa, arizaning qolipi boshqacharoq: «murojaat shaxsi - murojaat bayoni - ehtirom - imzo» .3 Biror bir matn kompozitsiyasi qurilishining qoliplashganlik darajasini aniqlash uchun matnning ichki tuzilishini tahlil etish bilan chegaralanib qolish to'g'ri emas, balki turli turkumdagi matnlar qatorini qiyoslash amalidan ham foydalanish lozim bo'ladi. Bunda matn qismlari bajarayotgan vazifalardan «bayon», «izoh», «xulosa» kabilar) tashqari, u yoki bu belgining matnning kompozitsion tartibiga ta'sirini ham aniqlash imkoni tug'iladi. Bu ta'sirning darajasi esa turli matnlarda turlicha

bo'ladi. Matnlarning tuzilishidagi farqlar va ularda lisoniy unsurlarning qo'llanish darajasini kuzatgan uslubshunoslar turg'un va erkin strukturali matnlarni farqlashni tavsiya qiladilar. Har ikkala tipdagi matn uchun uning kompozitsion va mazmuniy strukturasini ifodalovchi vositalarni o'zgarib turish xususiyati xosdir. Lekin bunday o'zgarishlar (variativlik)ning miqyosi turg'un strukturali matnlarda, erkin strukturali matnlarga nisbatan bir oz chegaralangan. Uslubshunos N.M.Razinkinaning ta'kidlashicha, matn kompozitsion tuzilishida kuzatiladigan variativlikning miqyosi yoki darajasi matn mazmunida ifodalanayotgan mazmuniy-faktual axborot xarakteri bilan bog'liqdir. 1 Ma'lumki, matn tarkibida doimo zohiriy ifoda topadigan mazmuniyfaktual axborot «atrofimizdagi haqiqiy yoki tasavvurdagi olamda bo'lgan, bo'layotgan, bo'ladigan faktlar, voqea-hodisalar, jarayonlar haqidagi axborotlarki o'z ichiga oladi». Turg'un strukturali matnlarda bu turdagi axborot ko'pincha bevosita voqelik bilan bog'liq bo'lib, u ushbu voqelik haqidagi aniq ma'lumotlarni ifodalaydi. Shu sababli bayon qilinayotgan voqealar tipiklashtirilib, ular qat'iy stereotip-qoliplar qamroviga olinadi. Erkin strukturali matnlarda esa mazmuniy - faktual axborot bayoni unchalik qat'iy qoliplashmagan, ularning variativlik imkoniyatlari kengroq. Bunday holatni biz, ayniqsa, badiiy matnlar kompozitsion tuzilishida aniqroq kuzatamiz. Yagona bir syujet yoki fabulani turli strukturaviy hajmda yoki kompozitsion tuzilishda bayon qilish imkoniyatiga ega bo'lgan badiiy matnda mazmuniy-faktual informatsiya asar mazmunining denotativ-referentiv qobig'ini tashkil qiladi. Badiiy asar mazmunining asosiy negizini esa «badiiy-estetik xarakterdagi axborot», ya'ni mazmuniy-faktual informatsiya vositalari bilan tavsiflangan hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning muallif nigohidagi talqini, bu munosabatlarning sabab-oqibat aloqalari, ularning ijtimoiy-madaniy qimmatining muallif tomonidan anglashinilishini taqozo etuvchi mazmuniy konseptual axborot tashkil qiladi. Qisqaroq aytadigan bo'lsak, mazmuniykonseptual axborot sub'ektning borliqni idrok etishi natijasida hosil bo'lgan g'oya, fikrning individual talqinidir. Ushbu turdagi axborot ilmiyommabop asarlar matnida aniq lisoniy birliklar vositasida ifodalanadi, badiiy matnda esa mazmuniy-konseptual axborotni anglash uchun u «to'g'ridan-to'g'ri verbal ifodalamaganligi uchun» retsipient

tafakkur yuritishi, ya'ni «aqliy faoliyat» amalini bajarishi lozim bo'ladi. Haqiqatdan ham badiiy asar mazmunining negizini tashkil qiluvchi mazmuniy-konseptual axborot zohiran ifodalanmaydi. Bunday axborotning botiniy ko'rinishda bo'lishini ruhshunoslar ham e'tirof etishgan. «Har qanday hikoya (povest, roman)ning mazmuni, -deb yozadi ruhshunos V.V.Znakov, - predmetlik ma'nosida, «fabula»sida emas, balki o'quvchining o'zi o'qigan manbaga munosabatida mavjuddir. Bu munosabatlar o'quvchining talqinida, xulosalarida, taxminlarida, savollarga javob izlashida namoyon bo'ladi». Ammo badiiy matn mazmunining, unda ma'lum qilinayotgan axborotning estetik qimmatini faqatgina o'quvchining idroki, tafakkur qobiliyatiga bog'lasak, mazmunni butunlay sub'ektivlik bilan bog'lab qo'yishimiz mumkin. To'g'ri, matn mazmunini «chaqish» retsipientning vazifasi bo'lganidek, uning mazmuniy yaxlitligini (kogerentligini) va tugalligini aniqlash ham uning (retsipientning) ixtiyoridadir. Biroq, u bajarayotgan har qanday kognitiv amallarni harakatga keltiruvchi «kuch», mexanizm matnning o'zi, uning kompozitsion qurilishidir. Matn ma'lum strukturaviy ko'rinishga ega bo'lmasa, o'quvchida axborotni qabul qilish imkoniyati bo'lmaydi. Matnning mazmuniy yaxlitligi va kogerentligining o'zi kognitiv jarayondir, bu jarayonda retsipient matn kommunikativ-pragmatik maqsadini anglash majburiyatini olgan faol shaxs hisoblanadi. Matn va uni idrok etuvchi shaxs o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama kechadigan dialektik jarayondir. Bu jarayonda o'quvchi, bir tomondan, nutqiy axborot adresanti bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu axborotni anglovchi va tahlil qiluvchi sub'ektdir. Matn ma'lum kommunikativ maqsadni ko'zlagan holda tartiblashtirilgan lisoniy struktura bo'lib, uning tarkibida adresantning mazmun idrokiga yo'naltirilgan aqliy intellektual faoliyatiga ta'sir o'tkazuvchi turli kommunikativ-lisoniy «ishoralar ham mavjud bo'ladi. Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, matnning kategorial xususiyatlarini uni yaratuvchi va idrok etuvchi sub'ektlarsiz o'rganib bo'lmaydi. Matn mazmuni ikki tomonlama faoliyat natijasi bo'lganligi uchun ham uning kategorial belgilari muallif va adresant tomonidan bir xilda idrok etilishi lozim. Faqat shu yo'sindagina u yoki bu belgining barqarorlik darajasini aniqlash imkoni tug'iladi. Kichik hajmdagi matnlarni kognitiv tahlil

etgan E.V.Levchenko matnning birlamchi, barqaror, muallif va o'quvchi ta'siridan xoli xususiyatlari bilan bir qatorda, uning ikkilamchi, sub'ektning bevosita matn bilan munosabatta kirishishi jarayonida yuzaga keladigan xususiyatlari ham mavjudligiga e'tibor qaratish lozimligini uqtirgan. 1 Albatta, matn maqomini aniqlash, uning nutqiy muloqot jarayonida, tutgan mavqeini bilish uchun ushbu hodisaga xos bo'lgan barcha turdagi xususiyat va belgilarni o'rganish lozimligi hech kim inkor qilmaydi. Lekin tahlil qilinayotgan hodisaning ob'ektiv xususiyatini aks ettirmaydigan, o'tkinchi belgilar ko'p holatlarda sub'ekt tomonidan ushbu hodisaga beixtiyor qo'shib berilayotgan nisbat bo'lishi ham mumkin. Kategorial belgi uchun asosiy ko'rsatkichlar barqarorlik, turg'unlik, barcha sharoitlarda takrorlana olish xususiyatidir. Demak, matn tahliliga kognitiv-diskursiv tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, uning mohiyatini invariant xususiyatlar zanjiri belgilashini e'tirof etishimiz lozim. Xususiyatlarning invariantligi matn yaratilishi va idroki jarayonlarining uzluksizligini, ularning davomiyligi va biri-ikkinchisini taqozo etishini ta'minlaydi. Invariantlikning turli sharoitlarda (matnlarda) voqelanishi esa uning variantli qo'llanish imkoniyatlarini namoyon qiladi. Invariantlik va variantlik xususiyatlari munosabatlarining uzviyligi sharhini A.Hojiyevning yaqinda boshqa turdagi lisoniy hodisalar mohiyatidagi umumiylik va xususiylik belgilari muqoyasasida bildirgan fikrida ham ko'ramiz. Olimning qaydicha, paradigma - bir umumiy ma'nosida birlashuvchi xususiy ma'noli shakllar guruhidir. Bu guruh va unga xos ma'no tilning ma'lum sathiga xos kategoriya hisoblanadi. Masalan, fe'lning zamon kategoriyasi harakatning nutq paytiga munosabatini ifodalaydi. Zamon shakllarining hammasi uchun umumiy bo'lgan bo'lgan xususiyat ushbu kategoriyaning tub mohiyatini belgilaydi. «Zamonning har bir turi esa, - davom etadi A.Hojiyev, - o'zicha umumiylik va xususiyliklarga ega. Masalan, o'tgan zamon fe'li harakatning nutq momentigacha bo'lishini bildiradi - bu umumiylik - o'tgan zamon fe'lining mohiyati. Bu zamonning shakllari ana shu umumiy ma'no asosida birlashadi. Har biri esa o'ziga xos xususiyatga ega».1 Olimning umumiylik va xususiylik munosabati haqida bildirayotgan ushbu sharhi matnning kategorial va nokategorial belgilarini farqlash tamoyillariga to'la mos keladi. Bundan

tashqari, kategorial belgilar majmuasi matnning barcha turlariga bir xilda xos bo'lishini ham tasavvur qilish qiyin. Binobarin, badiiy matn uchun xos bo'lgan belgilar ish yuritish hujjatlari matnida unchalik aniq ko'rinishga ega bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, ayrim belgilar ma'lum turdagi matnlarda yetakchilik qilsa, boshqalari esa ularni kuchaytirish, aniqlashtirish vazifasini ado etishadi. Shu sababli bo'lsa kerak, ayrim nemis kognitologlari kategorial belgilarning matnda tartib topishini gradual hodisa sifatida qarashni lozim deb hisoblaydilar. Bundan ikki-uch yil oldin kognitiv tilshunoslikka oid o'quv qo'llanmalaridan birining muallifi «kognitiv tilshunoslik til tahlilini nutq tahlili bilan to'ldiradi» degan g'oyani isbotlamoqchi bo'ldi.

til tizimi tahlilining oddiy ilovasi sifatida tavsiflashdan yiroqmiz. Zotan, kognitiv tahlilda nutqiy faoliyat jarayonini ta'minlovchi vositalar, uni harakatga keltiruvchi mexanizmlarni aniqlash maqsadi ko'zlanadi. Kognitiv tilshunoslikning predmeti va vazifalarini aniqlash vazifasini ko'zlayotgan tadqiqotchilar muhokama qilinadigan asosiy muammo insonning voqelik bilan munosabatida hosil bo'lgan tajriba-bilimning kategoriallasuvi ekanligini ta'kidlashmoqda. Voqelikni idrok etish jarayonida hosil qilingan bilimni kategoriyalashtirish qabul qilingan (o'zlashtirilgan) axborotni tartiblashtirish usulidir. Ushbu usulning amalga oshishida esa til tizimi birliklaridan foydalaniladi. Voqelikni idrok etish yo'li bilai hosil bo'ladigan mental birlik - konseptdir. Konsept voqea-hodisalarni tipiklashtirish, modellashtirish xizmatini o'tab, tafakkur va lisoniy faoliyatlarni tutashtiradi va ularni ob'ektiv borliqni bilish jarayonida o'zaro birlashtiradi. Bilish jarayonining bir tekis kechmasligi ma'lum, bu jarayonda predmet-hodisalarning umumiy va xususiy belgilarini taqqoslash asosida ularni farqlamasdan turib, kategoriyalashtirib bo'lmaydi. Bu turdagi mental amallarning bajarilishi negizida kognitiv strukturalar majmuasi turadi. Kognitiv strukturalar (tuzilmalar) mohiyatan voqelikni idrok etish va shu idrok jarayonida yuzaga kelgan bilim (axborot)ni lisoniy voqelantirishning ramziy sxemasidir. Shunga binoan lisoniy tafakkur faoliyatida til tizimining rolini aniq tasavvur qilish imkonini beradigan kognitiv strukturalar - freym, skript, ssenariy, propozitsiya kabilarning o'rganilishi til va nutq hodisalarining ilmiy-nazariy tahlilida muhim o'rinni egallashiga aminmiz.

Bunday yondashuvning istiqboli, ayniqsa, matn tilshunosligi sohasida yaqqol ko'rinadi. Matnning yaratilishi va qabul qilinishi bosqichlarida voqelikda sodir bo'layotgan hodisa kognitiv obrazining tasavvur qilinishi birlamchi shartdir. Bu obraz, o'z navbatida, umumiy propozitsiyalardan tashqari, kommunikativ faoliyatni shartlovchi muloqot qoidalari, normasi, an'anasi kabi bilimlar zahirasini ham qamrab oladi. Ushbu bilimning barchasi freym yoki ssenariy ko'rinishida ifoda topadi. Freym inson ongida mavjud bo'lgan (aniqrog'i, yuzaga keladigan) kognitiv strukturadir.

MATNNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MAZMUNI

Ma'lumki, matn - axborot almashish birligi va u asosan shu vazifani bajarish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, uning mazmuni ham muloqot va axborot almashinuv kabi vazifalarning uyg'unligini taqozo etadi. Odatda, matn kommunikativ-axborot tuzilishining ikki bosqichli hodisasi sifatida qaraladi. Bulardan birinchisi, matnning tema-rema qurilishi bo'lsa, ikkinchisi uning mazmuniy (mavzuviy) markazi yoki asosidir. Matn mazmunining dinamik (harakatdagi) va statik (turg'un holatdagi) qobiqlarini tashkil qiladi deb hisoblanib kelinayotgan bu ikki xususiyatni alohida, ayri holda o'rganish odat tusiga kirib qolgan. Buning sababini, bizningcha, qo'llanilayotgan tadqiq uslublarining nomutanosibliigi bilan izohlash mumkin. Binobarin, gapdan yuqori birliklarning tema-rema qurilishi masalasi ushbu birliklardagi qismlarning o'zaro munosabatga kirishishi va shu munosabat asosida yagona yaxlitlikning tadrijiy shakllanish sharoitiga nisbatan o'rganilsa, mazmuniy markaz hodisasi esa shakllangan yaxlit tuzilma - matnga nisbatan qaraladi. Bundan tashqari, mazmuniy markaz aksariyat holatlarda matnning mavzusi, ya'ni tasvirlanayotgan voqelikdagi asosiy ob'ektning nomlanishi, xabar predmeti kabilar bilan bir xil hodisa sifatida qaraladi. Mazmuniy markaz va tema-rema tuzilishi munosabati ham bir tomonlama tavsiflanib kelinmoqda: matn mazmuniy markazining tavsifida uning tarkibidagi gap(lar)ning tematik jihatlariga ahamiyat berilib, rema tomoni esa nazardan chetda qolmoqda. Bunday holatda gap qurilishiga oid ayrim hodisalarga xos belgi-xususiyatlarning matn qurilishi tahliliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chib qolish xavfining paydo bo'lishi muqarrardir. Tema-rema munosabatlarini jumladan yuqori pog'onada turadigan

tuzilmalar tarkibidan izlash harakati o'z-o'zidan yuzaga kelgani yo'q. Gap mavhum birlik, qolip sifatida qaralganda, uning qurilishi aktual yoki boshqacha aytganda, biror bir mazmuniy bo'linishga ega bo'lishini tasavvur qilish qiyin masala. Mazmuniy bo'linish hodisasi va tema-rema munosabatlari faqatgina nutqiy voqelangan kommunikativ tuzilmalargagina xosdir. Shu sababli bu hodisa va munosabatlarni matn grammatikasi nuqtai nazaridan o'rganish ma'quldir. Lekin matn grammatikasi yo'nalishida bajarilayotgan tadqiqotlarda ham tema-rema munosabatlarining yaxlit matn mazmuniy markazi shakllanishidagi o'rni haqida aniq ma'lumotlar deyarli yo'q. Bu yo'nalishdagi ishlarda asosiy e'tibor mazmuniy markazning shakllanishi masalasi faqatgina tematik munosabatlarning yuzaga kelishi bilan bog'lanib, matn kommunikativ-axborot tuzilishining boshqa jihatlari nazardan chetda qolgan. Fikrimizcha, matn mazmuni, semantikasini uning yaxlitligini ta'minlovchi omillarning umumiyligida, tarkibiy qismlarning kommunikativ harakatida, ya'ni ushbu qismlar tema-rema munosabatlarining matn mazmunining shakllanish jarayonida bajaradigan vazifasi darajasida tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Matn - nutq birliklarining umumiy kommunikativ vazifani bajarish maqsadiga bo'ysundirilishi, yagona bir pog'onani mazmuniy-semantik butunlik tarkibida birikishidir. Har bir matn o'ziga xos mazmunga ega, unda aniq bir kommunikativ reja ifodalanadi va u ongli ravishda bajariladigan nutqiy ijod jarayonida shakllanadi. 1 Nutqiy muloqotga kirishayotgan shaxs ma'lum maqsadni ko'zlaydi va shu maqsadga nisbatan o'z muloqot rejasini tuzadi. Ushbu rejasini amalga oshirish uchun u til tizimi zahiralariга murojaat qiladi. Kommunikativ reja nutqiy xabar ko'rinishini olishga qodir tuzilma bo'lib, u yashirin mantiqiy predikat shakliga egadir. Matn semantikasi muammosi bilan batafsil shug'ullangan A.I.Novikov eslatganidek, so'zlovchida dastlab o'zi axborot berish istagida bo'lgan ma'lum predmet haqida tushuncha, fikr bo'lishi kerak. 2 Xuddi shu fikr konseptual tuzilma sifatida matnning mazmuniy markazini tashkil qilishi ehtimoldan xoli emas. Albatta, har qanday nutqiy birlik kabi matn ham tashqi ko'rinish, shaklga ega. Shakl va mazmun uyg'unligi yoki asimmetrik nomutanosibligini sezish uchun esa uni idrok etish lozim bo'ladi. Idrok etiladigan, anglanishi lozim bo'lgan narsa - matnning ichki, botiniy shaklidir. Botindagi shakl

matnning mazmuni va mundarijasini hosil qiladi. Matn mazmuni «tafakkurdagi tuzilma bo'lib, u inson ongida shakllanadi va tashqi shakl bilan tashkil kiluvchi qismlar (elementlar) bog'lanishida emas, balki barcha lisoniy vositalarning butun bir yaxlitlik hosil qilishi bilan bog'liqdir». Zero, «har qanday lisoniy hodisa ayni paytning o'zida shakl va ma'no uyg'unligiga ega bo'lmasa yoxud unda moddiylik va mavhumlik-ramziylik belgilari o'zaro uyg'unlashmasa, mazmun ifoda etish qobiliyatini yo'qotadi». 1 Matnning shakliy va mazmuniy tuzilishi o'rtasidagi munosabat masalasi muhimdir. Bu munosabatni o'rganishda tadqiqotchilar turli tadqiq metodlari va me'yorlariga asoslanib kelmoqdalar. Bularning ayrimlari «sof» tilshunoslik yo'nalishidagi tahlil uslublari bo'lsa (masalan, distributiv tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratish kabilar), boshqalari esa mainiqiy-vazifaviy xarakterdagilardir (masalan, nutqiy tuzilmalarning aktual bo'linishi nazariyasiga asoslangan tahlil metodi). Keyingi yillarda matn tuzilishini bevosita muloqot muhiti, vaziyati bilan bog'lab o'rganishni taqozo etuvchi psixolingvistik tahlil metodlari keng tus olayotganligi ma'lum. Lekin qo'llanilayotgan metodlar qaysi yo'nalishga xos bo'lishidan qat'iy nazar matn tuzilishi tadqiqi uch asosiy me'yorga tayanishi shubhasiz. Bu tadqiq me'yorlari quyidagilardir: a) tuzilma tarkibidagi bo'laklarning xarakteri (xususiyatlari); b) ularning o'zaro munosabati; v) ushbu munosabatlarning yaxlit mazmun ifodalanishidagi o'rni. Bu me'yorlarni inobatga olish tadqiqotchining diqqatini har qanday holatda ham matnning formasi, shakliy tuzilishiga yetaklaydi. Ilmiy-texnik mavzudagi matnlar mazmuni tadqiqi bilan shug'ullangan N.N.Leontyeva ko'rsatilgan yo'ldan borib, matn mazmuni shakllanishi va tahlilining lisoniy va axborot uzatish ko'rinishlarini farqlashga undaydi. Lisoniy yondashuv gap semantikasi tahliliga tayanadi. Boshqacha aytganda, matn ma'nosi alohida gaplar semantik tuzilishining aksidek yoki ularning to'plamidek tasavvur qilinadi. Ikkinchi yondashuvda esa uzatilayotgan axborotning butun bir matnning mazmunini aks ettirishi e'tiborga olinadi. Axborot tuzilishidagi mazmunda umumiy ma'no strukturasi alohida gaplar ma'nolariga taqsimlanishi e'tiborga olinmaydi. Axborot tuzilmalari murakkab, yetapli darajada katta hajmdagi butunliklar bo'lib, ular umumiy tushunchalar, koitseptlar shaklini olishlari mumkin. N.N.Leontyeva bu ikki yo'nalishni bir-biridan farqlashga har

qancha urinmasin, matn tuzilishi tahlili borasida u taklif qilayotgan uslublar bari bir ushbu tuzilmaning shakliga, formal xususiyatlariga borib taqaladi, ularga tayanadi. Matnning shakliy va mazmuniy xususiyatlari bogliqligiga bu tarzda (ya'ni matn grammatikasi doirasida) yondashish struktur-sistem tilshunoslikka xos bo'lgan tadqiq maqsadi va rejasining amalga oshishidan boshqa narsa emas. Matn sintaksisi bu holda umumiy sintaksis nazariyasining yakuniy bosqichi hisoblanadi, zero, xuddi shu bosqichda so'z va gapdan yuqori «tabaqa»dagi, ularga nisbatan murakkabroq tuzilmalar qurilishi qonuniyatlarini o'rganish, nutq qurilishining tamoyil va qoidalarini tadqiq qilish imkoniyati hosil bo'ladi. Natijada matn «gap - so'z - morfema - fonema» pog'onali qatorida joylashtirilib, unga eng yuqori bosqichdan o'rin ajratiladi. Matnning bu qatorga kiritilishi unga til tizimi birligi maqomining berilishiga sabab bo'ladi. Unda ushbu hodisa tahlili kichik birliklarning o'zaro birikishidan boshlanib, ularning mazmunan va shaklan o'zaro munosabatga kirishishi hamda oxir-oqibatda yagona yaxlit «mahsulot» mazmunini aniqlashga qarab intiladi. Matn mazmuni - inson tafakkurida uning kommunikativ maqsadi, g'oyasi bilan bog'lik holda shakllanadigan semantik tuzilma sifatida ta'riflanishi lozimligini A.I.Novikov taklif etganligini yuqorida eslatdik. Ammo psixolog olimning ushbu taklifi tilshunoslarni qanoatlantirmaydi. Birinchidan, olimning o'zi e'tirof etganidek, tavsiflanayotgan semantik tuzilma har qanday holatda ham tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak, ammo berilayotgan ta'rifda undagi qismlarning o'zaro munosabati e'tiborga olinmagan. Ikkinchidan esa, matn faqatgina tasavvur, his etish, idrok etish kabi hissiy kechinmalar, harakatlar maxsuli emas, balki u nutqiy va intellektual harakatlar uyg'unligini taqozo etuvchi, ma'lum faoliyat jarayonida hosil bo'luvchi hodisadir. Shuningdek, u barcha lisoniy qurilmalardek, botiniy va zohiriy sathlarga ega bo'lgan, mazmun va shakl uyg'unligi doirasida hosil bo'ladigan hodisadir. U ko'p qirrali nutqiy tafakkur faoliyati mahsuli sifatida, o'z tarkibidagi bo'laklarning mazmuniy mundarijasiga ta'sir o'tkazadi. To'g'ri, matn sintaksisi doirasidagi mazmuniy tahlil dastlabki o'rinda mazmunning denotat va referent bo'laklarini, ya'ni ushbu mazmunning voqelik bo'lagi bilan bog'liqligini aniqlashni talab qiladi. Biroq modallik, emotivlik, temporallik (voqeaning ma'lum zamon doirasida kechishi) kabi

mazmunning qator kommunikativ-pragmatik xususiyatlari matn mazmunining ajralmas qismi ekanligini ham unutmaslik lozim. Shu paytgacha bo'lgan kuzatishlarda matn mazmuni muammosiga oid ikki tushuncha, ya'ni «mavzu» va «mazmuniy markaz» tushunchalarini farqlamaslik holatlari uchrab turadi. Ushbu tushunchalar farqiga e'tiborsizlikning sababi matn mazmuni yoki uzatilayotgan axborotda voqelikdagi predmet-hodisalar ususiyatlarining aks topishidadir. Ammo mavzu (tema) ko'proq ifodalanayotgan ma'noning predmetlik xususiyati yoki referenti bilan bog'liq bo'lsa, mazmuniy markaz asosan voqelikdagi predmet-hodisa haqidagi fikrdir. Matn mazmuni tahliliga denotativ-referent yondashuvida qo'llaniladigan asosiy usullardan biri bayon qilinayotgan voqelikning alohida qismlari bog'liqligiga ishora qiluvchi tayanch so'zlar va iboralar majmuasini aniqlashdir. Yana bir keng tarqalgan usul kechayotgan hodisaning asosiy ishtirokchilari, shu jumladan, bayon «qahramoni»ni ajratishdir. Bu esa, o'z navbatida, matnga sarlavha tanlash imkoniyatini beradi. (Ushbu holatni ko'proq matbuotda e'lon qilinadigan maqolalar, maktab insholari mavzularida ko'rish mumkin.) So'zsiz, mavzu referent vaziyatining - poydevori, shu poydevor asosida mazmun shakllana boshlaydi. Ma'lumki, matn mazmunida denotativ va signifikativ qatlamlar ajraladi. Matn denotati tasvirlanayotgan voqelikdir, shuning uchun ham uning mazmuni ko'p jihatdan bayon qilinayotgan voqealar, hodisalar o'rtasidagi bog'liq munosabatlarni aks ettiradi. Psixolingvistlarning ta'biricha, matn denotati nutqiy faoliyatning dinamik birligidir va bu birlik bizning ongimizda ma'lum bir voqelik parchasining tasviri sifatida aks topadi. Matn denotativ mazmuni uzatilayotgan axborotning idrok etilish hamda tushunilish jarayonida anglanadi. Uzatilayotgan axborotni mazmuni, mohiyatini fahmlash uchun esa o'quvchi mental faoliyat ko'rsatmog'i, dalillar izlashi kerak bo'ladi. A.I.Novikov va G.D. Chistyakovalarning izoh berishlaricha, matnni tushunish faqat lisoniy bilim bilan chegaralanmaydi, bunda axborotni uzatuvchi va qabul qiluvchi uning mazmunini voqelikdagi yagona bir hodisa bilan bog'lashi g'oyat muhimdir. Shuning bilan birgalikda, yagona bir denotativ nutqiy tasviri muallif ko'zlayotgan g'oya, niyatga nisbatan turlicha bo'lishi mumkinligini ham unutmaslik kerak. Mualliflarning e'tirof etishicha, «g'oya mavzular tanlovi asosida

matn boshlanishi va tugallanishini muvofiqlashtiradi hamda bo'lajak matn yaratadi». 1 Shunday qilib, matn mazmuni muallif ko'zlayotgan g'oya, maqsad va muloqot muhiti asosida muallif ongida shakllantirilgan semantik tuzilmadir. Muallif g'oyasining shakllanishi va voqelanishi asosida matn mavzusi tug'iladi. Lekin referent vaziyati nafaqat predmetlar, balki belgi, munosabatlar harakatini ham qamrab oladi. Shunga nisbatan matnda denotatlar asosan ot turkumiga oid birliklar bilan ifodalansa, ular o'rtasidagi munosabatlar fe'l yoki boshqa predikatlar vositasida belgilanadi. Harakatdagi munosabatlar qamrovini aks ettiruvchi ma'noviy asosni aniqlash uchun esa, predmetlik xususiyatidagi denotativ-referent vaziyat tavsifiga ko'ra, signifikativ bog'liqlikka nisbatan beriladigan tavsifga tayanish ma'qulroqdir. Matn mazmuni signifikativ qismining shakllanishi ham voqelik (denotat)ning nutqiy tafakkurdagi tasviri asosida kechadi. Ammo bu nutqiytafakkur faoliyati ikkinchi bosqichdagi faoliyat bo'lib, uning yuzaga kelishida muallif g'oyasi, kommunikativ maqsadini anglashdan tashqari, kommunikatlarning bilim darajasini hisobga olish ham muhim. Sub'ektiv va ob'ektiv bilish individual va umumiy (ijtimoiy) bilimlarning o'zaro munosabati matnning mazmuniy tuzilishini belgilaydi (yaratadi). Matn mazmuniy markazi yoki, boshqacha aytganda, uning semantik mohiyati voqelik va uning nutqiy - tafakkur idroki jarayonida) tug'iladigan tushuncha hamda lisoniy tuzilma o'rtasidagi signifikativ ramzidir (aksidir). Bunday lisoniy va ruhiy-mantiqiy bog'liqlik propozitsiya ko'rinishini oladi hamda ushbu turdagi propozitsiya faqat kechayotgan voqea haqidagi xabargina bo'lib qolmasdan, yetkazilayotgan xabarning tasdig'i hamdir. Predikatlar mantig'i sohasidan o'zlashtirilgan propozitsiya tushunchasi tilshunoslikda anchadan buyon qo'llanib kelinmoqda. Mantiqda bu atamaga voqelik haqidagi hukmni nomlash uchun murojaat qilinadi. Shuning uchun ham mazmuniy sintaksisda propozitsiya - gaplar qatorining semantik invarianti sifatida tavsiflanadi. 1 Masalan, «Abbos menga kitobni berdi», «Abbos menga kitobni beradimi?», «Abbos, menga kitobni ber!», «Abbos menga kitobni berishi kerak» kabi gaplarning propozitsiyasi yagonadir: «Abbosda kitob bor va uni menga beradi». Ko'rinib turibdiki, propozitsiyaning ma'noviy va sintaktik tuzilishi voqelikdagi hodisa tuzilishiga mos keladi. Ammo bunday

strukturaviy mutanosiblik asosan gap sathida, ya'ni propozitsiyaning zahiraviy belgilarida saqlanadi, ya'ni «Abbos», «kitob» otlari va «men» olmoshi referentsiyasi va «bermoq» predikatining mantiqiy munosabatini hosil qiluvchi semantik tuzilmaning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi qolip mavjudligida namoyon bo'ladi. Virtual propozitsiyaning asosiy vazifasi voqelik haqidagi bilimning xotirada, ya'ni ongda saqlanishini ta'minlash va uning lisoniy ifodalanishi uchun zamin tayyorlashdir. YA gona bir zahiraviy propozitsiya turli muloqot muhitida, matnlarda turli darajada ifodalanishi mumkin. Bunda propozitsiyaning predikat qismi turli modallik va zamon xususiyatlariga ega bo'lishidan tashqari, uning ma'no strukturasi ham muloqot maqsadi, shartlariga moslashadi. Faol yoki kommunikativ propozitsiya mazmunan va shaklan nofaol, zahiradagiga nisbatan murakkab ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Eng asosiysi, faol propozitsiyalar qatoriga tayangan holda matn mazmuniy markazini ajratish, uning negizida shakllanadigan qismlar o'rtasidagi semantik munosabatlar miqyosini aniqlash imkoni tug'iladi. Bu yo'nalishdagi tahlilda asosiy tayanch, albatta, faol propozitsiyalardir, zero, aynan ularning doirasida gap tema-rema tuzilishidan matn uchun yaxlit bo'lgan tema-rematik tarkibga o'tish jarayoni kuzatiladi. Faol propozitsiyalarning matn mazmuni shakllanish jarayonida tutgan o'rning muhimligi yana shundaki, matn semantikasi lisoniy faoliyatning ikki muhim qismi bo'lgan nomlash va kommunikatsiyani bir xilda qamrab oladi. Shuning uchun ham matn mazmuni tahlili voqelikdagi vaziyatlarni lisoniy ifodalash, ya'ni nomlash bilan chegaralanib qolmasdan, balki muloqot jarayonida yuzaga keladigan matn mazmuni, boshqacha aytganda, inson faoliyati haqidagi axborotlarning ifodalanishini ham qamrab olishi lozim. G.V.Kolshanskiyning matn mazmunini nominativ va kommunikativ vazifalar uyg'unligida qarash lozimligi haqidagi fikrlari matn hodisasini kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish jarayonida o'z tasdig'ini topmoqda. Ma'lumki, shu paytgacha, ayniqsa, matn grammatikasi doirasida, asosiy e'tibor matnning ichki tuzilishiga va ushbu tuzilishning mazmunma'no shakllanishiga, ta'siriga oid muammolarga qaratilib kelinmoqda edi, endilikda esa diqqat-e'tibor matnning mazmunan va shaklan yaratilishi hamda uning mazmunini idrok etish masalasiga ko'chdi. Matnning

yaratilishi va mazmunining to'g'ri qabul qilinishi - kognitiv va nutqiy-kognitiv faoliyat natijasidir. Bu faoliyat dinamik xususiyatga ega bo'lganidek, uning mahsuli bo'lgan matn ham turg'un (statik) holatda qolmaydi. Ma'lum bir gaplar zanjiri haqiqiy matnga aylanishi uchun uni yaratuvchi va qabul qiluvchi shaxs bilan aloqada, munosabatda bo'lmog'i darkor. Matn inson tomonidan yaratiladi va idrok etiladi. Insondan alohida qaralayotgan matn «hech qanday ichki energiyaga ega emas». Matn mazmuni hodisasini to'liq yoritish uchun matn qismlarining o'zaro birikishi, yaxlitlikni hosil qiluvchi omillar (kogeziya, kogerentlik kabilar)ni sanab o'tishning o'zi yetarli emas. Matn mazmunining shakllanishi uni yaratuvchi shaxsning kognitiv va kommunikativ qobiliyati bilan bog'liq. Xuddi shuningdek, retsipient ham ushbu qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Bu ikki tomonning kognitiv-kommunikativ qobiliyati va imkoniyati keskin farq qilgan taqdirda mazmun noto'g'ri idrok etiladi, natijada ko'zlangan kommunikativ maqsad amalga oshmaydi. Shunday qilib, matn mazmuni hodisasining har tomonlama, shu jumladan, kognitiv-kommunikativ yo'nalish doirasida tahlil qilinishi faqat nazariy ahamiyatga ega bo'lmasdan, balki lisoniy faoliyat amaliyoti uchun ham muhimdir.

Nazorat savollari

1. Sun'iy intellekt yaratish nazariyasi kognitiv lingvistikada qaysi fan bilan bog'liq?
informatika
2. Voqelikning tafakkurdagi in'ikosi fanda nima deb ataladi?
konsept
3. Kognitiv lingvistikaning rivojlanish darajasi qaysi davrga to'g'ri keladi?
XX asrning ikkinchi yarmiga
4. Predmet va hodisalarni konseptual analiz metodi asosida o'rganuvchi til sohasi qanday nomlanadi?
kognitiv lingvistika
5. Bilishning biologik, biomadaniy, sun'iy intellekt yaratilishi nazariyalari qaysi tilshunoslik fanining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi?

6-MAVZU: Til kompetensiyalari. Madaniyatlararo til kompetensiyalari

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages – Umumiy Yevropa Til Ko'nikmasi Qolipi) tizimi butun Yevropa bo'ylab ishlatiladigan tillarni **o'rganish, o'rgatish va baholashga** doir masalalarni o'z ichiga oladi. Bugungi kundagi globallashuv va zamonaviy texnologik vositalar yordamida odamlarning bir-birlari bilan oson aloqa o'rnatishlari natijasida CEFR tizimi nafaqat Yevropada, balki Kolumbiya va Filippin kabi davlatlarda ham keng tadbiiq etilayapti. O'zbekistonda ham Prezidentning 2012-yildagi [Qaroridan](#) so'ng ingliz tilini o'rganish va o'rgatishga bo'lgan talab sezilarli darajada ko'tarildi hamda buning natijasi o'laroq yangi, milliy [NSFLA](#) tizimi CEFR asosida tashkil etildi.

Tizimning tashkil etilish tarixi Yevropaga ish izlab keluvchilar sonining ortishi bilan bog'liq. XX asrning o'rtalarida Yevropada ishlab chiqarish taraqqiy eta boshlagan va yangi ish o'rinlari yaratilib, ko'proq ishchi kuchiga talab orta borgan sari, Yevropaga ish izlab keluvchi va bu yerda butunlay yashab qolish niyatida tashrif buyurayotganlar soni ortib bordi. O'sha vaqtda Yevropada Ispan, Nemis, Fransuz va Italiyan tillaridan tashqari Ingliz tili ham keng miqyosda ishlatilardi.

Yevropaga yashab qolish uchun kelayotganlar Yevropaning mahalliy aholisi bilan bemalol, muammosiz gaplasha olishlari kerak edi. Shuning uchun Yevropaga ishlash uchun kelayotganlar mahsus imtihonlar topshirishlari kerak bo'lgan. CEFR tizimiga asoslangan imtihonlar dastlab Yevropada amal qiladigan barcha tillar bo'yicha olingan bo'lsa-da, bugungi kunda CEFR tizimidan eng ko'p hollarda ingliz tilini o'qitish, o'rganish va baholashda foydalanilayapti. Chunki butun dunyo ingliz tilida gaplashayapti va bu til birinchi raqamli jahon tiliga aylanib ulgurgan.

CEFR tizimi [Yevropa Konsulligi](#) tomonidan 1989-1996 yillarda amal qilgan "Language Learning for European Citizenship" ("Yevropa Fuqaroligi uchun Til O'rganish") dasturining tarkibiy qismi sifatida to'liq mukammallashtirilgan. 2001-

yilning noyabr oyidan boshlab esa CEFR Yevropa tillarini bilish darajasini baholashda asosiy me'zon sifatida qabul qilingan.

CEFR tizimi tillarni bilish darajasini uchta: A, B va C guruhlariga ajratgan holda baholaydi. CEFR darajalari sifatida berilgan baho quyidagilarni anglatadi:

A1 va A2 darajalar – tilni endi o'rganayotgan, boshlang'ich bosqichdagi foydalanuvchi,

B1 va B2 darajalar – tildan erkin foydalana oladigan, o'rtachadan yuqori darajadagi foydalanuvchi;

C1 va C2 darajalar – tilni mukammal darajada biladigan foydalanuvchilar

Bugungi kundagi [IELTS](#) va hatto O'zbekistonda endigina tashkil etilib, rivojlanayotgan [NSFLA](#) tizimlari ham Ingliz tilini Yevropa standarti, CEFR bo'yicha bilish darajasini baholash va aniqlashga asoslangan. Demak, bu turdagi ingliz tilini bilish va egallash darajasini aniqlash, baholash, o'rgatish va o'rganish tizimlari asosan Yevropada tildan foydalanish hamda Yevropa sharoitida muammosiz muloqotga kirisha olish darajasiga asoslangan.

CEFR asosidagi tilni bilish darajasini aniqlash imtihonlari asosan foydalanuvchilarni to'rt yo'nalish: gapirish, o'qish, tinglab tushunish va yozish ko'nikmalarining qay darajada rivojlanganligiga qarab baholaydi. Tizimda bu turdagi imtihonlarning har bir yo'nalishi uchun mahsus yo'riqnomalar, qoidalar va talablar mavjud. Shu bilan bir qatorda ushbu turdagi imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish uchun ham alohida yo'nalish va ko'rsatmalar nazarda tutilgan.

Turkiy tillar negizida shakllangan hamda bir necha asrlar mobaynida turli xil sinovlarga bardosh berib, sayqallangan o'zbek tili XXI asrda jahon tillari orasida o'z o'rnini yanada mustahkamladi. O'zbek tilida ona tili sifatida foydalanuvchilarning turli sohalardagi mislsiz yutuqlari tufayli bu til dunyo hamjamiyatini o'ziga jalb qilayotganligi hammaga ma'lum. Sir emaski ma'lum bir tilni o'rganish ijtimoiy talabdan kelib chiqadi. Ilgari chet tillarini xukmron bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va xalqaro aloqalar talablari orqali o'rganilgan bo'lsa, xozirgi kunda tillarga bo'lgan qiziqish o'sha til vakillarining ma'naviy va madaniy boy merosi, jahon tamadduniga qo'shgan hissasi va iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasidandan kelib chiqmoqda.

O‘zbekiston yangi asrga mustaqil, kuchli va barqaror davlat sifatida yuz tutdi. Yuqorida sanab o‘tilgan mezonlardan tashqari yurtimiz vakillarining ilm-fan va sport sohalaridagi ulkan marralarni zabt etishi millatimizga o‘zgacha qiziqishni uyg‘otib kelyapti. Ushbu qiziqishlar turistik, madaniy, kasbiy va ta‘lim soxalarida boshqa yo‘nalishlardan ko‘ra sezilarli darajada ustuvordir. Turizm, madaniyat, kasbiy hamda ta‘limdagi ma‘lumotlar almashinuvi o‘rganilayotgan davlat tilida egallanishi zamonaviy tendensiya hisoblanadi. Tabiiyki, shu o‘rinda o‘zbek tilini o‘qitish va o‘rganishni yangi darajaga olib chiqish davrning kechiktirilmas talabiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan 2016 yil 13 mayda qabul qilingan “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonida ko‘rsatilgan asosiy vazifalardan biri sifatida “Ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, uning xalqaro nufuzini oshirish” . Farmonda belgilab qo‘yilgan bosh strategik maqsad va o‘zining missiyasi mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, universitet o‘zbek tilini bilish darajasining xalqaro standartini ishlab chiqishni maqsad qilgan.

Bir qator Yevropa davlatlari Yevropa Hamjamiyatining a‘zosiga aylandi. Ular chet tillarini egallashda yagona talablar va mezonlarni o‘rnatish hamda o‘xshash muammolarni birgalikda hal etish orqali texnologiyalarni yaratishdagi xarakatlarini muvofiqlashtirishmoqda. Shu xarakatlar natijasida Yevropada chet tillari malakasining yagona baxolash tizimi tadbiq etildi. [6]

Common European Framework of Reference (Umum Yevropa Til Ko‘nikmasi Qolipi) 2001 yilning noyabr oyida Yevropa Hamjamiyati tillarni o‘rganish, o‘rgatish va baholash uchun asosiy mezon sifatida qabul qildi. Ushbu mezon Yevropa va boshqa davlat mutaxassislari hamkorligida 1971 yildan buyon o‘rganilgan tadqiqotlar samarasi xisoblanadi. CEFRning asosiy maqsadi:

- Turli mamlakatlar ta‘lim muassalari orasidagi hamkorlikka ko‘maklashish va yengillashtirish;
- Til malakalarini aniqlashda mushtaraklikni ta‘minlash;

- Darslik mualliflari, imtihon oluvchi tashkilotlar, o‘qituvchi va o‘rganuvchilarga ko‘maklashish va ta‘lim mutassaddilarining xarakatlarini muvoffiqlashtirish hamda umumlashtirishdir.

Bundan tashqari, chet tillarining imtihonlar mazmuni va standarti bilan shug‘ullanuvchi Yevropaning test oluvchi tashkilotlar Qo‘mitasi, chet tillarini o‘qitishning tizimli yondashuvi, chet tillari malaka ko‘nikmasi darajasini tizimlash, standart terminologiyalarni yaratish, chet tillarini o‘rganishning mazmun-mohiyatini belgilovchi tasvir birliklari tizimi tartibga solindi. Olib borilgan izlanishlarning e‘tiborga molik jihati shuki, ushbu tizim biron bir spesifik tilga qaratilmagan, ya‘ni barcha tillarning umumiy malaka ko‘nikmasiga qaratilgan:

	A1
Chet tilini sodda darajada qo‘llash (Basic User)	Boshlang‘ich daraja (Breakthrough) A2 Tayanch daraja (Waystage)
Chet tilini mustaqil darajada qo‘llash (Independent User)	V1 Mustaqil boshlang‘ich daraja (Threshold)
Chet tilini erkin darajada qo‘llash (Proficient User)	V2 Mustaqil muloqot daraja (Vantage) S1 Erkin muloqot daraja (Effective Operational User) S2 Mukammal daraja (Mastery)

“Chet tilini qo‘llash hamda o‘rganishni quyidagicha tasvirlash mumkin: Tilni qo‘llash hamda o‘rganish insonning ijtimoiy sub‘ekt sifatida **umumiy va kommunikativ kompetensiyalarni** o‘z faoliyatida davomida rivojlantirib borishini o‘z ichiga oladi. Ular turli xil cheklovlarni inobatga olgan holda turli sharoitlarda belgilangan vazifani amalga oshirishni ta‘minlovchi kompetensiyalarga asoslanadi hamda ma‘lum **bir mavzu va muloqot**

doirasidan kelib chiqqan holda matnlarni yaratish va tushunishga qaratilgan **faoliyat turlari va jarayonlarda** o'z aksini topadi.”

Umumiy kompetensiyalar tilga bog'liq bo'lmasa ham barcha faoliyatlarni o'z ichiga oladi, kommunikativ faoliyat bundan istisno emas. Umumiy kompetensiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Insonning xayot tajribasi, ma'lumoti yoki boshqa manbalardan kelib chiqqan holda **Dunyo xaqidagi bilimlari**.

2. Ma'lum bir til jamiyatiga tegishli bo'lgan quyidagi sohalarni qamrab oluvchi **Ijtimoiy-madaniy bilimlar**: kundalik hayot (bayramlar, ish kuni, bo'sh vaqt, kundalik turmush), hayot tarzi (yashash darajasi, ijtimoiy ta'minot tizimi), shaxslararo munosabatlar (jamiyatning sinflashish tizimi, oila munosabatlari, turli avlod vakillari o'rtasidagi munosabatlar, ish joyidagi munosabatlar, siyosiy va diniy guruh vakillari o'rtasidagi munosabatlar va h.), qadriyatlar tizimi va dunyo qarashlar (davlat xizmati, ta'lim sohasi, boshqaruv, xavfsizlik, an'analar, san'at, din, xajviya), imo ishoralar tili (millatning ushbu jihatdan o'zini tutishi), axloq qoidalari (sovg'alar, kiyim, tanishuv qoidalari, xayrlashuv va h), ma'rosimlarni ado etish (festivallar, ko'rgazma va namoyish jarayonida jamoat joyidagi xulq atvor).

3. Umumiy kompetensiyalarning uchinchi shakli **Madaniyatlararo bilimlar** hisoblanib unda til o'rganuvchi o'zining va o'rganayotgan til madaniyatining mushtarak hamda farqli jihatlarini ajratishi nazarda tutiladi. Madaniyatlararo bilimlari asosida shaxs o'zida boshqa madaniyat vakillari bilan aloqalar o'rnatish, yuz beradishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni bartaraf eta olish va madaniyatlararo vositachi vazifasini bajara olishi xususiyatlarini jamlaydi.

Til o'rganuvchining kommunikativ faoliyati uning nafaqat egallagan bilimlariga balkim shaxsiyatini aniqlab beruvchi shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Uning dunyoqarashi (masalan, yangi madaniyat va uning vakillariga nisbatan ochiqligi), o'z harakatlarining motivatsiyalari (qarorlar qabul qilishda intuisiyasi, qarorlarining nechog'lik o'ylanganligi, muloqotga bo'lgan ishtiyoqi) turli xil qadriyatlarga bo'gan munosabati (axloqiy va madaniy), anglash qobiliyati

(konvergentlilik, divergentlilik, mulohaza yuritish), xarakter (optimizm-pessimizm, muloqotga moyillik va aksincha bosiqlik) kabi xususiyatlari bilan belgilanadi.

Anglash qobiliyati umumiy kompetensiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. **O‘rganish qobiliyati** deganda yangi turdagi faoliyatda ishtirok etish va yangi axborotni mavjud bilimlar tizimiga singdira olish nazarda tutiladi. O‘rganish qobiliyati ko‘p o‘lchamli hisoblanib, o‘z ichiga o‘rganishni bilishni (o‘rganish mobaynida paydo bo‘ladigan imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanish, o‘z o‘quv jarayonini tashkil etish), evristik qobiliyatni (yangilikni anglash, yangi axborot vositalaridan foydalanish va h) o‘zida aks etadi.

Shunday qilib, kommunikativ kompetensiyalar shakllanishi o‘zagida umumiy kompetensiyalarning nechog‘lik mujassamlanganligi yotadi.

Kommunikativ vazifalarni bajarish uchun, Umumevropa Til Ko‘nikmasi Qolipining yaratuvchilarining fikricha, chet tilini o‘rganuvchi yuqorida sanab o‘tilgan umumiy qobiliyatlar va til kompetensiyalari birikmasi sifatida quyidagi kompetensiyalardan foydalanadi:

- lingvistik kompetensiya;
- sotsiolingvistik kompetensiya;
- pragmatik kompetensiya;

Lingvistik kompetensiya. Ko‘pchilik zamonaviy deskriptiv lingvistlar (chet tilini bilish darajasini o‘rganish ustida ish olib boruvchi olimlar) lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida quyidagilarni ajratadi: **leksik kompetensiya, semantik kompetensiya, grammatik kompetensiya; fonologik kompetensiya.**

Sotsiolingvistik kompetensiya. Ushbu kompetensiyaga ijtimoiy kontekstda tilni o‘rinli qo‘llash uchun kerak bo‘ladigan bilimlar va qobiliyatlar kiradi. Kompetensiya o‘z ichiga salomlashish, murojaat shakli, muloyimlilik qoidalari, ko‘p asrlar mobaynida shakllangan xalq donishmandligi umumlashmasi va uning madaniy boyligi, muloqot shakllari formulalari tizimini qamrab oladi.

Pragmatik kompetensiya. Uning tarkibi murakkab bo‘lib, o‘z ichiga **diskurs kompetensiyasini** (fikir bildirishni to‘g‘ri shakllantirish v ularni matnda jamlash

bilimi), **funksional kompetensiyasini** (turli kommunikativ funksiyalarni bajarish uchun fikrdan to'g'ri foydalanish, ishontirish, to'g'rilash, isbotlash, tushuntirish va h) kabi kompetensiyalar kiradi [4] .

Sanab o'tilgan yuqoridagi kompetensiyalar o'zagida chet tilini bilish darajasini aniqlash yotadi. Quyidagi jadvalda chet tilini bilishning B1 darajasi deskriptori (tasviri) misol tariqasida berilgan:

CHET TILI BO'YICHA V1 DARAJA UCHUN TA'LIM MAZMUNI [1,17 B]

Kompetensiyalar			Ta'lim mazmuni
Mavzular			<p>Kundalik hayotga oid mavzular (shaxsiy ma'lumot, oila haqida ma'lumot, bo'sh vaqtni o'tkazish va hokazo).</p> <p>Ijtimoiy mavzular (atrof-muhit bilan kundalik turmush va kasbga oid qiziqishlar bo'yicha ijtimoiy aloqalar).</p> <p>Ta'limga oid mavzular (ta'lim muassasalari, turli davlatlar ta'lim tizimini qiyoslash).</p> <p>Ijtimoiy-madaniy mavzular (O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlar, masalan Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya va Avstriya madaniyatlarining asosiy o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash).</p> <p>Kasbga oid mavzular: iqtisodiyot, biznes, turizm va ta'lim olish maqsadlari uchun maxsus chet tili (mavzuga oid til ko'nikmalarini shakllantirish, taqdimot qila olish va hokazo).</p>
Lingvistik kompetensiya	Nutqiy kompetensiya	Tinglab tushunish	<p>Shaxsiy va kasbiy qiziqishlarga doir dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish.</p> <p>Hujjatli va badiiy filmlarni tushunish.</p> <p>Autentik ixtisoslashgan yoki kasbga yo'naltirilgan diskurslarni tushunish.</p> <p>Ixtisoslik va ommabop mavzulardagi ma'ruzalar va taqdimotlarni tushunish.</p>

		<p>O'rganilayotgan chet tili variantlarini tushunish.</p> <p>O'rganilayotgan chet tilida suhbatlar va muhokamalarni tushunish.</p> <p>Rivojlantiriladigan ko'nikmalar: chet tili materiallarining asosiy mazmunini tushunish, to'liq batafsil tushunish, muayyan fikrlar yoki ma'lumotlar olish uchun tinglash.</p>
	Gapirish	<p>Dialog.</p> <p>Tayyorlangan mavzuda suhbatda ishtirok etish (intervyu, ma'lumotni to'g'riligini tekshirish va tasdiqlash).</p> <p>Tayyorlanmagan mavzuda suhbatda ishtirok etish (o'rganilayotgan chet tilida so'zlashadigan mamlakatlarga sayohat qilganda).</p> <p>Kutilmagan vaziyatdagi muloqotda ishtirok etish.</p> <p>Tanish mavzularda o'z fikrini bildirish (kitoblar, filmlar, musiqa xususida).</p> <p>Tanish va kamroq tanish bo'lgan mavzularda ma'lumot almashish.</p> <p>Debatlarda ishtirok etish.</p> <p>Narxini kelishish va hokazo.</p> <p>Monolog.</p> <p>Taassurotlar, orzu-umidlar va niyatlarini ifoda qilish.</p> <p>Ixtisoslik mavzularida taqdimot qilish.</p> <p>Ijtimoiy va kasbga doir sohalarda fikrlari va rejalari sabablarini keltirish va tushuntirib bera olish.</p> <p>Kitob va film mazmuni bo'yicha o'z taassurotlarini tasvirlash va hikoya qilish.</p> <p>Hikoya yoki muhokama mazmunini sodda iboralar bilan qisqacha gapirib berish.</p>
	O'qish	<p>Gazetalar, jurnallar, davriy matbuot nashrlarini.</p> <p>Yo'riqnomalar, ko'rsatmalar, buklet, broshyuralarni.</p> <p>Tarkibida ma'nosi taxmin qilinadigan kasbga oid ba'zi terminlar bo'lgan</p>

			matnlarni. Rivojlantiriladigan ko‘nikmalar: umumiy mazmuni tushunish uchun o‘qish, ayrim ma’lumotlarni olish uchun o‘qish, tafsilotlarni tushunish uchun o‘qish va yo‘nalishni aniqlash uchun o‘qish (belgilar, ko‘rsatkichlar va hokazo).
		Yozish	Ish yuritishga oid xatlar. Ish yuritish hujjatlari (ariza, shartnoma, rezyume va hokazo). Hisobotlar. Taqrizlar. Esse va boshqa yozma topshiriq shakllari. Loyiha ishi haqida hisobot.
Til kompetensiyasi	Fonetik kompetensiya	Kasbga oid vaziyatlarda gapning kommunikativ turlariga (darak, so‘roq, bo‘lishsiz, buyruq gap) mos ravishda ritm va intonatsiyani qo‘llash.	
	Leksik kompetensiya	So‘z yasalishi. Polisemiya. Sinonimlar, antonimlar va omonimlar. Kasbga oid turg‘un birikmalar.	
	Grammatik kompetensiya	Avvalgi darajada o‘zlashtirilgan grammatik materialni ommaviy va kasb-hunarga oid kontekstlarda to‘g‘ri ishlatish (fe‘l zamonlari, modal so‘zlar, sifat va ravishning qiyosiy darajalari, determinativ so‘zlar, predloglar va hokazo).	
Sotsiolingvistik kompetensiya			O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar xalqlari madaniyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish hamda ba’zi masalalarning tilga bog‘liqligini anglash, masalan, salomlashish odobi, murojaat shakllari, asosiy xushmuomalalik normalari va hokazo. Turli madaniyatlarda muloqotning noverbal elementlari ustida ishlashni davom ettirish: imo-ishora tili, noverbal signallar va hokazo. Ona tili bilan solishtirilganda chet

	tilida xatlar va xabarlar yozish qoidalarining xususiyatlari.
Pragmatik kompetensiya	Taqdimot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Og'zaki va yozma diskursda fikrlarni to'g'ri bog'lash. Turli ijtimoiy va kasb-hunarga oid vaziyatlarda zarur bo'ladigan ba'zi til vositalari, rasmiyatchilik darajalari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'lish. So'zlovchini gapiga aralashish, aniqlik kiritish sekin gapirishga undash, ularni boshqacha ifodalash va to'ldirish.

2006 yilda Kanada hukumati o'z xududida chet tillarini o'qitishda CEFRdan foydalanish bo'yicha tavsiyasini e'lon qilgan bo'lsa Yaponiyada 2005 yildan buyon CEFR ustida ish olib boruvchi olimlar jamoasi (the AJE (Association of Japanese Teachers in Europe.)-CEF Project Team) nemis til qolipi (Profile Deutsch) va fransuz tili qolipi (Un référentiel pour le français) dan foydalanilgan holda amaliy tadqiqotlarni olib borishmoqda.

Yevropa Hamjamiyatining chet tillarini o'qitish va o'rganishning bunday tizimli yondashuvi o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida foydalanilsa, uning boshqa millat vakillari o'rganishi uchun mushtarak malaka ko'nikmasini yarata olamiz hamda o'zbek tilshunoslari bilan chet el olimlarining harakatlari va o'zaro fikr almashinuvida muvofiqlikka ega bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, CEFR – Yevropadagi barcha gaplashiladigan, amalda bo'lgan tillarni bilish darajasini aniqlash, o'rganish va o'rgatish usullarini targ'ib qiluvchi til ko'nikmasi qolipi.

Nazorat savollari

1. Til kompetensiyalari birikmalarini aniqlang

lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya

2. “Kompetensiya”, “kompetentlilik” atamasi tilshunoslikda ilk bor nechanchi asrda va kim tomonidan qo'llanilgan?

XX asr o'rtalarida N. Xomskiy tomonidan

3. Kompetensiyaning asosiy turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan tayanch va xususiy kompetensiya
4. Kompetentlik tushunchasiga berilgan eng to'g'ri ta'rifni aniqlang. chuqur bilimga egalik, chuqur bilimga asoslanganlik
5. Nutqiy ko'nikmalar, ya'ni nutq faoliyatining asosiy turlari deganda nimalar tushuniladi?
o'qish, tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalari

7-MAVZU:Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari

“Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”. Bu fikrlar tilshunoslik oldiga ham ko'plab vazifalarni qo'yadi. Tilshunoslikning o'rganilmagan sohalarini tadqiq etishni dolzarblashtiradi. Hozirgi kun tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarining yuzaga kelishi, matn muammosining o'rganilishi bilan bog'liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas.

Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardagina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini qayd etish mumkin. O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning

ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N.Sayidrahimovanning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obyekt masalalari o‘rganilgan. Mazkur BMIda biz yuqorida qayd etilgan ishlarga tayangan holda o‘zbek tilida lingvokulturemalar va ularni lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq qilishga harakat qildik.

Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi

Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o‘rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning

madaniy til faktoridagi o‘rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi. Lingvokulturologiya o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondoshuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq.

Fan nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi. Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart”.

Til va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi. Ya’ni, til va madaniyat. “Til va madaniyat” muammosining o‘rganilishida bir qancha yondoshuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondoshuv faylasuf olimlar (S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyayn, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta’siridan borliqning o‘zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o‘zgarish yuz beradi, degan g‘oya yotadi. Ikkinchi yondoshuvda esa bu ta’sirning aks tomoni, ya’ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish bu yondoshuvning asosiy g‘oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumboldt, A.A.Potebnya) asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya’ni har bir xalq borliqni o‘z ona tilisi orqali ko‘radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g‘oya yotadi. Bu g‘oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni “O‘tkinchi dunyo”, ya’ni “borliqni anglash”, muayyan “mavjudlik va tafakkur” sifatida qaraluvchi g‘oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gipotezasi ko‘pchilik olimlar tomonidan inkor etilgan bo‘lsa-da, biroq ular boshqa usullar bilan tushuntirilishi murakkab bo‘lgan hodisalarni

anglashga yordam berdi. Xususan, N.I.Tolstning etnolingvistik maktabi vakillarining ishlari, E.Barminskiy va izdoshlarining lingvoantropologik yoʻnalishdagi ishlari buning isbotidir.

Uchinchi yondoshuv toʻgʻridan-toʻgʻri til va madaniyatning oʻzaro taʼsiri va aloqadorligi gʻoyalariga asoslanadi. Til milliy mentalitetning spetsifik qirralarini oʻzida namoyon etadi. Boshqa tomondan “madaniyat tilda“ joylashgan, yaʼni u matnda toʻlaligicha oʻz ifodasini topadi. “Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida koʻrindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini taʼkidlaydilar.

Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyay, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol oʻynaganligi taʼkidlanadi. Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarshlarga koʻra, til nafaqat madaniyat bilan bogʻliq, balki u oʻzida madaniyatning oʻsishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning oʻzida yaratish qurol madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini taʼminlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida maʼnaviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish , materiallari real yaratiladi. Ana shu gʻoyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi. Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

1. Lingvokulturologiya yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni oʻz ichiga oladigan alohida sotsial guruh.
2. Diaxronik lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq oʻtish vaqtining oʻzgarishlarini oʻrganadi.
3. Qiyosiy lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatda paydo boʻladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shugʻullandi.

4. Tavsifiy lingvokuturologiya. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida so‘zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obykti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g‘oya va boshqalar olingan.

5. Lingvokulturologik leksikografiya. Lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan shug‘ullanadi. Lingvokulturologiyaning bu yo‘nalishi hozirgi kunda boshqa yo‘nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G.Maltsevaning lingvoo‘lkashunoslik lug‘atini keltirishimiz mumkin. Bu lug‘at 25 bobdan iborat. Unda Germaniya realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o‘simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an‘analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to‘y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyuta tizimining rivojlanishi; uzunlik, og‘irlik, hajm, yuza; savdo-sotiq ishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan. Shuningdek, lug‘atda berilgan ma‘lumotlar ichidan til, kitobchilik, hattotlik san‘ati, talaba va talabalar hayoti, maktab, milliy kiyim-kechak spetsifik elementlari, milliy taomlar, milliy o‘yinlar, milliy raqslar, an‘anaviy ko‘rishish usullari va tilaklar, etiketga xos jumlar, shaxsiy ism va familiyalar, milliy imo-ishoralar, badiiy ijod namunalari, aforizm, milliy xarakter kasb etuvchi olmon qo‘shiqlari joy olgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bunday lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini yaratishda til va madaniyat munosabati xarakterini to‘g‘ri belgilash o‘ta muhim sanaladi.

Moskva lingvokulturologik maktablari xususida

Hozirgi kunda lingvokulturologiya tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biri ekan, u o‘zining muayyan rivojlanish bosqichlariga ega. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.V.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga sabab bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, A.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi

Lingvokulturologiyaning rivojida Moskva lingvokulturologik maktablari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ma'lumki, Moskva lingvokulturologik maktablari XX asr oxirlarida paydo bo'ldi. Bu borada rus tilshunoslaridan Yu.S.Stepanov, N.D.Arutyunov, V.N.Teliya, V.A.Vorobyovlar asos solgan bir qancha maktablar yuzaga keldi:

Yu.S.Stepanov lingvokulturologik maktabi. Bu maktab metodologiya bo'yicha E.Benvenist konsepsiyasiga yaqin bo'lib, o'zida madaniyatni aks ettiruvchi til birliklarining diaxronik aspektini tekshirish bilan shug'ullangan. Ular o'z maqsadlarini turli davrlarga oid matnlarini solishtirish orqali amalga oshirishgan. N.D.Arutyunov maktabi turli davr va xalqlarga oid matnlardan olingan universal madaniy terminlarni o'rganish bilan shug'ullangan. V.N.Teliya maktabi esa, frazeologizmlarni lingvokulturologik analiz qiluvchi Moskva maktabi sifatida Rossiya va chet davlatlarda taniqlidir. Teliya va uning shogirdlari til va uning haqiqiy mohiyatini semantik madaniyat nigohida, uni ham tilshunoslik ham madaniyat subyekti sifatida o'rgandi. Uning konsepsiyasi A.Vejbitskoy pozitsiyasiga yaqin (lingua – mentalis – mental lingvistika). V.V.Vorobyov va V.M.Shaklein va boshqalar Rossiya xalqlar do'stligi universitetida tashkil etgan lingvokulturologik maktabida V.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov konsepsiyasi rivojlandi.

Shunday qilib, lingvokulturologiya – o'z ichiga olgan jonli milliy tilni va tilda paydo bo'ladigan o'zgarishlarni ijtimoiy-madaniy protsessda o'rganuvchi gumanitar soha sanaladi. U tilning fundamental funksiyalaridan biri bo'lib, tilning rivojlanishi, saqlanishi madaniy translyatsiyasini o'z ichiga oladi. Til va madaniyatning o'zaro yaqinligi, ya'ni aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganishga imkon beradi.

Qiyoslaymiz:

1. Til va madaniyat inson va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.
2. Til va madaniyat o'zaro diologda mavjud: nutq subyekti va uning adresati

hamma vaqt madaniyat subyekti sanaladi (etiket shakllari: salomlashish, urf-odat bilan bog‘liq rasm-rusum va hokazolar).

3. Har ikkala shakl individual yoki umumiy mavjudlik shakliga ega, ya’ni til va madaniyat subyekti – hamma vaqt individual yoki ijtimoiy, shaxs yoki jamiyat sanaladi.

4. Til va madaniyat uchun umumiy belgi bu umumiylikdir.

5. Tarixiylik – “til va madaniyat” uchun (“dinamika” (o‘zgaruvchanlik) yoki “statika” (turg‘unlik)) eng asosiy xususiyat sanaladi.

6. Madaniyat xalqning o‘ziga xos tarixiy xotirasidir. Til esa o‘zining kumulyativ (to‘ldiruvchi) xususiyatiga ko‘ra o‘zida o‘tmish xotirasini saqlaydi va to‘ldirib boradi, shu kabi qator xususiyatlari ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi.

Ayni damda inson va jamiyat o‘rtasida quyidagi farqlar ko‘zga tashlanadi:

1. Kommunikatsiya vositasi sifatida til xalq madaniyatida va taraqqiyotda yuz bergan o‘zgarishlarni ozmi-ko‘pmi aks ettiradi.

2. Madaniyatning belgi sistemasiga o‘tishi tildan farqli ravishda mustaqil shakllanish xususiyatiga ega emas.

3. Til va madaniyat boshqa-boshqa (semiotik) belgi tizimidir. Bunday qiyoslash tadqiqotchilarni tilga ozomorf emas, balki “gamomorf”, ya’ni aloqador ekanligini isbotlaydi.

Lingvokulturologiyaning vazifasi til birliklarining madaniy ahamiyatini nutqiy vaziyat birliklari – frazeologizmlar yoki boshqa ekstrolingvistik til birliklari, madaniyaning ma’lum “kodlarini” ifoda etuvchi simvolik belgilarni solishtirish asosida ish yuritishdan iboratdir. Lingvokulturologiya uchun taraqqiyotga nisbatan madaniyatni o‘rganish muhimroq sanaladi, chunki taraqqiyot moddiy, madaniyat esa ramziydir. Mif, urf-odatlar, marosimlar madaniyatga xos, ular xalqning turmushi va marosimlari shaklida til birliklari va ifodalarida jo bo‘ladi. Shu sababli, ulardagi til birliklari lingvokulturologiyaning obyektiga kiradi.

XX asr boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib,

o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, shaxs va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandır”. G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, ”Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘I insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmgaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”.

Professor A.Nurmonovning “Sepir-Uorfning nisbiylik nazriyasi haqida mulohazalar” nomli maqolasida keltirishicha, B.Uorf til bilan madaniyat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiqlik mavjudligini ta’kidlash bilan birga, madaniyat hodisalari til shakllarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirida maydonga kelishini bayon qiladi. Lekin bunga B.Uorf hech qanday dalil keltirmaydi.

Darhaqiqat, til bilan madaniyat o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjud. Aslida madaniy til xalq madaniyatining bir qismi. Lekin til bilan madaniyat o‘rtasida determinizm, sabab-natija munosabati yo‘q. Buning dalili sifatida shuni ko‘rsatish mumkinki, ba’zi hollarda ma’lum xalq o‘z madaniyatini saqlagan holda, tilini o‘zgartirishi mumkin. Til shakli bilan madaniyat shakli bir-biriga muvofiq kelmagan holatlar ham uchraydi. Xususan, bir-biriga yaqqol qarindosh bo‘lgan xuta va navaxo tillarida gaplashuvchi qabilalar butunlay boshqa-boshqa madaniyatga ega. Aksincha, pueblo va pleyi hindu qabilalari juda yaqin madaniyatga ega bo‘lib, tamomila boshqa-boshqa tillardan foydalanishadi. Yoki Markaziy Osiyoda o‘zbek va tojik xalqlari tamomila boshqa-boshqa sistemadagi tillarga mansub bo‘lsalar-da, bir-biriga juda yaqin madaniyatga ega. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, madaniyat hodisalari bilan til strukturasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy tobelilik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiqlik yo‘q. Shunday bo‘lsa ham, ular o‘rtasida umumiy bog‘liqlik mavjud. Chunki, madaniyatdagi o‘zgarish tilda aks etadi. Shu ma’noda madaniyatning tilga ta’siri haqida gapirish mumkin, lekin shunda ham tilning madaniyatga ta’siri haqida emas. Ammo bu har ikki tushuncha, ta’kidlab o‘tganimizdek, bir-biriga uzviy bog‘liq va bir-birini taqazo etadi.

O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi va o‘rganilishi

Yuqorida tilga olganimizdek, hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida ham eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e‘tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi.

Shuningdek, lingvokulturologik yondoshuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida ham oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Saliyevaning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy harakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan. R.S.Ibragimovaning nomzodlik dissertatsiyasida esa ayol konseptining o‘zbek va fransuz tillarida ifodalanish yo‘llari tadqiq etilgan. Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati)” demakdir.

Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti tamoman boshqadir".

Shuningdek, tilshunos olim D.Xudoyberganova bu borada o'zining "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasini yaratdi. U o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish ochin berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berildi.

Mana shunday jarayonlarda yuzaga kelgan milliy til hodisalari – lingvokulturemalar esa o'z navbatida hozirgi kun tilshunosligida yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Nazorat savollari

1. Tilshunoslik fanining eng rivojlangan va ko'p tadqiqqa sabab bo'lgan sohasi qaysi?
2. Lingvokulturologiya atamasi dastlab kim tomonidan fanga ma'lum qilingan?
3. Lingvokulturologiya sohasi qachon fan sifatida shakllandi?
4. Lingvokulturologiya sohasining yo'nalishlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

V. KEYSLAR BANKI

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'ulo1-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas .

1. Keys bilan yakka tartibda tanishish.
2. Keys bilan jamoa bo'lib ishlash:
 - 2.1. Aqliy hujum: - muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi.
 - 2.2. Jamoaning bahosi va ustuvor g'oyalarning tanlanishi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

2-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas.

1. Keys bilan yakka tartibda ishlash.
2. Jamoaning muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal etish, bunday amaliy vaziyatdagi faoliyat bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan munozarasi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

3-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'rtacha o'lchamli.

1. Keys bilan auditoriyadan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlash.
2. Auditoriyada ishlash:
 - 2.1. Kichik guruhlarda ishlash: keys bilan yakka tartibda ishlash natijalarini muhokama qilish bo'yicha kichik guruhlardagi ishlar; jamoaning muammo yechimi bo'yicha taklif qilingan muqobil variantlarni tahlil qilishi va baholashi, ustuvor g'oyani tanlashi; muammoli vaziyatni hal etish dasturining ishlab chiqilishi.
 - 2.2. Guruh ishi taqdimoti.
 - 2.3. Muammoli vaziyat yechimi bo'yicha taklif etilgan variantlarning jamoadagi muhokamasi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

VI. GLOSSARIY

Adabiy til (standart) – umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalarga rioya qilinadigan, ma'lum me'yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to'g'ri qo'llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi til. Adabiy til muayyan xalqning shakllanishi va birlashishida muhim rol o'ynaydi. Adabiy til jamiyatning ilm-fan, ta'lim, adabiyot, diplomatiya, xuquqshunoslik, ish yuritish, turli tashkilotlar va ziyolilarning kundalik hayotida ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Adabiy tilga muomala jarayonida qo'llanadigan shevaga, so'zlashuvga xos bo'lgan so'zlarning ishlatilmasligi xosdir.

Aralash bilingvizm – nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo'lgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi.

Argo – jargondan farqli o'laroq, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo'llaniladigan u yoki bu darajadagi *yashirin, yasama* til. Argo jamiyatning asosiy qismidan izolyatsiyalashishga harakat qilgan, muayyan maqsadlar yo'lida birlashgan ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llaniladi. "Argo" termini XVIII asrda jinoyatchilar, tilanchilar va h.k. guruhlarning tili sifatida Fransiyada vujudga kelgan.

Ayollar nutqi – erkaklar nutqidan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladigan nutq. Masalan, yapon ayollarining nutqida 1-shaxs olmoshining qo'llanilmasligi; o'zbek ayollari nutqida erkaklarga nisbatan emotsional bo'yoqdor leksika, qarg'ishlar, erkalatish va kichraytish qo'shimchalarining keng qo'llanilishi, texnik terminlarning kam qo'llanilishi va h.k. Ayollar nutqi nutqiy differentsiatsiyaning genderlik belgisiga ko'ra namoyon bo'lishidir. Gender farqlari turli ekstralingvistik omillar (madaniy, ijtimoiy, diniy) bilan bog'liq bo'ladi. Odatda, gender farqlari tizimli til strukturasi ta'sir ko'rsatmaydi, ular faqat nutq darajasidagina kuzatiladi.

Bilingv – ikki tilni egallagan, ikki tilda erkin muloqot qiladigan shaxs. "Birinchi til" (ona tili) shaxsning bolaligida oilasidan o'zlashtirgan tili bo'lsa, "ikkinch til" keyinroq (kam hollarda bir paytda) o'rganilgan til hisoblanadi.

Bilingvizm (ikki tillilik) – ona tili bilan birga, chet tillaridan birida erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallash. Shuningdek, ma'lum lisoniy hamjamiyatda ikki tilda muloqotga kirishishdir.

Gender tilshunoslik – til hodisalarini til sohiblarining jinsiga ko'ra farqlariga bog'lab o'rganadigan soha. Ayollar va erkaklar tomonidan qo'llaniladigan til birliklaridagi farqlar ijtimoiy, diniy va h.k. omillar bo'lishi mumkin. Farqlar, asosan, leksik sathlarda (erkaklar nutqida qo'polroq, ayollar nutqida nozikroq leksikaning qo'llanilishi), ba'zan orfoepik va fonologik sathlarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Geterogen lisoniy vaziyat – qarindosh bo'lmagan tillarning komponentlaridan vujudga kelgan lisoniy vaziyat.

Gomogen lisoniy vaziyat – qarindosh tillarning komponentlaridan vujudga kelgan lisoniy vaziyat.

Dialekt – hududiy, ijtimoiy jamoa tomonidan muloqot vositasi sifatida qo'llaniladigan tilning ko'rinishi, turi.

Diaxron sotsiolingvistika – til rivojlanishining jamiyat rivojlanishi bilan aloqasini tavsiflovchi jarayonlarni, ya'ni til tarixini xalq tarixi bilan bog'lab o'rganuvchi sotsiolingvistik tadqiqotlar yo'nalishi.

Diglossiya – bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bog'liq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga ko'chish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish. "Diglossiya" termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirish, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko'ra galma-gal qo'llay olishni ham anglatishi mumkin.

Ekzogloss lisoniy vaziyat – har xil tillar majmuyi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 100 dan ortiq til mavjud.

Endogloss lisoniy vaziyat – bir tilning tarmoqlari (ost tizimlari) majmuyi.

Erkaklar nutqi – ayollar nutqidan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladigan nutq. Erkaklar nutqida me'yoriy bo'lmagan iboralar, jargonlar, texnik terminlarning ko'p qo'llanilishi kuzatiladi.

Hududiy dialekt – hududiy chegaralanganligi, qo'llanish doirasining cheklanganligi, boshqa dialektlar va adabiy tilga qarshi qo'yilishi bilan

xarakterlanadigan til shakli. Har bir hududiy dialekt u yoki bu darajada o‘ziga xos fonetik, grammatik, leksik va so‘z yasovchi farqlarga ega bo‘lgan tizimli til shaklini namoyon qiladi.

Idiolekt – 1) muayyan til sohibi nutqining fonetik, grammatik, leksik va uslubiy xususiyatlari. 2) individ nutqida turli til variantlari (hududiy va ijtimoiy dialektlar, gender)ning qo‘llanilishi.

Ijtimoiy-kommunikativ tizim – muayyan lisoniy hamjamiyatda qo‘llaniladigan, funksional jihatdan bir-birini to‘ldiradigan, o‘zaro aloqada bo‘lgan kodlar yoki subkodlar majmuyi.

Interferensiya – ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tiliga ko‘rsatgan har qanday ta’siri va bu ta’sirning natijasi.

Jargon – biron ijtimoiy guruh vakillarining o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari. Masalan, *oq* (aroq), *qizil* (vino) – ichuvchilar nutqiga xos; *strelka* (uchrashuv) yoshlarning nutqida; *ko‘k*, *ko‘kat* (AQSh dollari), *dodasi* (biron narsaning zo‘ri) – ko‘proq bozorчилarning nutqida qo‘llaniladi.

Kod – muloqot vositasi bo‘lib, u tabiiy tillar (o‘zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun’iy tillar: esperanto yoki zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikda kod deganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt, shahar koynesi tushuniladi.

Kodlar aralashuvi (bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish) – nutqiy muloqot chog‘ida so‘zlovchining kommunikatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan (bir til variantidan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko‘rinishiga o‘tishi.

Kommunikativ vaziyat – ikki yoki undan ortiq kishilar nutqiy muloqotining vaziyati.

Koordinativ (sof) bilingvizm – ikki til mutlaqo muxtor bo‘lib, har biri o‘zining tushunchalar majmuyiga mos keladi, ikki tilning grammatik kategoriyalari ham mustaqil bo‘ladi.

Koyne – aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og‘zaki muloqot vositasi.

Kreol til – pijin tillar asosida shakllangan va faoliyat jarayonida til egasining ona tiliga aylangan til. Pijin tildan nafaqat til egalarining mavjudligi, balki lug‘at boyligining kattaligi, grammatikasining turg‘unligi va funksiyalarining kengligi jihatidan farqlanadi.

Lisoniy hamjamiyat – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, bir til yoki bir necha til yordamida kundalik hayotda bir-birlari va turli ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro muloqotga kirishuvchi insonlar majmuyi.

Lisoniy ijtimoiylashuv – muayyan jamiyatda qo‘llaniladigan tilni o‘zlashtirish va undan foydalanish qoidalarini u yoki bu ijtimoiy rolni ijrosiga muvofiq ishlatish.

Lisoniy kod – lisoniy hamjamiyatdagi muloqot vositalari: til, dialekt, jargon va tilning uslubiy ko‘rinishlari.

Lisoniy vaziyat – ma‘muriy, siyosiy, funksional jihatdan davlatni birlashtirib turuvchi, muayyan jamiyatda qo‘llaniladigan bir yoki bir necha tillarning holati va ularning rivojlanish darajasi. Lisoniy vaziyat muayyan bir vaqtda, muayyan bir joyda qanday tildan foydalaniladi, tillarning soni, qanday turdagi til ushbu hududda ishlatiladi, qancha odam, qanday sharoitda bu tilda gaplashadi, ushbu jamoa a‘zolarining bu tilga bo‘lgan munosabati, umuman, tilning qo‘llanish doirasi haqidagi masalalarni o‘z ichiga oladi. Diglossiya, bilingvizm va ko‘p tillilik lisoniy vaziyatining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu aksariyat hollarda jamiyatda bir necha tillarning funksional jihatdan bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Lisoniy variativlik – bir xil ma‘noga ega bo‘lgan lisoniy belgilarning shaklidagi, tashqi ko‘rinishidagi nomutanosiblik, har xillik.

Mahalliy til – 1) ko‘p millatli davlatlarda ikki tillilikka ega bo‘lgan mayda millat vakillarining tili; 2) bir millatli davlatlardagi hududiy dialektlar va so‘zlashuv tili.

Makro sotsiolingvistika – tilning u yoki bu darajada ijtimoiy omillar bilan shartlangan yirik masshtabli jarayonlarini o‘rganadi. Bu jarayonlar jamiyatga to‘liqligicha yoki uning katta majmuasiga: ijtimoiy qatlam, etnos, etnik guruh kabilarga xos bo‘ladi. Makro sotsiolingvistikaning diqqat markazida bir ijtimoiy guruh bilan ikkinchi bir ijtimoiy guruh o‘rtasidagi nutqiy muloqot yotadi.

Mikro sotsiolingvistika – tilning kichik jamoalar (oila, ishlab chiqarishdagi guruhlar, bog‘cha, maktabdagi sinflar va h.k.)da ishlatilishi bilan shug‘ullanadi.

Katta va kichik ijtimoiy jamoalar nafaqat miqdor, balki sifat nuqtayi nazaridan ham farqlanadi: kichik ijtimoiy jamoada (masalan, oilada, turli o‘yinlar va ishlab chiqarish guruhlarida) qo‘llanuvchi til qonuniyatlari ko‘pincha kattalar jamoasida “ishlamaydi” yoki u darajada ta’sir qilmaydi va aksincha.

Monolingvizm (bir tillilik) – o‘zining etnik yoki boshqa bir tiliga ega bo‘lish. “Monolingvizm” tushunchasi alohida individlarga, guruhlariga va lisoniy hamjamiyatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Muvofiqlashgan lisoniy vaziyat – tillarning tarkibiy qismi funksional jihatdan bir xil ahamiyatga ega bo‘lib, bir xil muloqot vazifasini bajargan holda yuzaga keladi.

Muvofiqlashmagan lisoniy vaziyat – tillarning tarkibiy qismi funksional jihatdan har xil muloqot muhitida va turli ijtimoiy guruhlarda taqsimlanganda yuzaga keladi.

Nutq akti – u yoki bu kommunikativ vaziyat doirasidagi so‘zlovchining aniq nutqiy harakatlari.

Nutqiy muomala – kommunikativ vaziyat qatnashchilaridan bo‘lgan yo so‘zlovchi (adresant), yo tinglovchi (adresat)ning nutqi yoki nutqiy reaksiyasini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos xususiyatlari.

Ona tili – insonning bolaligidan (“beshikdan”) o‘zlashtirgan birinchi tili. Odatda, u insonning ota-onasi yoki ulardan birining tili bilan muvofiq keladi. Ayrim hollarda inson keyinchalik boshqa bir tilni o‘zlashtiradi va bu til shu inson uchun asosiy muloqot vositasi bo‘ladi. Biroq insonning ona tiliga bo‘lgan iliq munosabati va hurmati har doim saqlanib qoladi. Chunki ona tili kishi millatining asosiy belgilaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Paralingvistika – 1. Nutqiy xabarga kiritilgan noverbal vositalarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasi. 2. Nutqiy muloqotda ishtirok etadigan noverbal vositalar majmuyi.

Pijin – xalqlar o‘rtasida boshqa muloqot usuli bo‘lmagan vaziyatda vujudga keladigan, etnik sohibi bo‘lmagan, lug‘at boyligi va ijtimoiy funksiyasi cheklangan, beqaror grammatik tuzilishga ega bo‘lgan aloqaviy til turi. *Pijin* mahalliy tillarning chatishuvidan paydo bo‘ladi. “Pijin” terminining etimologiyasi to‘liq aniqlanmagan. Biroq uni kantoncha (xitoycha) *bei chin* “pul to‘lamoq”,

inglizcha “business” (pay money) soʻzidan kelib chiqqan deb qaraladi. Pijin tillaridan ikkinchi til sifatida katta port shaharlarda foydalaniladi.

Rasmiy til – 1. Davlat tilining siyosiy-yuridik sinonimi. Ayrim mamlakatlarning qonunchiligida “rasmiy til” oʻrniga “davlat tili” termini qoʻllaniladi. 2. Xalqaro doiralarda, xalqaro tashkilotlarda qoʻllaniladigan tilning yuridik maqomi.

Sinxron sotsiolingvistika – til va jamiyat aloqalariga tegishli munosabatlar va jarayonlarni oʻrganadi. Munosabatlar bu aloqalarning statikasini, jarayonlar esa ularning dinamikasini ifodalaydi.

Sleng – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning ogʻzaki nutqida qoʻllaniladigan, emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlgan soʻz va iboralar. Masalan, “tusovka”, “telejka”, “tachka” va h.k.

Sotsiolekt – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga koʻra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli.

Sotsiolingvistika – tilshunoslikning tilni va uning mavjud boʻlgan ijtimoiy sharoitlar bilan bogʻliqligini oʻrganadigan sohasi. U tilning ijtimoiy tabiatini, ijtimoiy funksiya(vazifa)larini, shuningdek, ijtimoiy omillarning tilga boʻlgan taʼsir mexanizmi bilan bogʻliq masalalarni oʻrganadi.

Sotsium – hayoti va faoliyati tarixan ijtimoiy shakllar bilan chambarchas bir-biriga bogʻlangan insonlar majmuyi. Jamiyat uning aʼzolarining oʻzaro ijtimoiy aloqada boʻlgandagina mavjud boʻladi, rivojlanadi. Mazkur aloqa faqat til vositasida amalga oshiriladi. Til vositasidagi oʻzaro aloqa bir yoki bir necha tillar yordamida amalga oshishi mumkin.

Standart til – 1. Adabiy til. 2. Standartlashgan shakllarni oʻz ichiga olgan til.

Standartlashtirilgan til – jamiyat tomonidan kundalik hayotda oʻzaro fikr almashish vositasi sifatida foydalaniladigan milliy adabiy til. Standartlashtirishning muhim omillaridan biri til grammatikasi va lugʻatini tuzishdir.

Subkod – funksional darajasi va hajmi “kod”dan kichik boʻlgan kommunikativ osttizim, tilning turi. Masalan, hozirgi oʻzbek milliy tilining subkodlari bu – adabiy til, hududiy dialektlar, ijtimoiy jargonlar, shahar (Toshkent) koynesi hisoblanadi.

Subordinativ bilingvizm – so‘zlashuvchilar ikkinchi tilni ona tilining ta’siri vositasida qabul qiladi: tushuncha ona tilining leksik birliklari, qolganlar esa ikkinchi til birliklari bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.

Sun’iy til – tabiiy tilni qo‘llash imkoniyati cheklangan sohalar uchun yaratilgan belgilar tizimi. Sun’iy tillar orasida muayyan maqsadlar uchun (masalan, matematikada foydalaniladigan ramzlar tili) yoki inson muloqotida foydalanishga mo‘ljallangan maxsus tillar ajratiladi. Bunga esperanto xalqaro tili misol bo‘la oladi. Bu til 1887-yilda polyak olimi L.Zamengof tomonidan yaratilgan bo‘lib, keyingi yillarda muallifning o‘zi va boshqa shaxslar tomonidan mukammallashtirilgan. Uning grafikasi lotin alfavitida, so‘zlarning aksariyati Yevropa tillaridan olingan, grammatikasi agglyutinatsiya prinsipiga asoslangan. Hozirgi kunda u ancha keng tarqalgan sun’iy tillardan biridir. Bu tilda axborotlar chiqariladi, bir qancha mashhur klassik asarlar tarjima qilingan. Ba’zi mamlakatlarda bu tilda radio eshittirishlar ham tashkil etilgan. Sun’iy tillarni o‘rganish bilan interlingvistika shug‘ullanadi.

So‘zlashuv tili – adabiy til me’yorlariga ega bo‘lmagan, kundalik muomalada qo‘llaniladigan tilning og‘zaki shakli. Millatning shakllanishi davrida milliy muloqot vositasi sifatida yuzaga keladi. So‘zlashuv tili bir tomondan, yangi birliklarni muomalaga kiritishi, ikkinchi tomondan, tayyor qoliqli konstruksiyalarni qo‘llash bilan xarakterlanadi.

Termin – biron soha yoki faoliyatga oid muayyan tushunchani aniq ifodalaydigan, soha mutaxassislari tomonidan kasb-hunar faoliyati bilan bog‘liq muloqotda, rasmiy muomalada qo‘llaniladigan so‘z yoki so‘z birikmasi. Masalan, *leksema* - tilshunoslikka, *atom* – fizika va kimyoga oid termin.

Til – insonning muhim aloqa vositasi, tilshunoslikning asosiy obyekt. “Til” termini o‘zaro bog‘langan ikki ma’noga ega: 1) til – muayyan belgilar tizimi; 2) biron bir sotsium tomonidan muayyan vaqtda va muayyan makonda qo‘llaniladigan aniq mavjud bo‘lgan belgilar tizimi.

Til maqomi – 1. Tilning yuridik maqomi – muayyan ijtimoiy-kommunikativ tizimdagi til qo‘llanilishininig qonuniy tasdiqlash. Masalan, tilga davlat tili maqomining berilishi. 2. Tilning faktik maqomi – tildan aniq foydalanish, uning

vazifaviy yuklamasi. Bunda tilning maqomi qonunan belgilanmasligi mumkin. Masalan, sobiq Sho‘rolar davrida rus tili davlat tili maqomiga ega bo‘lmasa-da, davlat tili vazifasini bajarib kelgan.

Til me‘yori – biror bir jamiyatda, muayyan bir davrda lisoniy vositalarni tanlash, belgilash va ulardan foydalanish qonuniyatlari.

Tilni planlashtirish – “til siyosati”ga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, tilga nisbatan bo‘lgan har qanday ongli va ma‘lum maqsadga qaratilgan o‘zgarishlar.

Til siyosati – davlat, sinf, ijtimoiy guruhlarining mavjud tillar yoki til osti tizimlari vazifalarini o‘zgartirish yoki saqlab qolish, yangi lingvistik me‘yorlarni joriy qilish yoki eski me‘yorlarni saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi.

Til sotsiologiyasi – fanlararo chatishgan soha bo‘lib, u sotsiologik maqsad va tadqiqot metodlarini lingvistik materiallar bilan aloqadorlikda tadqiq etadi.

Til qo‘llash sohasi – so‘zlashuvchilarning muayyan til vositalari va ularning bir-biri bilan birikuv qoidalarini tanlab olib amalga oshishini qondiradigan, bir xil kommunikativ ehtiyojlarni tavsiflaydigan til tashqarisidagi muhit sohasi.

Xalq tili – 1. Muayyan tilning ko‘p tarqalgan, umumiyatda keng qo‘llaniladigan til turi. Orfoepik, grammatik va leksik me‘yorlardan holi bo‘lgan, o‘zida dialekt va shevalarni birlashtirgan so‘zlashuv tili. 2. U yoki bu shaklda dialektal xarakterga ega bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining tili.

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
- 2.Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. 9-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
- 4.Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
- 5.Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
- 6.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim - tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islox qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida”gi 1997 yil 6 oktyabrdagi №1869-sonli Farmoni.
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 1998 yil 5 yanvardagi 5-sonli Qarori.
- 9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1998 yil 5 yanvardagi 4-sonli Qarori.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi 343 - sonli Qarori.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy o‘quv yurtlari talabalariga stipendiyalar to‘lash tartibi va miqdorlari to‘g‘risida”gi 2001 yil 17 avgustdagi 344 - sonli Qarori.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagi “Nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini lisenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 100-sonli Qarori.

- 13.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy ta’lim muassasasiga pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 2006 yil 10 fevraldagi 20-sonli Qarori.
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 25-sonli Qarori.
- 15.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlash xususidagi 2010 yil 18 iyundagi 118-sonli Qarori.
- 16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2010 yil 28 iyuldagi 4232-sonli Farmoni.
- 17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2011 yil 20 maydagi 1533-sonli Qarori.
- 18.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2012 yil 24 iyuldagi 4456-sonli Farmoni.
- 19.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli Qarori.
- 20.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “O‘rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi 2012 yil 18 oktyabrdagi 297-sonli Qarori.
- 21.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2012 yil 28 dekabrdagi 365-sonli Qarori.

- 22.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 29 dekabrda
“Respublika oliy ta’lim muassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish
to‘g‘risida”gi 371-son Qarori.
- 23.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi
“Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash
to‘g‘risida” 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar
kiritish haqida”gi 3-sonli Qarori.
- 24.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdagi
“Magistratura to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 36-sonli Qarori.
- 25.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim
muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 4732-son
Farmoni.
- 26.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagi “Oliy
ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirishni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 242-sonli Qarori.